

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



ZIYO MASKANI

Denov-2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



ZIYO MASKANI

*Manzili: Surxondaryo viloyati, Denov tumani,
Bog‘ko‘chasi, 112- uy. Tel.: (76) 228-08-27
ichki raqam(110)*





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING DENOV
TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

ZIYO MASKANI

Muallif:
O.A.Ruziyev
Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Denov -2025

MUQADDIMA

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini isloh etish, ularni zamonaviy bosqichga olib chiqish borasida izchil va keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ezgu yo'lda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar zahirida o'z kasbiga sadoqatli, bilim va tajribasini yurt taraqqiyoti yo'lida safarbar etgan fidoyi ustoz va olimlarning xizmatlari turibdi. Ayniqsa, bugungi globallashtiruv va raqobat sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsion g'oyalarning joriy etilishi, o'z navbatida, yuksak bilimli va tashabbuskor yetakchilarni talab qilmoqda. Ana shunday jonkuyar, ezgu maqsadlar yo'lida intilayotgan, vatan istiqboli uchun mas'uliyatni teran his etgan, o'zining boy tajribasi, keng dunyoqarashi, teran tafakkuri va fidokorona mehnati bilan yurtimiz ilm-fani va ta'lim tizimi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yuksak salohiyatli institut olim va olimalarining xizmatlari beqiyosdir.

Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (keyingi o'rinlarda - institut) tarkibida hozirgi kunda **4** ta fakultet va **16 ta** kafedra faoliyat ko'rsatadi.

Professor-o'qituvchilar soni 329 nafarni tashkil etib, shundan 9 nafari fan doktori (DSc), 78 nafari fan nomzodi (PhD), 4 nafari professor, 27 nafari dotsent, 81 nafari katta o'qituvchi, 130 nafari assistent o'qituvchilar bo'lib, ilmiy salohiyat 27 foizni tashkil etadi.

Shuningdek institutining Tarix va falsafa kafedراسi mudiri, t.f.f.doktori Dilorom Yaqubova "**Mehnat Shuhrati**" ordeni bilan, O'zbek tili va adabiyoti kafedراسi katta o'qituvchisi Ravshan Mamatmurodov "**Shuhrat**" medali, Raqamli iqtisodiyot kafedراسi o'qituvchisi Maftuna Ashurova "**Kelajak bunyodkori**" medali hamda 10 nafar professor-o'qituvchilar Mustaqilligimizning 30 yilligi esdalik ko'krak nishoni bilan mukofotlangan.

33 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va **17** ta magistratura mutaxassisliklari bo'yicha jami **8058** nafar talaba tahsil olmoqda.

Bakalavirat ta'lim yo'nalishi **4953 nafar**, sirtqi ta'lim yo'nalishida **2963 nafar**, kechki ta'lim yo'nalishida **208 nafar**, masofaviy ta'lim yo'nalishida **102 nafar** talabalar tahsil olishmoqda.

TALABALAR TURAR JOYLARI

Talabalar turar joylarining talabalarni qabul qilishga tayyor ekanligi (Talabalar turar joylarining xonalari, yo'laklarning ta'mirlanishi va jihozlanishi, dezinfeksiya qilinganligi, ikki qavatli yotoqlar, mebellar o'rnatilganligi, kir yuvish, quritish, yuvinish xonalari, hojatxona, besh muhim tashabbus xonalari ish holatida ekanligi va

boshqalar).

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida **jami 975 o‘rinli 4 ta talabalar turar joylari** mavjud bo‘lib, 1-sonli TTJ 750 o‘rinli, 2-sonli TTJ 75 o‘rinli, 3-TTJ 75 o‘rinli va 4-TTJ 75-o‘rinli. Institutda **4 ta jami 975 o‘ringa ega talabalar turar joyi** mavjud.

Institutda faoliyat ko‘rsatayotgan professor-o‘quvchilar salohiyatini oshirish maqsadida 17 ta ixtisosliklar bo‘yicha oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim tayanch doktoranturada 66 nafar va mustaqil izlanuvchilikda 153 nafar tadqiqotchilar ilmiy faoliyatlarini olib bormoqda.

2021-yilda 6 nafar tadqiqotchining falsafa doktori (PhD) himoyasi bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yilda 9 nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qildi, 2023-yilda 12 nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini himoya qildi, 2024-yilda 16 nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) va 1 hafa fan doktori (DSc) ilmiy darajasini himoya qildi, 2025-yilning birinchi choragida 7 nafar tadqiqotchi falsafa doktori (PhD) va 2 hafa fan doktori (DSc) ilmiy darajasini himoya qildi, yil oxiriga qadar yana 35 nafar dissertatsiya himoyalari rejalashtirilgan bo‘lib, institut ilmiy salohiyatini 35 foizdan oshirish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda davlat ilmiy loyihalari hisobidan 1 ta 902 mln. so‘mlik innovatsion loyiha bajarilmoqda, yana 6 ta amaliy va innovatsion loyihalar davlat ilmiy loyihalari tanlovida ishtirok etish uchun taqdim etilgan.

Institutda 13.00.00-Pedagogika fanlari bo‘yicha OAK ro‘yxatiga kiritilgan “Tadbirkorlik va pedagogika” ilmiy jurnali faoliyat olib bormoqda, ushbu jurnalda chop etilgan maqolalar xalqaro bazalarga indeksatsiya qilinmoqda.

XALQARO ALOQALAR

80 dan ortiq xorijiy davlatlar universitetlari bilan hamkorlik memorandumlari imzolangan bo‘lib, o‘zaro hamkorlik o‘quv jarayoni hamda ilmiy-tadqiqot sohasiga tatbiq qilingan:

- Rossiya Federatsiyasi Oltoy davlat universiteti bilan hamkorlikda **(1+1)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha qo‘shma ta‘lim dasturi imzolandi va **15 nafar** magistrant tahsil olmoqda;

- Rossiya Federatsiyasi Novosibirsk davlat universiteti bilan hamkorlikda **(1+1)** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha qo‘shma ta‘lim dasturi imzolandi va **15 nafar** magistrant tahsil olmoqda;

- Rossiya, Afg‘oniston, Qatar, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Janubiy Koreya, Tojikiston va Qozog‘iston davlatlaridagi nufuzli oliygohlar bilan o‘zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi.

- Times Higher Education xalqaro reytingida ilk bor “Reporter” sifatida qayd etildi;
 - Institut GREENMETRIC xalqaro reytingida **1355-o‘rinni** egalladi;
 - Institut Round University Ranking (RUR) xalqaro reytingida ilk bor ishtirok etib **1099-o‘rinni** egaladi,
 - Institut SUN (Buyuk ipak yo‘li universitetlari tarmog‘i)da a‘zo hisoblanadi;
 - So‘nggi 3 yilda **125 nafar** professor-o‘qituvchilar xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida stajirovkada bo‘lib qaytgan.
 - Xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan talabalar almashinuvi Rossiya Federatsiyasi ulushiga **5 nafar**, Yaponiyaga **1 nafar**, Qozog‘istonga **2 nafar**, Indoneziyaga **2 nafar**, Turkiyaga **2 nafar**, Tojikiston Respublikasiga **9 nafar**ni tashkil qiladi.
 - 2023-yil 23-iyunda Hindistonning Toshkentdagi favqulotta va muxtor elchisi Manish Prabhat DTPIga tashrifi davomida institutda Hind O‘quv xonasini ochib berdi.
 - Xorijlik o‘qituvchilar **8 nafar**, Xorijlik talabalar **16 nafar**ni tashkil etadi;
 - Institutda rus, koreys, hind, tojik, turk, o‘quv markazlari faoliyat yuritadi.
- O‘tgan vaqt mobaynida iqtidorli talabalarimizdan **4 nafari** Prezident stipendiyasi, **4 nafari** Islom Karimov nomidagi Davlat stipendiyantlari, **10 nafari** Alisher Navoiy nomidagi Davlat stipendiyantlari, **2 nafari** Mirzo Ulug‘bek nomidagi Davlat stipendiyantlari, **2 nafari** Zahridin Muhammad Bobur nomidagi Davlat stipendiyantlari sovrindorlari bo‘lishgan (jami **22 nafar** davlat va nomdor stipendiantlari). Undan tashqari **39 nafar** talaba viloyat hokimi stipendiyasiga, **72 nafar** talaba rektor stipendiyasiga sazovor bo‘lishgan va **6 nafari** Mirzo Ulug‘bek vorislar ko‘rik tanlovoda faol ishtirok etib viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda.

AXBOROT–RESURS MARKAZI

2023-yil sentyabr oyidan institutda Axborot-resurs markazi o‘z faoliyatini boshlagan. Axborot-resurs markazida hozirgi kunda 3 ta Axborot-texnologiyalari xonalari faoliyat yuritmoqda. Axborot resurs markazi 350 nafar kitobxonga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda **ARM fondi 14 387 nomda 33 435 sondagi adabiyotlardan iborat**. Shulardan 242 nomda 659 dona siyosiy adabiyotlar, 323 nomda 1 117 dona ilmiy adabiyotlar, 3 754 nomda 6 496 dona badiiy adabiyotlar, 5 578 nomda 12 136 dona o‘quv adabiyotlar, 1 256 nomda 3631 dona xorijiy adabiyotlardan iborat.

160 nomda 400 dona QR-kodli adabiyotlar mavjud.

Audio kitoblar javoni – 2 050 dona.

Axborot-resurs markazidagi mavjud adabiyotlarning barchasi elektronlashtirilgan. Kitobxonlarga masofaviy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda ARM fondi 33 435 dona adabiyotni tashkil etadi. Shulardan 6 496 dona badiiy adabiyot, 9 396 dona darslik va 12 136 dona o'quv qo'llanmalar, 5 407 dona boshqa adabiyotlardir.

Axborot-resurs markazida 115 dona kompyuter mavjud bo'lib, talabalar uchun barcha qulayliklar yaratilgan, mavjud kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan. Kompyuterlar internet, elektron kataloglar, ma'lumotlar bazasi hamda Oliy o'quv yurtlari va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda axborot almashinuvi ham yo'lga qo'yilgan. Kompyuterdan foydalanish uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Bir vaqtning o'zida institut Axborot-resurs markazida institutning rasmiy sayti <https://dtpi.uz> hamda Unilibrary.uz elektron kutubxona tizimi barcha foydalanuvchilar uchun ilmiy va o'quv adabiyotlarni kiritish bo'yicha muntazam faoliyat yuritib bormoqda

ARMning O'quv zali talabalar va o'qituvchilarga darsliklar, o'quv qo'llanmalari, monografiyalar, ilmiy maqolalar va boshqa axborot manbalarini taqdim etadi. Foydalanuvchilarning mutaxassisligi bo'yicha kerakli adabiyotlarni tezkor topib berishda yordam ko'rsatadi. Shuningdek, talabalar va foydalanuvchilar uchun tinch, yorug' muhitda o'qish, yozish, tayyorgarlik ko'rish sharoitini ta'minlaydi.

Bunda kitob fondi, magistrlar xonasi, tilshunoslik markazi, doktorantlar xonasida barcha sharoitlar mujassamlashgan. Ya'ni, professor-o'qituvchilar hamda talabalar uchun dars mashg'ulotlari bilan shug'ullanishga qulayliklar yaratilgan.

Shu bilan birga institutning yordamchi binolarida ham axborot-resurs markazi o'z faoliyatini olib bormoqda. U binolarda ham talabalarga zarur adabiyotlar ta'minlangan. Barcha qulayliklar yaratilgan. Bundan tashqari, institutning talabalar turar joyidagi ma'naviyat xonalarida ham talababalarining bo'sh vaqtlarini kitob o'qishga sarflashlari uchun badiiy adabiyotlar jamlanmasi ham joylashtirilgan.

Markazdagi mavjud bo'lgan barcha adabiyotlarni elektron versiyalarini qisqa muddatda yaratish maqsadida tezkor skaner mavjud.

DUAL TA'LIM

Institutda 61010100 - Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi mavjud bo'lib, kadrlar tayyorlash tizimi uch yillik oliy ta'lim dasturlari asosida yo'lga qo'yilgan va o'quv jarayoni "blok-modul" tizimiga asoslangan dual ta'lim shaklida tashkil etilgan. Yetakchi oliy ta'lim muassasalari qoshida tashkil etilgan muvofiqlashtiruvchi soha kengashlari tomonidan taqdim etilgan malaka talabi asosida o'quv rejasi ishlab chiqilgan va o'quv jarayonlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlar ulushi:

- birinchi bosqichda - 80 foiz nazariy va 20 foiz amaliy;
- ikkinchi bosqichda - 50 foiz nazariy va 50 foiz amaliy;
- uchinchi bosqichda - 30 foiz nazariy va 70 foiz amaliy bo‘lishi nazarda tutilgan.

Bakalavriatning 61010100 - Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishida dual ta‘limni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida Viloyat turizm qo‘mitasi hamda hududdagi “Surxon” mehmonxonasi, “Denov” mehmonxonasi, “Turon” mehmonxonasi, “Grand” mehmonxonasi va “Abu bakr” mehmonxonalari bilan shartnomalar tuzildi hamda ta‘lim jarayonini amaliyot bilan birga olib borish maqsadida byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan amaliyot bazalari tashkil etilgan.

Institutda 61010100 - Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishida kadrlarga bo‘lgan buyurtmalarni shakllantirishda Viloyat turizm qo‘mitasi hamda hududdagi “Surxon” mehmonxonasi, “Denov” mehmonxonasi, “Turon” mehmonxonasi, “Grand” mehmonxonasi va “Abu bakr” mehmonxonalarida yo‘nalishlarga oid amaliyot bazalari mavjudligi inobatga olinib, 2024/2025 o‘quv yilida 24 nafar talaba o‘qishga qabul qilingan va 2025/2026 o‘quv yili qabul parametrlari uchun 25 nafar taklif berildi.

IQTIDORLI TALABALAR

O‘tgan vaqt mobaynida institut talabalaridan **4 nafari** Prezident stipendiyasi, **4 nafari** Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasi, **10 nafari** Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi, **2 nafari** Mirzo Ulug‘bek nomidagi davlat stipendiyasi, **2 nafari** Zahridin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi sovrindorlari bo‘lishgan (jami **22 nafar** talaba davlat va nomdor stipendiya sohiblaridir). Undan tashqari, **39 nafar** talaba viloyat hokimining stipendiyasiga, **72 nafar** talaba rektor stipendiyasiga sazovor bo‘lishgan (jami **111 nafar** talaba viloyat hokimi va rektor stipendianti hisoblanadi), **6 nafari** Mirzo Ulug‘bek vorislari ko‘rik tanlovida faol ishtirok etib, viloyat va respublika bosqichlarida faxrli o‘rinlarni egallagan.

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabasi Xikmatova Shirin “**El-yurt umidi**” jamg‘armasining 2024-yildagi birinchi ochiq stipendiyasi (190 ming dollar) g‘olibi bo‘lib, Missouri davlat universiteti (AQSH) da ta‘lim olmoqda.

Shuningdek, **1 nafar** talaba kimyo fanlari bo‘yicha xalqaro olimpiadada bronza medaliga sazovor bo‘lgan. **17 nafar** talaba xalqaro olimpiadalarda faol ishtirok etib, nufuzli 1-2-3-o‘rinlarni egallagan.

Institutda sportning boks, o‘zbek jang san‘ati, suzish, shaxmat, og‘ir va yengil atletika, futbol, voleybol, basketbol, boks, Yunon-Rum kurashi hamda para powerlifting va kamondan otish turlari bo‘yicha **26 nafar** talabalar respublika va xalqaro musobaqalarda 1,2,3-o‘rinlarni qo‘lga kiritganlar.

2024-yil noyabr oyida institutning sportchi talabarlari **“Besh tashabbus olimpiadasi”** ning viloyat bosqichida yengil atletika jamoasi faxrli 3-o‘rin, stridbol (o‘g‘il bolalar) jamoasi 3-o‘rin, mini futbol jamoasi 3-o‘rin va voleybol (o‘g‘il bolalar) jamoasi faxrli 2-o‘rinni egallaganlar.

“Universiada-2024” va **“Talabalar ligasi”** doirasidagi musobaqalarning viloyat bosqichida basketbol, gandbol, yengil atletika, kurash, shaxmat va voleybol sport musobaqalaridan (o‘g‘il va qizlar) jamoasi faxrli 1-2-3-o‘rinni egallaganlar. Mini futbol (futzal) jamoasi viloyat bosqichining faxrli 1-o‘rini egallab, respublika bosqichi yo‘llanmasini qo‘lga kiritgan.

Institut miqyosida sportning mini futbol, voleybol, basketbol, gandbol, shaxmat, yengil atletika, stol tennisi, badminton, kurash kabi turlaridan muntazam ravishda **“Rektor kubogi”** sport musobaqalari o‘tkazilib kelinmoqda.

Toshkent shahrida sportning **“O‘zbek jang san’ati”** turi bo‘yicha o‘tkazilgan jahon chempionati musobaqalarida talabalarimiz **1 ta oltin** (Jumanazarov Valijon) va **1 ta bronza** (O‘ralov Jamoliddin) medalini qo‘lga kiritgan.

Jizzax viloyatida **“Kurash”** sport turi bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro ochiq turnirda **Alimardon Abdulaxatov** 73 kg vazn toifasida kurash olib borib, faxrli **3- o‘rinni** egallagan.

Qurilish ishlari va moddiy texnik bazani rivojlantirish bo‘yicha institut **2 820 o‘ringa** mo‘ljallangan bo‘lib, **38 ta** elektron doska, **70 ta** o‘quv monitori va videoproyektor, **730 ta** kompyuter jamlanmalari bilan jihozlangan. Shuningdek, **650 o‘rinli** o‘quv zali, **400 o‘rinli** faollar zali, **200 o‘rinli** raqamli iqtisodiyot markazi, **350 o‘rinli** axborot resurs markazi, **900 o‘rinli** 3 ta talabalar turar-joyi hamda **200 o‘rinli** oshxona va **200 o‘rinli** karyera markazi mavjud bo‘lib, markazda tikuvchilik va amaliy san’at, qandolatchilik xonalari, go‘zallik saloni, erkaklar sartaroshxonasi va xorijiy tillar bo‘yicha o‘quv markazi faoliyat ko‘rsatmoqda.

INSTITUTNING ILMIY SALOHİYATI

2020-yilda
14%

2021-yilda
15%

2022-yilda
16%

2023-yilda
17%

2024-yilda
20%

2025-yilda
27%

2025-yilda 27% ga oshirildi, 2026-yil 40% ga chiqarish
rejalashtirilgan.

RESPUBLIKA VA XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANLAR

2020-yilda 1 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjuman;
2021-yilda 2 ta respublika va 1 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar;
2022-yilda 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar;
2023-yilda 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar;
2024-yilda 12 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy amaliy anjumanlar o'tkazilgan;
2025-yilda (vazirlik buyrug'iga kiritilgan) **7** ta respublika va **9** ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Institutda 2024-yilda **6** ta darslik va **42** ta o'quv qo'llanma, **19** ta monografiya, **30** dan ortiq scopus va web of science xalqaro ilmiy bazalardagi jurnallarda ilmiy maqolalar chop etilgan, **30** dan ortiq uslubiy qo'llanmalar, **2** ta patent, **50** dan ortiq mualliflik guvohnomalari olingan.

Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentyabrdagi 325/5-son qaroriga asosan 13.00.00-Pedagogika fanlari bo'yicha OAK nashrlari ro'yxatiga kiritilgan. Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali bir nechta bazalarda *inLibrary.uz* va *Slib.uz* platformalariga yuklanadi.

MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyatlaridan keng foydalanish maqsadida quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- ayrim ixtisosliklar bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi **Ilmiy kengash**larni ochish;
- dunyoning **TOP-300** talikka kiruvchi oliy ta'lim muassasalari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish;
- institutda mavjud o'quv laboratoriyalari asosida ilmiy grantlar va xalqaro donor tashkilotlarning homiyligida qo'shimcha **ilmiy laboratoriyalarni** tashkil etish;
- institutga xorijiy investitsiyalar, grant va beg'araz ko'mak mablag'larini jalb qilish;
- barcha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning xorijiy OTMlarida qisqa va uzoq muddatlik ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish;
- barcha bitiruvchi talabalarning mutaxassislik diplomi bilan birgalikda, milliy sertifikat hamda til bilishning xalqaro sertifikatiga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- barcha berilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan yaqindan bog'lash;
- aholining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini 100% qondirish maqsadida **1 500** kvT/s **quyosh panellarini** o'rnatish hamda iste'moldan ortiqcha bo'lgan energiyani shahar elektr tarmoqlari korxonasi ga realizatsiya qilish;

- **1500 o‘rinli** o‘quv binosi, **400 o‘rinli** talabalar turar joyi (davlat xususiy sherikchilik asosida) va **400 o‘rinli** talabalar turar joyi (institutning budjetdan tashqari mablag‘lari) hisobidan qurish;

- professor-o‘qituvchilar hamda talabalarni sog‘lomlashtirish oromgohini barpo etish kabi rejalarni amalga oshirish belgilab olingan.

**2025/2026-O‘QUV YILIDA XORIJDA AKADEMIK MOBILLIK
BO‘YICHA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALAR**

T/R	F.I.SH	TA'LIM YO'NALISHI	XORIJIY MAMLAKAT	XORIJIY OTM NOMI
1	Ro‘ziyeva Dilshoda Ahmatovna	Ona tili va adabiyoti: rus tili yo‘nalishi, 3-bosqich talabasi.	Rossiya	A.S.Pushkin nomidagi Rus tili instituti,
2	Norqobilova Moxinur G‘ayrat qizi	Ona tili va adabiyoti: rus tili yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi	Rossiya	N.A.Dobrolyubov nomidagi Nizhnij Novgorod davlat lingvistika universiteti,
3	Safarov Shoxruh Olimjon o‘g‘li	Ona tili va adabiyoti: rus tili yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi	Rossiya	N.A.Dobrolyubov nomidagi Nizhnij Novgorod davlat lingvistika universiteti,
4	Habibullayeva Sohiba Komiljon qiz	Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi	Turkiya	Firat universiteti
5	O‘ralova Mavluda Alisher qizi	Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi	Turkiya Respublikasi	Firat universiteti
6	Sultanbayev Og‘abek Islambek o‘g‘li	Jismoniy madaniyat 2-bosqich talabasi	Turkiya	Firat universiteti
7	Sanaqulov Diyorjon Sobir o‘g‘li	Jismoniy madaniyat 2-bosqich talabasi	Turkiya	Firat universiteti

**DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTIDA TAHSIL
OLAYOTGAN TALABALAR HUDUDLAR KESIMIDA**

T/R	VILOYATLAR	SONI
1	Andijon viloyati	30
2	Buxoro viloyati	108
3	Farg‘ona viloyati	71
4	Jizzax viloyati	73
5	Namangan viloyati	19
6	Navoiy viloyati	36
7	Qashqadaryo viloyati	559
8	Samarqand viloyati	231
9	Sirdaryo viloyati	27
10	Surxondaryo viloyati	6652
11	Toshkent viloyati	31
12	Toshkent shahri	31
13	Xorazm viloyati	135
14	Qoraqalpog‘iston res	55
	JAMI	8058

Ruziyev Oybek Abdimuminovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori,
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent



Talaba-yoshlarni yot g'oyalardan asrash, bu boradagi huquqiy bilimlarini oshirish, ularni iqtidori va istedodini yuzaga chiqarish hamda rag'batlantirish maqsadida, "Students Party" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Pedagogika" fakultetida "Maktabgacha ta'lim", "Pedagogika va psixologiya" va "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedralari professor-o'qituvchilariga Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor R.Shukurov, Magistratura bo'limi boshlig'i D.Shukurov va Tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i B.Aynazarovlar boshchiligida 4-yanvar kuni Scopus va Wep of science bazalaridagi ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish hamda xalqaro grantlar, dasturlar, fondlar, davlat ilmiy texnik dasturlari, Start-up loyihalar bo'yicha seminar trening mashg'uloti olib borildi.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 6 dekabrda 457-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida professor-o‘qituvchilar uchun o‘quv seminarlari tashkil etilmoqda. Bugun o‘quv adabiyotlarini yaratish, nashr guvohnomalarini olish mexanizmlari mavzusida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalari markazi mutaxassislari ishtirokida seminar tashkil qilindi.



6-yanvar kuni seminarida professor-o‘qituvchilariga o‘quv jarayoniga oid me’yoriy-hujjatlar va ularning yuritilishiga oid talablar xususida O‘quv ishlar bo‘yicha prorektor S.N.Allayarova, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i B.Primqulov, o‘quv-uslubiy boshqarma mutaxassisi B.Qorjovov, HEMIS administratori N.Qo‘zimurodovlar tomonidan ma’ruzalar tashkil qilindi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 7-yanvar kuni “Oliy ta’lim o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda professor-o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar” mavzusidagi online seminar jarayonida Yaponiyaning Nagoya iqtisodiyot universiteti professori, yuridik fanlari bo‘yicha PhD, Umirdinov Alisher Isoqjonovich ma’ruza qildi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 8-yanvar kuni xotin-qizlar maslahat kengashi tashabbusi bilan ma'naviyat bo'limi hamkorligida "Ayolga e'tibor-kelajakka e'tibor" shiori ostida ma'naviy-madaniy tadbir bo'lib o'tdi

9-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) hamkorligida "Afg'oniston fuqarolarini o'qitish va kasbiy tayyorlash bo'yicha Surxondaryo viloyatining salohiyatini oshirish" loyihasi rahbari Mahliyo Shodiyeva va loyiha mutaxassisi Kabir Yusupov hamda Afg'oniston Barlos universiteti rektori Xayr Muhammad Xayriy Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurdi.



Tashrif davomida dastlab mehmonlar Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida talabavoshlarning bilim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar va qulayliklar bilan yaqindan tanishishdi.

Mehmonlar Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tashkil etilgan "Hind Markazi" faoliyati

bilan yaqindan tanishish bilan birgalikda institutda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar bilan fikr-mulohaza almashishdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 10 yanvar kuni pedagogika fakultetida "Jaholatga qarshi marifat" mavzusida tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirda Choriyev Rustam G'ofurovich - Surxondaryo viloyat hokimligi jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha majmuasi



kotibiyat mudiri, Haydarov Odil - Xalqaro islom akademiyasi huzuridagi malaka oshirish markazining Surxondaryo viloyati mintaqaviy filiali direktori, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor B.Jo'raev va profilaktika inspektori O.Toshtemirovlar ishtirok etib, davra suhbatini davomida ishtirokchilarga diniy mutaassiblik, radikalizm kabi tushunchalarning asl mazmun mohiyati diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarini keng targ'ib qilish, hozirgi kunda yoshlar orasida uchrab turayotgan turli oqimlarga bilmasdan qo'shilib ketish holatlari hamda diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlarini, ularni oldini olish, dinlar o'rtasida o'zaro ishonch, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlik, tinchlik va totuvlikni targ'ib qilish haqida so'z yuritildi.

Tadbir so'ngida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan javoblar olishdi. Tadbir yakunida "Tinchlik qadri" nomli videofilm namoyish etildi.



2025-yil 10-yanvar kuni Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazida Yevropa Ittifoqi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining "Afg'oniston fuqarolariga ta'lim berish va ularni kasbiy tayyorlash bo'yicha Surxondaryo viloyatining salohiyatini oshirish" loyihasi doirasida kasb o'rganayotgan afg'on tinglovchilariga "APEX LIFE INSURANCE" sug'urta kompaniyasining tibbiy sug'urta polisi topshirildi. Tadbirda markaz direktori I.Mamarajapov, DTPI rektori O.A.Ruziyev, loyiha rahbari M. Shodiyeva va loyiha mutaxassisi K. Yusupovlar so'zga chiqib, Tibbiy sug'urta mexanizmi haqida ma'lumotlar berishdi. Tadbir davomida so'zga chiqqan tinglovchilar ko'rsatilayotgan e'tibordan mamnun ekanligini aytishdi.



Pedagogika fakulteti Yoshlar markazi binosida 11-yanvar “Xalqaro qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar” kuni munosabati bilan “Yuqori To‘palang” milliy tabiat bog‘i direktori N.Sattorov va bog‘ xodimlari ishtirokida tadbir bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda fakultet dekani SH.Mahmudov, talaba-yoshlar, professor-o‘qituvchilar, tyutorlar ishtirok etdi. Talabalar ishtirokida tabiatga va uning ne‘matlariga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kerakligi sahnaviy chiqishlar, videoroliklar, ko‘rgazmali vositalar orqali namoyish etildi.

Tadbir yakunida “Yuqori To‘palang” milliy tabiat bog‘i jamoasi Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, ekskursiyalar tashkil etish, targ‘ibot ishlarining rejasini ishlab chiqish masalalarini muhokama qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33 yilligi hamda 14-yanvar “Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan 11-yanvar kuni institut kasaba uyushmasi qo‘mitasi tashabbusi bilan professor-o‘qituvchilar, xodimlar va tyutorlar o‘rtasida tashkil etilgan voleybol musobaqasi qizg‘in bahslarga boy va shiddatli tarzda bo‘lib o‘tmoqda.

Ayni vaqtda Aniq va tabiiy fanlar hamda Pedagogika fakulteti jamoalari o‘rtasida o‘yin jarayonlari davom etmoqda.



Bebaho go‘sha - O‘zbekistonimizdek jannatmonand diyorning tinchligi bugun ishonchli qo‘llarda. Chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimiz osudaligi o‘g‘lonlarimiz tomonidan ta‘minlanmoqda. Mustaqillik yillarida tubdan qayta shakllangan milliy armiyamiz yuksak vazifalarni sharaf bilan ado etayotgani ham buning yorqin isbotidir.

12-yanvar kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda 36691-harbiy qism hamkorligida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil

etilganligining 33 yilligi hamda “14-yanvar Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan “Yangi O‘zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri” shiori ostida tantanali bayram tadbiri tashkil etildi.



Yuragida xalq farovonligi, jamiyat barqarorligi, yurt tinchligi yo‘lida shaxsiy mas’uliyatni his qilgan har bir fuqaro-Vatan himoyachidir.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari hamda xodimlari uchun 13-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda 14-yanvar Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan “Yangi O‘zbekiston armiyasi - mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri” shiori ostida tantanali bayram tadbiri tashkil etildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-dekabrda “Surxondaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-438-sonli qarori ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 13-01/558-sonli nazorat rejasi ijrosini ta‘minlash bo‘yicha DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti "Raqamli iqtisodiyot ” kafedrasida professor-o‘qituvchilari 14-yanvar kuni Oltinsoy tumanidagi 23-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida bo‘ldilar.



Tashrif davomida maktab bitiruvchilarining OTMga qamrovini oshirish maqsadida o'quv-metodik ko'mak ko'rsatishdi. Qolaversa, maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularning iqtidorlarini namoyon etishlari bo'yicha tavsiyalar berishdi.

DTPI rektorining 2024-yi 30-noyabrdagi Magistratura mutaxassisliklari 2-kurs (qishki) qabul bo'yicha bitiruvchi magistrleri uchun magistrlik dissertatsiyasi himoyasini tashkil etish hamda Yakuniy Davlat Attestatsiyasining raisi va a'zolarini tasdiqlash to'g'risidagi 627-T-sonli buyrug'iga asosan, 2025-yil 15 yanvardan magistrlik dissertatsiyalari himoyasi boshlandi. "Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang'ich ta'lim" va "Pedagogika va psixologiya" mutaxassisliklarining magistrlik dissertatsiya himoyasi bo'lib o'tdi.



MD himoyasida O'quv ishlari bo'yicha prorektor S.N.Allayarova, Magistratura bo'limi boshlig'i D.Shukurov, YaDA raisi sifatida kelgan Termiz davlat universiteti "Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasini mudiri, dotsent M.J.Mirzayev va Boshlang'ich ta'lim kafedrasini mudiri, dotsent D.N.Kadirovalar hamda ta'lim tashkilotlaridan kelgan komissiya a'zolari ishtirok etdi.



16-yanvar kuni Germaniyaning Xalqaro GIZ (German International Cooperation) tashkiloti vakillari, Dhritman Das – Tibbiy texnologiyalar bo'yicha direktor Lea Tuns – Texnik maslahatchi, Anne Christine Hanser-Dr. Sog'liqni saqlash, MBA, Kasalxonalar Boshqaruvi Bo'yicha Maslahatchi

Dilafruz Ortiqova, Tibbiy Texnologiyalarni Boshqarish Komponent Menejeri Farrux Choriyev – Maslahatchi, Hududiy Koordinatorlar Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Institutiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida GIZ vakillari institutimizning ta’lim jarayonlari, zamonaviy laboratoriya imkoniyatlari va innovatsion yondashuvlar bilan yaqindan tanishishdi.

Tashrif davomida institut rahbariyati bilan o‘zaro muloqotlar bo‘lib, kelgusidagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. GIZ vakillari institutning ta’lim sifatini yuqori baholab, tibbiy texnologiyalar va boshqaruv tizimlari bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar.



17-yanvar kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga Termiz davlat universiteti professori, kimyo fanlari doktori To‘rayev Xayit Xudoynazarovich, texnika fanlari doktori, professor Umbarov Ibragim Omonovich, texnika fanlari doktori, professor Normurodov Baxtiyor Abdullayevich tashrif buyurishdi. Tashrif davomida institutda mavjud o‘quv laboratoriyalari, o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishilib, tajriba almashdilar.



O‘zbek xalqining milliy liboslarida xalqimizning tarixi, milliy qadriyatlarimiz, qadimiy urf-odat va an’analarimiz mujassam etilgan bo‘lib, bugungi kunda milliy liboslar jozibasini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shu maqsadda bugun Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 18-yanvar kuni Xotin-qizlar maslahat kengashi hamda Filologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari N.Shoymardonova tashabbusi bilan, fakultet tyutorlari

hamda “Rus tili va adabiyoti” kafedrasining professor-o‘qituvchilari hamkorligida “Milliy liboslar” kuniga bag‘ishlangan “Milliy libos-millat qiyofasi” mavzusida ko‘rgazmali chiqishlar namoyish etildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida yakuniy nazorat imtihonlari o‘tkazilmoqda.

Ma’lumot uchun, yakuniy nazorat imtihonlari Oliy ta’lim, fan va Innovatsiyalar vazirining 02.12.2024-yildagi 452-sonli buyrug‘ida belgilangan tartibda tashkil qilinmoqda.

Fan xususiyatidan kelib chiqib imtihonlar yozma, amaliy, test shaklida tashkil qilingan.

2025-yil 18 yanvarda Pedagogika fakultetida o‘tkazilgan imtihon jarayonlari bo‘lib o‘tdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-sonli TTJda 19-yanvar kuni tyutorlar tashabbusi bilan, talabalar turar joyida istiqomat qiluvchi talabalarning bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish maqsadida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi.



20-yanvar kuni Pedagogika fakulteti Xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi I.Elmuurodova va Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari R.Ravshanqulovalar ishtirokida fakultetda tahsil olayotgan oilali talaba-qizlar bilan suhbat o'tkazildi.

Suhbat davomida talabalarning yakuniy nazorat imtihonlari, dars jarayonlariga qatnashishi, turar joylaridagi muammo va kamchiliklar o'rganildi. Oilaviy munosabatlarda ajrimlar va turli-xil muammolarning oldini olishga qaratilgan muloqotda talabalar ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdilar.



21-yanvar kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida viloyatimizning taniqli olimlaridan biri, Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti dekani, Filologiya fanlari doktori, professor, Xalqaro pedagogik ta'lim Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, Turon FA akademigi Bakirov Poyon Uralovich bilan "Olim va yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi.



Poyon Uralovich mamlakatimizda yoshlarning puxta bilim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar, dunyo hamjamiyatida talabalarimizning tutgan o'rnini, oliy ta'lim muassasalarining kechagi va bugungi o'rnini haqida tushunchalar berdi.

21-yanvar kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida tashkil etilgan "Rektor va talaba-yoshlar" uchrashuvi davomida talabalarning fikr-mulohazalari, takliflari tinglandi. Jumladan, talabalar tomonidan bildirilgan: institut tasarrufida turistik firma ochish, talabalarni tadbirkorlikka jalb qilish, til o'rgatish kurslari faoliyatini kengaytirish kabi takliflar institut rektori



O.A.Ruziyev tomonidan qo'llab-quvvatlandi hamda mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.



Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 22-yanvar kuni Talabalar teatr studiyasi ishtirokchilari tomonidan Jadidchi mutafakkirlarning bir qator vakillari obrazlari gavdalantirildi.



29-yanvar kuni DTPIda Uzun, Sho'rchi va Denov tumanlaridagi ixtisoslashtirilgan maktablar o'quvchilari uchun "Ochiq eshiklar" kuni tadbiri tashkil etildi. Tadbir mobaynida bitiruvchilarni oliy ta'limga qamrovini oshirish maqsadida targ'ibot ishlari amalga oshirildi.



Surxondaryo viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rinbosari Saparov Ilhom Ochilovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tashkil etilayotgan yangi “Karyera” markazining faoliyati bilan yaqindan tanishdi.



24-yanvar kuni Ilhom Saparov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari va talabalar bilan suhbatlashib, “Karyera” markazi mkoniyatlarini yanada kengaytirish va uning faoliyatini yanada samarali qilish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Termiz Yoshlar Texnoparki Davlat Muassasasi tomonidan “Demo day” loyihalar taqdimoti bo‘lib o‘tdi unda uzDenov tadbirkorlik va pedagogik instituti Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasida professor o‘qituvchilari X.X.Kulbasheva va M.A.Jurayev va shu Kafedira talabalari faol ishtirok etdilar.




DTPIga XXRning “Beijing Kunbo Cultural Tourism Development Co., Ltd.” tashkilotidan Lyu Liyan xonim tashrif buyurdi. Tashrif davomida quyidagi sohalar bo‘yicha kelgusida amalga oshiriladigan ishlar rejalashtirildi.



Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti tyutorlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 232-sonli qarori 16-bandi ijrosini ta‘minlash, ichki turizmni rivojlantirish, talabavoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 27-yanvar kuni Tarix yo‘nalishi 1-kurs 11T-24 guruhi talabalari bilan birgalikda viloyatimizdagi tarixiy manzilgohlar bo‘ylab sayohatga chiqishdi.



28-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 6-maydagi PF-73-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida ZOOM platformasi orqali “Ta‘lim muassasalarida yoshlar orasida psixofaol moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish ishlarini tashkil etish mexanizmlari” bo‘yicha uslubiy qo‘llanmaning taqdimoti bo‘lib o‘tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida yangi “Karyera” markazining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi Ulug‘bek Qosimov, institut rektori Oybek Ruziyev va bir qator mutasaddilar ishtirok etishdi. Ushbu markazning tashkil etilishi, yoshlarning kasbiy rivojlanishi va ularni mehnat bozoriga tayyorlash borasida katta ahamiyat kasb etadi.



Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Institutida ochilgan Karyera markazida 30-yanvar kuni Xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i J. Ergashov tomonidan Filologiya fakulteti talabalariga mo‘ljallangan seminar-trening tashkil etildi.

31-yanvar kuni Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan o‘tkazilgan “Islohotlar bilimdoni”, “Yilning eng faol talabasi”, “Kitob mening do‘stim”, “Eng yaxshi dasturchi”, “Mening konstitutsiyam”, “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi” mavzusida “Eng yaxshi rasmlar” va “Eng yaxshi videoroliklar” respublika tanlovlari g‘olib va sovrindorlarini tantanali taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tmoqda.

Unda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabasi Maftuna Hojakbarova ham ishtirok etib, “Eng faol islohotlar targ‘ibotchisi” yo‘nalishida faxrli 2-o‘rinni egalladi.





Unda ishtirok etgan institut xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova, profilaktika inspektori S.Suvonova, tarbiyachi pedagog J.Ishqabilovalar bugungi kunda dunyoning turli joylarida ko‘z o‘ngimizda ro‘y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy axborot-kommunikatsiya manzarasidagi chuqur o‘zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi

keskin tus olayotgani, bunday vaziyatda, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etayotganligi alohida ta‘kidlandi.

1-fevral kuni Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 2-kurs talabalari o‘rtasida jinoyat va huquqbuzarlikni barvaqt oldini olish, va bugungi kunda talabalar o‘rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning huquqiy oqibatlarini yuzasidan institut profilaktika katta inspektorlari O.Toshtemirov, S.Suvonva hamda o‘qituvchilari ishtirokida davra suhbatini o‘tkazildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasida Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda davlat oliy ta‘lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar uchun ikki haftalik o‘quv-amaliy seminar bo‘lib o‘tdi.

Seminarda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imidjini yuksaltirishdagi tashabbuslarga, ayollarning siyosiy jarayonlar va qonunchilik faoliyatidagi ishtirokidagi o‘rni haqida suhbatlar olib bordi. Seminarda ishtirok etayotgan DTPI rus tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, PhD, dotsent Musurmankulova Madina Nosirovna “Gender tenglik” mavzusida ma‘ruzasi bilan ishtirok etdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakultetida “Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish” oyligi munosabati bilan fakultet talaba-yoshlari ishtirokida “Giyohvandlik - kelajak kushandasi” mavzusida tadbir o‘tkazildi.



Yoshlarni milliylik, o‘zlikni anglash, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bugun eng muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Butun mamlakatimiz bo‘ylab, milliy liboslar namoyishi ham shu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Pedagogika fakultetida fakultet dekani Sh.K.Mahmudov va Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari R.Ravshanqulovalar tashabbusi bilan 5-fevral kuni talaba-qizlar bilan birgalikda Sariosiyo tumani bo‘ylab “Milliy kiyimlar” chellenji o‘tkazildi.



Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti sport majmuasida OTM va maktab hamkorligida DTPI jamoasi, Denov tumanidagi 26-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi hamda Uzun tumanidagi 38-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi jamoalari o‘rtasida sportning voleybol turi bo‘yicha qiz bolalar o‘rtasida o‘rtoqlik uchrashuvi, o‘tkazildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi tashabbusi hamda Yoshlar ittifoqi hamkorligida talaba-yoshlarning

bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida "Eko-turizm Zakovat" intellektual o'yini bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga 7-fevral kuni taniqli olimlar, ixtirochilar va muhandislarning tashrifi dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik S.Y.Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi instituti katta ilmiy xodimi, kimyo fanlari nomzodi Rasulova Xalida Abdulxayevna va Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari Rasulova Xurshidaxon Abduboriyevnalar institutimizga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida olim ayollar institut professor-o'qituvchilariga Davlat dasturlari va Xorijiy grant loyihalari doirasida bajariladigan fundamental, amaliy, innovatsion va start-up loyihalar borasida seminar-trening mashg'ulotlarini olib bordilar.



Denov TPIning Axborot resurs markazi xodimlarining tashabbusi bilan g'azal mulkinging sulтони Mir Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi munosabati bilan madaniy tadbir o'tkazildi.



DTPI institutida ulug‘ alloma tavalludining 584 yilligiga bag‘ishlangan “Navoiy yodi ila yashaymiz mudom” nomli adabiy-badiiy kecha she’riyat ihlosmandlari, DTPI professor-o‘qituvchilari, talabalar ishtirok etdilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 10-fevral kuni voleybol sport turi bo‘yicha “Talabalar ligasi” sport musobaqasining hududiy (viloyat) bosqichi bo‘lib o‘tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 11-fevral “Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni” munosabati bilan tantanali tadbir tashkil etildi. Tadbirda ilm-fan va ta’lim sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishgan ayol olimalar, pedagoglar, shuningdek, institutning o‘qituvchilari va talabalari ishtirok etdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Indoneziyaning Pendidikan universiteti bilan xalqaro aloqalar o‘rnatib, o‘qituvchilarning tajriba orttirishi yo‘lga qo‘yilgan. Ikki tomon vakillari bir necha bor tashriflarni amalga oshirgan edi. Shuningdek, hamkorlikda o‘qitish doirasida talabalar almashinuvi asosida ham indoneziyalik talabalar Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida tahsil olmoqda. Hozirgi vaqtda Pedagogika fakulteti Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari R.Ravshanqulova hamrohligida 3-bosqich talabalari N.Ro‘ziboyeva, O.To‘rayevalar Indoneziyada tahsilni davom ettirishmoqda.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 13-fevral kuni talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan "Buyuk shoh va shoir" shiori ostida talabalari o‘rtasida #Zakovat Quiz intellektual musobaqasi bo‘lib o‘tdi.



“A.Navoiy va Z.M.Bobur-ikki buyuk siymolar” shiori ostida Filologiya fakultetida o‘tkazilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar haftaligi doirasida “Rus tili va adabiyoti” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan “O‘zga tilli guruhlarda rus tili” ta‘lim

yoʻnalishi talabalari ishtirokida “A.Navoiy va Z.M.Bobur ijodi bilimdonlari” intellektual oʻyini tashkil etildi.

Tadbirda fakultet talabalaridan tashkil topgan “Xuroson”, “Shirin”, “Layli”, “Turkiylar”, “Buyuk moʻgʻullar” jamoalari oʻzlarining bilim va zakovati, topqirligi va ijodkorligini qiziqarli savollar orqali sinovdan oʻtkazdilar.



Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi munosabati bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya hamda Aniq va tabiiy fanlar fakultetlarida 14-fevral kuni “Bobur kabi seving vatanni” shiori ostida tadbir tashkil etildi.

Bobur hayotini oʻrganish, uning falsafasini tushunish, har bir insonni oʻzining yurtiga, xalqiga boʻlgan masʼuliyatni chuqur his etishga chaqiradi. Boburning hayoti va ijodi shuni koʻrsatadiki, faqat kuchli siyosatchi yoki jangchi boʻlish kifoya emas; yurtning haqiqiy buyukligi uning oqilona rahbarligida, uning xalqiga boʻlgan mehrida, ilm-fanga boʻlgan eʼtiborida, adolat va halollikni har doim asosiy gʻoya sifatida tanlashda mujassamdir.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 15-fevral kuni Yurist konsulti Sh.Mirzaqulov Oliy taʼlim, favn va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 10-fevraldagi 3/31-4/1-957-sonli xatiga asosan Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 7-sentabrdagi “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni taʼminlash toʻgʻrisida”gi Qonunining 7-moddasi birinchi qismi

birinchi, toʻrtinchi xatboshilariga muvofiq, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy islohotlar doirasida taʼlim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar

kiritish to'g'risida"gi qonunining mazmun mohiyatini talabalarga tushuntirish ishlarini olib bordi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakultetida "Rus tili va adabiyoti" kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan "O'zga tili guruhlarda rus tili" ta'lim yo'nalishi talabalari ishtirokida "G'azal bo'stoni" shiori ostida she'riyat kechasi tashkil etildi. Tadbirda professor-o'qituvchilar va talabalar tomonidan ulug' mutafakkirlar Mir Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan namunalar o'qildi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 17-fevral kuni PRESETT va AELLCA dasturlariga bag'ishlangan seminar-treningni Xorijiy til va adabiyoti kafedrasida quyi va yuqori kurslari mudirlari Valisher Tangriyev hamda Dilshod Tog'aymurodov tomonidan o'tkazdi. Seminar davomida CPD (Continuing Professional Development),

PRESETT va AELLCA kabi ilg'or ta'lim dasturlari haqida ma'lumotlar berildi. tadbiriq qilish bo'yicha tavsiyalar oldilar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakultetida talabayoishlarning taklif va muammolarini o'rganish, ular asosida ish tashkil qilish maqsadida "Rektor va yoshlar uchrashuvi" tashkil qilindi.

Uchrashuv davomida institutning o'quv-tarbiyaviy faoliyati, yoshlarni ilm-fan, kasb-hunar va tadbirkorlik sohalarida

qo'llab-quvvatlash borasidagi rejalar haqida gapirib o'tdi. Shuningdek, yoshlarni o'z maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga yordam berish, ularni har tomonlama



rivojlantirish muhimligini ta'kidlab o'tdi. Samimiy tarzda o'tgan uchrashuv davomida yoshlar o'z fikr mulohazalari bilan faol ishtirok etdilar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga birlashtirilgan Denov tumanidagi 3-sonli kasb-hunar maktabi bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda kambag'al oila farzandlarini kasb-hunarga o'rgatish va ularni farovon hayotga erishish imkoniyatlarini yaratish maqsadida ushbu maktabda tahsil olayotgan Nusratov Otabek Ma'ruf o'g'li bilan suhbat olib borildi.



Suhbat davomida Otabekning kasbga yo'naltirilishi, iqtisodiy mustaqillikka erishish va kelajakda o'zini ta'minlash borasidagi fikr-mulohazalari tinglandi.

Ushbu suhbatdan so'ng, Otabek Nusratovning oliy ta'limga kirish jarayonini qo'llab-quvvatlash maqsadida institut rektori institutning malakali professor-o'qituvchilarini birlashtirdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tyutorlari tashabbusi bilan institutimiz "Karyera markazi" hovlisida "Milliy taomlar festivali" bo'lib o'tdi. Festival faqatgina yurtimizning mazali va rang-barang taomlarini tatib ko'rish imkoniyati emas, balki har bir taomda yotgan chuqur tarixiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini anglash imkoniyatidir



"Yosh kitobxon" tanlovining joriy yilgi mavsumiga tayyorgarlik qilish, talaba yoshlarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti tyutorlari fakultet talabalari bilan birgalikda institutning Sh.Rashidov binosida joylashgan ARMga sayohat uyushtirishdi.



Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qituvchilari Izzatoy Turdiyeva, Mahliyo Ko‘chkinova hamda Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi Eshmamat Bobomurodov Tojikiston Respublikasiga xizmat safarida bo‘lishdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida 21 milliy liboslar kuni ko‘tarinki kayfiyatda o‘tkazildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori boshchiligidagi institut jamoasi, 21-fevral kuni MFY mas‘ul xodimlari hamda profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda, institutda tahsil olib, ijara xonadonlarida istiqomad qilayotgan talabalarning yashash, ovqatlanish, dars tayyorlash sharoitlari hamda tabiiy gaz, elektr energiyasidan foydalanishlarida texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilishlarini joylarga chiqqan holda o‘rganish ishlarini olib borishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 22-fevral kuni Sog‘lom inson – sog‘lom millat” umummilliy harakati doirasida Denov tumanida

ommaviy sportni rivojlantirish va sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish maqsadida "Velomarafon" oʻtkazildi.



Talaba yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etish va "Besh muhim tashabbus" ijrosini ta'minlash maqsadida Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 23-fevral kuni "Turizm" yoʻnalishi talabalari oʻrtasida sportning mini futbol turi boʻyicha musobaqa tashkil etildi.

Filologiya fakulteti Xotin-qizlar boʻyicha dekan maslahatchisi N.Nabiyeva tomonidan talaba-qizlar oʻrtasida "Oʻz kelajaging uchun oʻzing mas'ulsan" shiori ostida davra suhbat oʻtkazildi.


Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari oʻrtasida 24-fevral kuni "Zakovat" intellektual oʻyini boʻyicha "Rektor kubogi"ning bahorgi mavsumi boshlandi.



Qumqoʻrgʻon tumanida sportning mini futbol turi boʻyicha oʻtkazilgan turnerda DTPI jamoasi munosib ishtirok etib, gʻoliblikni qoʻlga kiritdi. Tumanlardan tashrif buyurgan 24 ta jamoa ichida tengsizligini isbotladi. Finalda Shoʻrchi tumanidan tashrif buyurgan jamoa bilan kechgan bahslarda, raqiblarini 3 : 0 hisobda magʻlub etib, bosh sovringa sazovor boʻldi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti quyi va yuqori kurslar kafedrasining o'qituvchilari Valisher Tangriyev va Abbas Kurbonov 2025-yil 24-25-fevral sanasida Toshkent shahrida o'tkazilayotgan "Accelerating English Language Learning in Central Asia" mavzusidagi seminar-treningda ishtirok etdilar. Ushbu tadbir British Council hamkorligida, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetida tashkil etildi.



DTPI psixologi Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tyutorlari hamkorligida psixodiagnostika ishlarini amalga oshirish maqsadida 1-2 kurs kimyo yo'nalishlari va 1-2 kurs matematika yo'nalishlarda tahsil olayotgan talaba yoshlardan "Hads" so'rovnomasi va psixologik trening o'tkazildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori boshchiligida 27-fevral kuni Filologiya fakulteti Xorijiy til yo'nalishi talabalari Termiz shahrida bo'lib o'tgan IT Park rezidanti hisoblangan "Prime Samarkand" MChJ kompaniyasi tomonidan logistika



bo'yicha mutaxassis bo'lishi, mingdan ortiq talabalarni ish bilan ta'minlash maqsadida o'tqazilgan davra suhbatida ishtirok etishdi.

O'zbek xalqining buyuk olimi Nazar To'rayevning boy ijodiy merosini o'rganish, nomini abadiylashtirish, shuningdek yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish maqsadida hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori O.Ruziyevning 2025-yil 23-yanvar kunidagi 01-135-sonli xatiga asosan, Denov tuman "Chuqurqishloq" mahallasida Nazar To'rayevning uy-muzeyi tashkil etilsin to'g'risida Denov tuman hokimining qarori qabul qilindi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga 28-fevral kuni Janubiy Koreyaning Sejong universiteti professori Otabek Jurayev va Iroda Mukhammadieva tashrif buyurdi.



Tashrif davomida mehmonlar institut faoliyati bilan yaqindan tanishib, Sejong maktabini tashkil etish hamda bitiruvchi kurs talabalarini magistratura va PhD bosqichlariga qabul qilish bo'yicha kelishuvga erishildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan talaba-yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni iqtidorlarini yuzaga chiqarish maqsadida "Yurtim qadryatlari" respublika ko'rik-tanlovi e'lon qilingan edi. 28-fevral kuni Surxondaryo viloyati oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida ushbu tanlovning hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.



Ko'rik-tanlovda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasi faol ishtirok etib faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritishdi.



1-mart kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talaba qizlari o'rtasida Zulfiyaxonim tavalludining 110 yilligi munosabati bilan "Zulfiyaxonim izdoshlari" nomli ko'rik-tanlov bo'lib o'tdi. Ishtirokchi jamoalar Zulfiya Isroilova ijodidan namunalar keltirishdi. Jumladan, Zulfiyaxonim hayoti bilan bog'liq sahna ko'rinishlari ijro etishdi. Qo'shiqlar hamda raqslar ham tadbir doirasidan o'rin oldi. Guruhlarning chiqishlari hakamlar hay'ati tomonidan odilona baholanib borildi.

Termiz davlat pedagogika institutida "Talabalar ligasi" sport o'yinlarining basketbol turi bo'yicha hududiy bosqichi o'tkazildi. Musobaqada Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalaridan iborat qizlar va yigitlar jamoasi ham faol ishtirok etib, yakunda sovrindorlar qatoridan joy oldi. Quvonarlisi shundaki ushbu musobaqada o'g'il va qiz bolalar o'rtasida ham 3-o'rin Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasiga nasib etdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Karyera markazida "Milliy qadriyatlar" va "Milliy ko'rgazmalar" sayli o'tkazildi. Ushbu sayl mamlakatimizning boy madaniy merosini targ'ib qilish va kelajak avlodga milliy qadriyatlarni o'rgatish maqsadida tashkil etilmoqda. Ushbu sayl orqali yoshlarimiz milliy an'analar, san'at va hunarmandchilikning boy tarixini o'rganish imkoniga ega bo'ladilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida talaba-yoshlar o'rtasida sportning voleybol turi bo'yicha "Rektor kubogi" sport musobaqasi bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "AYOLLARI ARDOQDA MASKAN" nomli ma'naviy-madaniy tadbir bolib o'tdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talaba - yoshlari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. 750 nafar talabaga milliy taomimiz bo'lgan osh tarqatildi.



Pedagogika fakultetida bahor bayrami 8-mart xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. 8-mart bu- butun dunyoda xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalardagi yutuqlarini nishonlash, shuningdek, ularning huquqlarini himoya qilish, ularni e'tirof etish kuni hamdir.



"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchilari va 3-bosqich "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabalari bilan birgalikda "Jannat onalar oyog'i ostidadir" nomli tadbir tashkil etildi. Denov tadbirkorlik va

pedagogika institutida 10-mart kuni "Sogʻlom inson - sogʻlom millat" gʻoyasini umummilliy harakatga aylantirish va ommaviy sportni rivojlantirish boʻyicha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar ijrosini taʼminlash, OTM va Maktab hamkorligini mustahkamlash hamda talaba yoshlarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida Shoʻrchi tumandagi 10-sonli umumtaʼlim maktabi oʻquvchi qizlaridan tashkil topgan jamoa hamda institutimiz jamoasi oʻrtasida sportning "Qoʻl toʻpi" boʻyicha oʻrtoqlik uchrashuvi boʻlib oʻtdi.



DTPI rektori huzurida yigʻilish boʻlib oʻtdi. Institutda "Kelajakka qadam" markazini tashkil etish toʻgʻrisida, "Yashil makon" umummilliy loyihasining bahorgi mavsumi ijrosi toʻgʻrisidagi va boshqa masalalar muhokama qilindi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlangʻich taʼlim metodikasi kafedrasini mudiri, Pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) Salomova Raʼno Vassiyevnaga "8-mart— xalqaro xotin-qizlar kuni" arafasida "Moʻtabar ayol" koʻkrak nishoni, Institut xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanovani Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator A.Saʼdullayev tomonidan yoshlar siyosatini rivojlantirishga munosib hissa qoʻshayotgani uchun "Tashakkurnoma" bilan taqdirlandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va nomdor davlat stipendiyalariga etishgan talabalarimizning yutuqlari eʼtirof etildi.



DTPI rektori va Tojikiston taʼlim akademiyasining Taʼlim va innovatsiyalar boʻlimi boshligʻi, psixologiya fanlari falsafa doktori(PhD) Abdurashidov Naimjon Fozilovichlarning ikki tomonlama uchrashuvi boʻlib oʻtdi.



Institut rektorining tegishli buyrug‘i asosida xalqaro aloqalar bo‘limi a‘zolari va raxbariyat tarkibidan tuzilgan ishchi guruhi fakultetlar va kafedralar kesimida yetakchi xorijiy OTMLar bilan o‘rnatilgan ilmiy va madaniy aloqalarning holatini o‘rganish maqsadida jismoniy tarbiya kafedrasiga tashrif buyurdilar.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3 yanvardagi PQ 1-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Denov tumani hokimi I.Abrorov, tuman prokurori F.Xoliqov, tuman IIB boshlig‘i Sh.Narmuratovlar ishtirokida DTPIda tuman Ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati Probatsiya guruhi hisobidagi shaxslar bilan uchrashuv o‘tkazildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 13-mart kuni 2-son TTJ da talaba-qizlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish maqsadida "Milliy salatlar tayyorlash sirlari" mavzusida bellashuv bo‘lib o‘tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektorining 2025-yil 20-fevraldagi 36-A sonli buyrug'iga asosan basketbol sport turi bo'yicha "Rektor kubogi" musobaqalari bo'lib o'tdi. Musobaqalarda 120 nafardan ortiq talaba yigit-qizlar ishtirok etishdi.



Denov tumanigagi 4-son umumiy o'rta ta'lim maktabida O'zbekiston respublikasi oila va xotin-qizlar qumitasi bosh mutahassisi Toshqulova Nigora Gafforovna tashabbusi bilan Denov tuman hokim o'rinbosari Lutfullayeva Nigora Habubullayevna, DTPI psixologi Xolmuminova Dilshoda hamkorligida tuman xotin-qizlar faollari va mahalla xotin-qizlari hamda 4-maktab o'quvchi va o'qituvchilari bilan davra suhbatini olib borildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Moliya va bank ishi va Raqamli iqtisodiyot kafedralari vakillari 14-mart kuni Dushanbe shahrida joylashgan Tojikiston davlat Moliya-iqtisodiyot universitetida bo'lishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti vakillari ham oliy ta'lim muassasalarida bir vaqtning o'zida "Yashil makon" loyihasi doirasida "Bu bog'lar bir bog'lar bo'ladi..." shiori ostida "Ziyolilar bog'i"ni tashkil etish uchun bahor mavsumida ko'chat ekish marafoniga faol ishtirok etdilar.



Talabalar xavfsizligini ta'minlash, ichki tartibni mustahkamlash hamda bayram tadbirlariga puxta hozirlik ko'rish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta inspektori, mayor O.Toshtemirov hamda institut "Qalqon" jamoasi a'zolari 3-4-sonli talabalar turar joylarida tungi nazorat ishlarini o'tkazdilar.

"Navro'z" umumxalq bayrami munosabati bilan viloyatimizda tashkillashtiriladigan xalq sayllarida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasi ham Denov tumanidagi Zahiriddin Bobur MFY hududida joylashgan "Yoshlar saylgo'hi"da bo'lib o'tayotgan bayramda faol ishtirok etishdi.



DTPIda Ilmiy va innovatsion g'oyalar ustida ish olib borilmoqda Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i M.Jurayev va Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasini mudiri t.f.d (DSc) professor v.b. S.Sh.Ismatov, X.Kulbashova va kafedraning talabalari laboratoriyada yangicha usulda olgan o'g'itidan zafaron o'simligini o'stirishda foydalandi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektorining 2025-yil 12 martdagi 10-XS sonli buyrug'iga asosan, Oliy matematika hamda Biologiya va qishloq xo'jalik maxsulotlari texnologiyalari kafedralari bir guruh professor - o'qituvchilari 19-mart kuni Tojikiston Respublikasidagi Dang'ara davlat universiteti hamda S.Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universitetlarida o'zaro pedagogik va ilmiy

hamkorliklar doirasida, nazariy mashgʻulot va auditoriya darslarini oʻtish, trening seminarlar tashkil etish, maktablar bilan hamkorlikda oʻquv adabiyotlarni yaratish, halqaro ilmiy-amaliy startap loyihalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida xizmat safarida boʻlib qaytishdi.

DTPIga Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi «Intellectual mulk markazi» davlat muassasasi rahbarlari tashrif buyurdi.



Termiz shahridagi "Surxon" sport majmuasida "Talabalar ligasi" doirasida gandbol sport turi boʻyicha viloyat bosqichining oʻgʻil bolalar va qiz bolalar oʻrtasidagi baxslari ham oʻz yakuniga yetdi. Aylanma tizimda oʻtkazilgan ushbu musobaqada ishtirok etgan yigitlar hamda qizlar terma jamoamiz ham kuchli uchlikdan oʻrin egalladi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 20-mart kuni Uzun tuman 2-son politexnikumi bilan hamkorlik asosida faoliyat olib bormoqda. Shu munosabat bilan Pedagogika fakulteti jamoasi har hafta politexnikumga tashrif buyurib, mahorat darslari tashkil etib kelmoqda.

Xususan, Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri p.f.f.d (PhD) D. Boboqulova, kafedra oʻqituvchilari

N. Donayeva va F. Odinaboyevlar politexnikum oʻqituvchilariga "Inklyuziv ta'lim" mavzusida mahorat darsi va oʻquvchilarga kasbga yoʻnaltirish yuzasidan psixologik trening oʻtdilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakultetida 21- mart Navro‘z-umumxalq bayrami munosabati bilan Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida o‘qituvchilari Q.Xushboqov va H.Allayevalar tashabbusi bilan “Qadriyatlarini fevral kuning boqiy bo‘lsin, Navro‘zim” nomli tadbir tashkil etildi. Tadbirda katta qiziqish bilan ishtirok etgan Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich 15-BT guruhi va Sirtqi ta‘lim shakli 5-BT-S-22 guruh talabarlari turli xil chiqishlar orqali davraga ko‘rk bag‘ishlab turdi. Badiiy chiqishlarni fakultet dekani ochib berdi, fakultet professor-o‘qituvchilari ham kuzatib borishdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida professor-o‘qituvchilari Jamila Ubaydullayeva hamda Sayyora Rozikovalar tomonidan 20-mart kuni shoir A.Oripov tavalludining 84-yilligi munosabati bilan “She‘r va umr hikmati” nomli tadbir tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik muammolarni hal etish, yashil hududlarni ko‘paytirish va tabiiy resurslarni asrash maqsadida bir qator ijtimoiy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri – “Yashil makon” umummilliy loyihasidir. Ushbu loyiha doirasida turli soha vakillari, shu jumladan ta‘lim muassasalarining o‘qituvchilari va talabarlari ham faol ishtirok etmoqda.



Filologiya fakulteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasining o‘qituvchilari ham ushbu loyihaga o‘z hissalarini qo‘shishdi. Ular o‘zlariga biriktirilgan hududlarda manzarali daraxt ko‘chatlarini ekishdi. Bu jarayon o‘qituvchilar va talabalar uchun nafaqat ekologik ongini oshirish, balki tabiatga mehr va g‘amxo‘rlikni namoyon etishning ajoyib imkoniyatidir.

Denov TPI ning barcha fakultetlarini 2024/2025 o‘quv yilida bitirayotgan talabarlari ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarori ijrosi bo‘yicha o‘quv-seminari bo‘lib o‘tdi. Seminarda banklarning yetakchi mutaxassislari ishtirok etishdi hamda qarorning mazmun-mohiyati haqida bitiruvchi kurs talabalariga tushuntirildi. O‘quv-seminarida ishtirok etgan talabalar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori Rustam Shukurov tomonidan sohada yutuqlar va muammolarga oid “Ochiq muloqot” bo‘lib o‘tdi.

Muloqotda institut professor-o‘qituvchilari va tadqiqotchilari o‘quv, ilmiy, ustoz-shogirt jarayonlarini amalga oshirishdagi yutuqlari, muammolar va takliflari haqida so‘z bordi. Muammolarni tizimli hal qilish bo‘yicha fikrlar o‘rganildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Dang‘ara davlat universiteti o‘rtasida o‘zaro hamkorlik memorandumi (MOU) imzolandi. Mazkur kelishuv ikki oliy ta’lim muassasasi o‘rtasidagi ilmiy va madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakultetida ota-onalar hamkorligi doirasida talabalar va ularning ota-onalari bilan uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv soʻngida ota-onalar institutda yaratilgan shart-sharoitlar, olib borilayotgan ishlar, Karyera va Axborot-resurs markazlarida yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishtirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig‘i ijrosini (2024-yil 13-dekabrda videoselektor 60-sonli) nazorati yuzasidan 25-mart kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori, Ta’lim sifati inspeksiyasi boshlig‘i Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida qoshida tashkil etilgan umumta’lim maktablari bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun "BIOLOGIYA" fani kursi faoliyati bilan tanishishdi. Institut rektori o‘quvchi yoshlarga, talabalarni bilim olishlari uchun institutda yaratilgan sharoitlar haqida ma'lumot berdi. Kurs faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida fakultet dekani B.Iraliyev va kafedra mudiri M.Hamroyevaga qo‘shimcha topshiriq berildi.

Instituti rektori dars mashg‘ulotlarini a’lo darajada o‘zlashtirayotgan o‘quvchi yoshlarga maxsus qo‘llanmalar va darsliklarni sovg‘a sifatida topshirdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya hamda Aniq va tabiiy fanlar fakultetida talaba-yoshlarning taklif va muammolarini o‘rganish, ular asosida ish tashkil qilish maqsadida “Rektor va yoshlar uchrashuvi” tashkil qilindi. Uchrashuv davomida institutning o‘quv-tarbiyaviy faoliyati, yoshlarni ilm-fan, kasb-hunar va tadbirkorlik sohalarida qo‘llab-quvvatlash borasidagi

rejalari haqida gapirib o‘tdi. Shuningdek, yoshlarni o‘z maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga yordam berish, ularni har tomonlama rivojlantirish muhimligini ta’kidlab o‘tdi. Samimiy tarzda o‘tgan uchrashuv davomida yoshlar o‘z fikr mulohazalari bilan faol ishtirok etdilar.



Oltinsoy tumanidagi 43-umumta’lim maktabi sport zalida Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan sportning voleybol turi bo‘yicha Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining “Rektor kubogi” musobaqasi o‘tkazildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida viloyatimizda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida Stritbol sport turi bo‘yicha “Universiada-2025” sport musobaqalarining viloyat bosqichi bo‘lib o‘tdi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori ishtirokida Denov tumanidagi 22-umumta'lim maktabida bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan uchrashuv o'tkazildi. Denov tumanidagi 22-umumta'lim maktabida DTPI rektori O. Ruziyev tomonidan o'tkazilgan uchrashuv nafaqat o'quvchilarning oliy ta'limga kirish yo'llari haqida xabardor bo'lishlari, balki ularning kelajakdagi

ta'lim, kasb-hunar va ijtimoiy hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantirishda muhim o'rin egalladi.

Denov tumani "Sebzor" mahallasidagi 22-umumiy o'rta-ta'lim maktabida "Do'stlik va hamjihatlik ulug'langan yurt" shiori ostida tashkil etilgan tadbirida DTPI jamoasi ham o'z ko'rgazmalari bilan ishtirok etishdi. Ushbu tadbir mahallada milliy an'analar va urf-odatlarini saqlash, mahalla yoshlariga etika, tarbiya va vatanparvarlikni targ'ib qilish, jamoada birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash kabi masalalarni o'zida aks ettirgan.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-dekabrda PQ-438-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga birlashtirilgan Oltinsoy tumandagi 20 ta umumta'lim maktabini metodik qo'llab-quvvatlash va ta'lim sifatini oshirish, maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning

kasbiy mahoratini va o'quv samaradorligi oshirish maqsadida 2025-yilning 27-mart 1-aprel kunlari oralig'ida "Dolzab haftalik" tashkil etilgan.

O'zbek va tojik xalqlari tarixiy va madaniy boyliklari, o'zaro hurmat va do'stligi, qon-qardoshlik aloqalari har bir sohada mustahkam. Pedagogika fakultetida o'zbek va tojik xalqlari birdamligi va do'stligini madh etuvchi

tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbir Surxondaryo viloyati hokimligi, Sariosiyo tuman hokimligi va DTPI tashabbusi bilan tashkil etildi. Unda “Surxondaryo VTRK”, “O‘zbekiston-24” telekanallari muxbirlari ham ishtirok etib, jarayonni respublikamiz miqyosida yoritib, tojik millatiga mansub talabalarning faoliyati, sport, san’at sohasidagi yutuqlari bilan yaqindan tanishdilar.



O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti tomonidan 2025-yil 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash va oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida viloyat



prokuraturasi hamda viloyatdagi OTMlari o‘rtasida tuzilgan "Qo‘shma reja" asosida Denov tuman prokurorining katta yordamchisi A.Xasanov, tuman IIB profilaktika inspektori O.Toshtemirov, Xalq deputatlari Denov tuman kengashidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiya kotibi B.Xidirovlar tomonidan institutda targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tog‘risida”gi 3898-son qaroriga asosan Sariosiyo tumanida joylashgan harbiy qism va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning mazmuni, sohalari va tartibini belgilab beruvchi Memorandum imzolandi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Quvnoqlar va zukkolar” bo‘yicha Online terma jamoasi Surxondaryo viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida o‘tkazilgan “Voha ligasi” musobaqasida ishtirok etib Buxoro viloyatida bo‘lib o‘tadigan yarim final musobaqasiga yo‘llanmasini qo‘lga kiritishdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Besh muhim tashabbus doirasida Aniq va tabiiy fanlar fakultetida "Tarix va falsafa" kafedrasida dotsenti Xo'janova Tamara Jo'rayevna yetakchiligida talabalar o'rtasida o'tkaziladigan "Xazinaga eltuvchi yo'l" tanlovi bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Surxondaryo viloyati hududiy bo'limi boshlig'i M.Ollomurod, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Q.Sharipov va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi H.To'rayevlari hamda Filologiya fakulteti talabalari ishtirokida "Kitobxonlik" haftaligi doirasida "Yozuvchi, shoir va talaba yoshlar uchrashuvi" bo'lib o'tdi. Tadbirda yakunida yozuvchilar va shoirlar o'zning kitoblarni talabalarga sovg'a qilishdi.



2025 yilning 4-aprel kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ishchi guruhi tashrif buyurdi. Tashrif asnosida ishchi guruh tomonidan oliygohda "Registrator ofisi"ni tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarning mavjudligi,



“Registrator ofisi”ni tashkil etish uchun tashkiliy tuzilmaga o‘zgartirish kiritilganligi va uning tasdiqlanganligi, ajratilgan shtat birliklarining talabalar kontingetiga mosligi va nizom talablari asosida malakali xodimlar bilan to‘ldirilganligi kabi qator mezonlar bo‘yicha tuzilgan savolnoma asosida

institutning “Registrator ofisi” faoliyati atroflicha o‘rganildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash va oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish va

korrupsiyaga qarshi murossasizlik muhitini shakllantirish maqsadida viloyat prokuraturasi hamda viloyatdagi OTMlari o‘rtasida tuzilgan "Qo‘shma reja" asosida Pedagogika fakultetida Sariosiyo tuman prokurorining katta yordamchisi O.Xayitov, Denov tuman IIB profilaktika inspektori O.Toshtemirov, Xalq deputatlari Denov tuman kengashi deputati N.Hasanova, institut rektor maslahatchisi O‘.Normuradovlar ishtirokida targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son qarori hamda



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 20-martdagi 114-sonli buyrug'i hamda "O'zmilliybank" AJ Boshqaruv raisi tomonidan 2025-yil 12-martda imzolangan "Kelajakka qadam" markazi faoliyatini tashkil etish tartibi ijrosini ta'milash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida "Kelajakka qadam" markazining ochilishi tadbiri bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor R.Shukurov hamda Xalqaro aloqalar bo'limi boshlig'i J. Ergashevlar Hindistonning Toshkentdagi Elchixonasida bo'lishdi. Hindiston Elchisi Smita Pant xonim bilan bo'lib o'tgan

uchrashuvda O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi aloqalar, ayniqsa ta'lim sohasidagi hamkorlikning jadal rivojlanayotganligi alohida ta'kidlandi.



Oltinsoy tumanida joylashgan 25-umumta'lim maktabida Amir Temir tavalludining 689-yilligi munosabati bilan tadbir tashkil etildi. Tadbirda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori hamda "Tarix va falsafa" kafedrasining professor-o'qituvchilari ishtirok etdi. Tadbir davomida Amir Temirning tarixdagi o'rni, uning ilmiy, madaniy va siyosiy merosi haqida so'z yuritildi. Buyuk shaxslaridan biri bo'lgan Amir Temirning hayoti va faoliyati yurtimizda o'qituvchilar va talabalar tomonidan chuqur o'rganilgan va ularning xalqaro



miqyosdagi ta'siri haqida alohida ta'kidlandi. Shuningdek, tadbir ishtirokchilari

o'quvchilarga Amir Temirning davriga oid tarixiy voqealar va uning o'zbek xalqining tarixidagi ahamiyati haqida keng ma'lumot berishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Namozov Shafolat Sattorovich nomidagi ilmiy laboratoriya xonasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Laboratoriya xonasining ochilishida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi Xurshid

Eshov, professor o'qituvchilari hamda talabalar ishtirok etishdi.



Turkiya-O'zbekiston III-ta'lim forumida imzolangan memorandunga asosan, Anqara shahridagi Anqara Yildirim Boyazid universitetida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Oliy matematika kafedrasida 1-kurs magistratura talabasi Tursunov Ilhom Baxrom o'g'li akademik mobillik doirasida hamkorlik ishlarini boshladi. Xizmat safari chog'ida

fakultet dekani Niyazi Shahin, kafedra mudiri Farrux Yilmaz, magistr rahbari Fatih Koyunchu tomonidan bir nechta hamkorlik shartnomalari tuzildi va kelgusida qilinadigan ishlar kelishib olindi.

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Sariosiyo tuman bo'limi mutaxassisi O.D.Maxmudov, Temurshunos, filolog, tarixchi M. Jalilov bilan hamkorlikda bo'lib o'tgan tadbirda fakultet dekani, mehmonlar va professor-o'qituvchilar nutq so'zladi va buyuk tarixiy shaxs hayoti va faoliyatini o'rganish, o'rgatish naqadar muhim ekanligini dalillar bilan keltirib o'tdilar.



“Mirzo Ulug‘bek vorislari” Respublika tanlovining Surxondaryo viloyati bosqichida institutimizning “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi N.P.Sanayeva rahbarligida “Ko‘p qavatli binolarni seysmik himoya qilishning faol usuli” mavzida yasalgan seysmoplatfarorma bilan “Qurilish muhandisligi” ta‘lim yo‘nalaishi talabasi Aslanov Behzod Shokir o‘g‘li tanlovda ishtirok etib, keyingi bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 13-dekabrda PQ–438-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga biriktirilgan Oltinsoy tumanidagi 41-umumta‘lim maktabida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sportga keng jalb qilish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish maqsadida voleybol sport turi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi.



Buxoro viloyatida ziyorat turizmini amalga oshirayotgan Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti “Turizm” yo‘nalishi talabalari “Labi hovuz” ansamblida Xitoy, Rossiya, Germaniya, Hindiston kabi davlatlardan tashrif buyurgan xalqaro turistlar bilan amaliy suhbat jarayonini tashkil qilishib, Surxondaryo viloyatining turizm salohiyati va

obyektlarini targ‘ib qilishdi. Surxondaryoning turistik manzillariga sayohat uyushtirishni taklif qilishdi.



11-aprel kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Korrupsiyani faqat birgalikda to‘xtata olamiz” mavzusida "Prokuror va talabalar uchrashuvi" bo‘lib o‘tdi.

Unda Denov tuman prokurorining yordamchisi F.Jo‘raev, DTPI ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori v.v.b. B.Djuraev, tuman IIB profilaktika inspektori O.Toshtemirov, tuman kengashi



korruptsiyaga qarshi kurashish komissiyasi a'zosi M.Abduraimov hamda tuman kengashi deputati R.Mamatmuradov, Korruptsiyaga qarshi kurashish va Komplayens nazorat tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i Sh.Hamzaev hamda professor o'qituvchilar va talabalar ishtirok etishdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori O.Ruziyev hamda tegishli soha vakillari, nazariya va amaliyotning uyg'unligini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish maqsadida Denov tumanidagi "Ko'zichoqli" yoshlar sanoati va tadbirkorlar zonasida bo'ldilar.

Ushbu hududda joylashgan ishlab chiqarish korxonalari va innovatsion startaplar, ayniqsa, yoshlarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotda sinovdan o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Rektor O. Ruziyev, shuningdek, institutning ta'lim jarayonlarida ilg'or metodlarni joriy etish, talabalar loyihalarini biznes muhitida amalga oshirishga doir takliflarni ilgari surdi. Bu, o'z navbatida, talabalar uchun nafaqat nazariy bilim, balki ishlab chiqarish va biznes jarayonlarini o'rganish imkoniyatlarini ham yaratadi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga filologiya fanlari doktori, professor G'.X.Raximov hamda texnika fanlari doktori, professor A.R.Maraximovlar tashrif buyurib, rektori O.A.Ruziyev tomonidan talabalarning puxta bilim olishlari maqsadida Axborot resurs markazida va talabalarning o'zini band qilish maqsadida turli kasblarni

hamda xorijiy tillarni o‘rganishlari maqsadida “Karera markazi”da yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining professor-o‘qituvchilari, Turkiyaning Elazig’ shahridagi Ferat universitetida malaka oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashrif buyurdi. Ushbu tashrif davomida o‘qituvchilar Ferat universiteti bilan ilmiy aloqalarni mustahkamlash, ta’lim tizimlaridagi zamonaviy yondashuvlar va tajribalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Sayohat davomida, ular Elazig’ shahrining tarixiy yodgorliklari, jumladan “Harpur basin” muzeyi va qadimiy obidalar bilan tanishib, Turkiyaning boy madaniy merosi va tarixiy o‘tmishi haqida



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kasaba uyushmasi qo‘mitasi tashabbusi bilan DTPI tashkil topganining 5 yillik tadbiri.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bo‘lib o‘tayotgan “Sun’iy intellekt va kompyuter texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tmoqda. Hindistonning mamlakatimizdagi muxtor elchisi Smita Pant xonim rahbarligida elchixonava vakillari, Rossiya Federatsiyasining Altay davlat universitetidan, shuningdek, qo‘shni Tojikiston Respublikasi texnika universiteti professor-o‘qituvchilari tashrif buyurishdi. Mehmonlarni institutimizda talabalarning puxta bilim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishtirildi.



DTPI professor-o'qituvchilaridan iborat jamoasi Turkiya davlatining Firat universitetida stajirovka o'tishdi. Stajirovka doirasida Firat universitetida "O'zbekiston kuni" tashkil etildi, unda universitet jamoasi va professor-o'qituvchilarimiz faol qatnashishdi.



Hindistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Smita Pant xonim ishtirokida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti va Hindistonning Indira Gandhi Krishi Vishwavidyalaya (Raipur) universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. Ushbu kelishuv ikki oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi ta'lim, ilmiy tadqiqot va madaniy almashinuv

sohalarida yaqin hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tashabbus institutning xalqaro aloqalarini yanada mustahkamlash va talabalarga yangi imkoniyatlar yaratish sari tashlangan muhim qadam bo'ldi.



Denov tumanidagi 81-umumiy o'rta ta'lim maktabi pedagoglari va bitiruvchi sinf o'quvchilari Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida talaba-yoshlarning sifatli ta'lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek o'quvchilar Registrator ofis, Axborot resurslar markazi, talabalar turar joyi va sport majmuasida bo'ldilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida rektori huzuridagi navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilish institut hayotida dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalarni muhokama qilish, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish va ilg'or innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsadida tashkil etildi. Unda institut rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda boshqa mas'ul xodimlar ishtirok etdilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 09-apreldagi xatiga asosan umumta'lim maktablari bitiruvchilari o'rtasida kimyo, biologiya va fizika fanlaridan olimpiada o'tkazildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti talaba-yoshlarining taklif va muammolarini o'rganish va ular asosida ishlarni tizimli tashkil qilish maqsadida 4-bosqich talabarlari ishtirokida "Rektor va talaba yoshlar uchrashuvi" tashkil qilindi. Mazkur uchrashuvda bitiruvchi hisoblangan 4-bosqich talabalarining ta'limdan keyingi faoliyatlari, Institutimizda yangidan faoliyat boshlagan talabalarni kasbga va xorijiy tillarga



o'rgatish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash Karyera markazi hamda u yerda amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z olib borildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori hamda Filologiya fakulteti ijodkor talaba-yoshlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuvda Pedagogika fakulteti Musiqiy ta'lim yo'nalishining iste'dodli talaba yoshlari o'zbek milliy cholg'u asboblari yordamida o'zbek xalqining boy madaniyati va an'alarini aks ettiruvchi milliy o'zbek kuy-qo'shiqlarini ijro etishdi. Ijro etilgan kuy-qo'shiqlar professor-o'qituvchi hamda talaba-yoshlarga



yuqori xush kayfiyat ulashib, ularning kun davomida bardam, tetik va ko'tarinki kayfiyatda bo'lib yurishlariga yordam beradi.



Nijniy Novgorod davlat lingvistika universiteti bilan tuzilgan hamkorlik memorandumi doirasida ijobiy ishlar amalga oshirilib kelmoqda. Institutimiz tashkil topgan kunga 5 yil to'lishi munosabati bilan Rus tili va adabiyoti kafedrasi tomonidan 2025-yil 25-26 aprel kunlari o'tkaziladigan xalqaro ilmiy-

amaliy konferensiya doirasida institutimizga mazkur oliygohning Rus tili Instituti direktori Golubeva Kristina Grigoryevna, Xalqaro jurnalistika kafedrasi dotsenti, Sharqshunoslik ilmiy ta'lim markazi direktori Boyev Eradj Begidjanov, O'zga va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti Natalya Vladimirovna Gujovalar tashrif buyurdilar.



Nijniy Novgorod davlat lingvistika universiteti homiyligida Rus tili ta'lim Markazi ochilishi haqidagi kelishuvga muvofiq ushbu maskanning rasmiy ochilish marosimi o'tkazildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Rossiya Federatsiyasining Adigeya davlat universiteti hamkorligida "Pedagogning kasbiy tayyorgarligida zamonaviy ta'lim texnologiyalari" mavzusida Zoom orqali uchrashuv (TEJEMOCT) bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-aprildagi "Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish tanlab olingan tuman (shahar)larda chora-tadbirlarni amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-132-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Denov tumanidagi "Ishga marhamat"

monomarkazi hamkorligida DTPI va Denov tuman "Kasbiy ko'nikmalar markazi" o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining bitiruvchi talabalari uchun bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi va "Karyera kuni" tadbiri o'tkazildi. Tartib bitiruvchilarga o'z biznes g'oyalarni shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha ko'maklashish, maslahatlar berish va ishga joylashish imkoniyatlarini shakllantirishiga xizmat qiladi





Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Qumqurgʻon, Shoʻrchi, Uzun, Sariosiyo, Oltinsoy va Denov tumanlaridagi umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tahsil olayotgan bitiruvchi 11-sinf oʻquvchilari uchun oʻtkazilgan kimyo, biologiya va fizika fanlaridan fan olimpiadasining tuman bosqichi gʻoliblarining yutuqlari eʼtirof etildi. Oʻquvchilarga diplom va esdalik sovgʻalar topshirildi. Gʻolib boʻlgan maktab bitiruvchi sinf oʻquvchilariga olimpiadaning keyingi bosqichiga yoʻllanma berildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida boʻlib oʻtgan "Rektor va talaba yoshlar uchrashuvi" uchrashuvi tadbiri yoshlarning bilim va koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muhim va mazmunli voqea boʻldi. Ushbu uchrashuvda talabalar oʻzlarining kelajakdagi maqsadlari, orzulari, va hayotiy rejalari haqida gapirishdi, shuningdek, ularga rektor tomonidan taqdim etilgan maslahatlar va yoʻriqnomalar katta qiziqish bilan tinglandi. Rektor yoshlarning ilm-fan, tadbirkorlik va jamiyatda faol ishtirok etishlariga katta eʼtibor qaratib, ularni yuksak maqsadlarga erishish yoʻlida qatʼiyatli va ijodkor boʻlishga chaqirdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida filologiya fakulteti rus tili va adabiyoti kafedrasi tomonidan "Rossiya va Sharq ta'lim tizimida rus tili: muammolar va istiqbollar" ("Русский язык в сфере образования России и Востока: проблемы и перспективы") mavzusida tashkil etilgan V-xalqaro

ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjumanda xorijiy va mahaliy oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari ishtirok etishdi



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ma‘naviyat bo‘limi boshlig‘i Shakarbek Abdullaev “Milliy qadriyatlar va ularning millat ma‘naviyatidagi o‘rni” mavzusida ochiq muloqot o‘tkazdi. Anjumanda milliy qadriyatlarimizning ahamiyati, ularni avaylab asrash va kelajak avlodlarga yetkazish masalalari muhokama qilindi. Notiq o‘z ma‘ruzasida Milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish va ularga e‘tibor berish bo‘yicha qiziqarli ma‘lumotlar berdi. Ishtirokchilarga bu kabi anjumanlarni davom ettirish va barcha qiziquchilarga kelgusi tadbirlarda faol ishtirok etishlari tavsiya etildi.

26-aprel dilbar shoir Muhammad Yusuf tavalludining 71 yilligi munosabati bilan "Muhammad Yusuf satrlari-yurak ohangi" nomli adabiy-badiii kecha bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida o'tkazilgan viloyat miqyosidagi biologiya, kimyo va fizika fanlari bo'yicha olimpiadada faxrli 1-2-3-o'rinlarni qo'lga kiritgan Denov, Oltinsoy, Uzun, Qumqo'rg'on, Sariosiyo va Sho'rchi tumanlari maktablarining 11-sinf o'quvchilari "Institut granti" bilan taqdirlandi.



Bu grant – nafaqat ularning mehnati va bilimga chanqoqligiga berilgan yuksak baho, balki ularning kelajakdagi katta orzulariga ochilgan yo'ldir. Ilm yo'lida sobitqadam yurgan bu yoshlar bizga faxr va ilhom bag'ishlaydi. Ularning bu yutuqlari — o'qituvchilarning fidoyiligi, ota-onalarning mehribonligi va eng asosiysi, o'zlarining astoydil harakati mahsulidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 –yil 16-oktyabrdagi 158-sonli farmoni ijrosi yuzasidan 26-aprel kuni institutning Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti sport zalida DTPIga biriktirilgan texnikumlar o‘rtasida sportning “VOLEYBOL” turi bo‘yicha “REKTOR KUBOGI” musobaqasi bo‘lib o‘tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga biriktirilgan Oltinsoy tumanidagi olis tog'li hududda joylashgan 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi pedagoglari va bitiruvchi sinf o‘quvchilari ishtirokida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi. Instituti rektori o'quvchi yoshlar bilan uchrashib institutda mavjud bo‘lgan fakultet va yo‘nalishlar haqida ma’lumot berib, har bir yo‘nalishning o‘quv rejaları, afzalliklari, kasbiy imkoniyatlarini tushuntirib o‘tdilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga Hindiston elchixonasi delegatsiyasi tashrif buyurdi. Delegatsiyaga elchixonaning Ikkinchi kotibi janob M. Srinivasan boshchilik qildi. Delegatsiya vakillarini va Hindiston elchixonasi va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamkorligiga, institutimizda talabalarning puxta bilim olishlari maqsadida amalga

o'shirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tdi. Delegatsiya vakillari "Yoshlar ishlab chiqarish sanoat zonasi"da bo'lishib, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirildi.



Yoga mashg'ulotlari Hindiston elchixonasi ko'magida yuborilgan malakali yoga ustozlari Sudha Ragavendran tomonidan olib boriladi. U o'z bilim va tajribasi bilan talabalarning sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Tadbir munosabati bilan Hindiston elchixonasi delegatsiyasi institutimizga tashrif buyurdi. Delegatsiyaga elchixonaning Ikkinchi kotibi janob M. Srinivasan boshchilik qildi. Ushbu tashabbus institutimizda yoga, kriket va kabaddi kabi sport turlarini rivojlantirish, shuningdek, Hindiston madaniyatiga bo'lgan hurmat va qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamkorlik doirasini kengaytirmoqda! Institutimiz va Kaliforniya Davlat universiteti (AQSH) o'rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida "Surxon elining ikki tilli mashhur adiblari" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida "Surxon elining ikki tilli mashhur adiblari" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tmoqda. Tadbir doirasida "Tojik ta'lim va madaniyat markazi"ning ochilish marosimi ham bo'lib o'tdi.





DTPI "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari va texnologiyalari" kafedrasida hamda "Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar" kafedrasida tomonidan xorijiy OTM bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan ochiq seminar-trening bo'lib o'tdi. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga Hindistondan professor Barve Siddhivinayak tashrif buyurdi. Tashrif davomida professor Siddhivinayak institutda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bilan yaqindan tanishdi. U, ayniqsa, ilmiy-tadqiqot sohasida olib borilayotgan yangi yondashuvlar, o'quv dasturlaridagi zamonaviy o'zgarishlar va pedagogik metodikalarni yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlarni yuqori baholadi. Institutda olib borilayotgan bu islohotlar o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan ta'minlashga, shuningdek, global mehnat bozori talablariga javob berishga qaratilgan. Professor Barve Siddhivinayak tashrif davomida institutning ilmiy salohiyatini kuchaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida o'z takliflarini bildirdi. U o'zaro tajriba almashish va ilmiy tadqiqotlar sohasida o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish zarurligini ta'kidladi. Shu bilan birga, Hindistondagi ta'lim tizimi bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'rtasida hamkorlik

imkoniyatlarini muhokama qilib, kelajakda birgalikda turli loyihalarni amalga oshirishga kelishib oldi.

2025-yil 5-may kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan mamlakat miqyosida tashkil etilgan "Sport oyligi"ning rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori, soha mutasaddi vakillari va talaba-yoshlar ham faol ishtirok etdilar. Mazkur tashabbus O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni — "Sog'lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni ijrosi doirasida amalga oshirilmoqda. Ma'lumot o'rnida, sport oyligi davomida yoshlar o'rtasida ommaviy sport musobaqalari, harbiylashtirilgan jamoalar o'rtasida bellashuvlar, sport festivallari va boshqa turli tadbirlar tashkil etiladi.



Denov tumanidagi "Chuqurqishloq" mahallasida tug'ilgan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, fizika sohasida yirik olim Nazar To'raevning nomi dunyoning ko'pchilik davlatlarida ma'lum va mashhurdir.





hayotiy faoliyatiga oid ma'lumotlar, turli eksponatlar joy olgan.

U 60 yillik mehnat faoliyati davomida Yadro fizikasi instituti aspiranti, Elektronika instituti ilmiy kotibi, Toshkent politexnika instituti kafedra mudiri, Termiz davlat universiteti rektori, Fanlar akademiyasining "FANUM" ilmiy-o'quv markazi direktori kabi mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan. Akademik Nazar To'raevning uy-muzeyida ish va



Ijtimoiy himoya milliy agentligining Surxondaryo viloyati boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Surxondaryo viloyat bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi, Davlat kadastrlar palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi vakillari o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili"da aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalari" mavzusida "Ombudsman maktabi" tadbiri bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili o'rinbosari, Surxondaryo viloyat hokimining o'rinbosari,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi va tyutorlari tashabbusi bilan 9- may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan yoshi ulug' mehnat faxriylari va institutimiz professor-o'qituvchilariga sharaf lentalari tarqatildi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tahsil olayotgan talabalar ota-onalari ishtirokida navbatdagi ota-onalar yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda talabalarning o'qishdagi yutuqlari, intizomi, ilmiy va ijtimoiy faolligi muhokama qilindi. Fakultet dekani, guruh murabbiylari va

professor-o'qituvchilar ota-onalarga farzandlarining ta'lim jarayonidagi ishtiroki haqida ma'lumot berishdi. Yig'ilish davomida ota-onalar o'z farzandlarining bilim olishi, tarbiyasi va kelajakdagi kasb tanlovi haqida mas'ullar bilan fikr almashishdi. Tadbir yakunida ota-onalar bunday uchrashuvlar nafaqat talabalarning o'ziga, balki ularning oilaviy muhitiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etishdi. Bu kabi yig'ilishlar institut va oilalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Tong yulduzi" gazetasi bo'lim muharriri va shoir Ahtamqul Karim va Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi Saitova Nilufarning "Momogul" nomli hikoya va she'rlar to'plami kitobining taqdimoti bo'lib o'tdi.



9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbir Nuroniylar jamg‘armasi Denov tuman bo‘limi bilan hamkorlikda “Vatan ravnaqi, tinchlik va himoyasi yo‘lida qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida tashkil etildi. Tadbirda faxriylar, professor-o‘qituvchilar hamda talaba-yoshlar ishtirok etishdi. Unda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti fidoyilarining jasorati, bugungi tinchlik va osoyishtalik yo‘lida qilgan xizmatlari e’tirof etildi. Nuroniylar yoshlarga o‘z hayot yo‘llaridan hikoya qilib, Vatanga sadoqat, tinchlikni asrash, el-yurtga fidoyilik kabi qadriyatlar haqida ibratli so‘zlar aytishdi.



O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining 2025-uil 25-martdagi 14/662-son xati, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda 36691-harbiy qism o‘rtasidagi 2025-yil 15-apreldagi 001-2025-sonli o‘zaro shartnomasiga binoan, 7-may 2025-yilda Pedagogika va psixologiya kafedra o‘qituvchilari Tojiddin

Yo‘ldoshev, Ulugbek Shomurotov, Nilufar Rahmonova va Fazliddin Odinaboboyevlar tomonidan 36691-harbiy qismda askarlar va harbiy qism xizmatchilari uchun “Shaxsiy rivojlantiruvchi va jamoaviy jipslikni shakllantirish” mavzusida psixologik treninglar olib borishdi.

Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va moliyaviy rag‘batlantirish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori tashabbusi bilan institut miqyosida “Rektor stipendiyasi” tanlovining test sinovi bosqichi bo‘lib o‘tdi.



DTPIning bir guruh professor-o‘qituvchilari, talabarlari tuman markazida joylashgan "Baxtiyor ona" haykali poyiga gulchambar qo‘yishdi.



belgilangan. Shunga asosan, barcha

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5148-son qarorida belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida, joriy yilning 8-maydan 31-may sanasiga qadar 2 bosqichda oliy ta‘lim muassasalari talabai-yoshlari o‘rtasida jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o‘tkazish belgilangan. Shunga asosan, barcha OTMlarda jismoniy tayyorgarlik

sinovlariga start berildi. Bu jarayonlarni yurtimizdagi OTMlarning rektorlari boshchiligidagi mas'ullar va talaba-yoshlar Zoom videoaloqa dasturi orqali kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti sport majmuasidagi tadbirlarni vohamizdagi OTM mas'ullari Termiz davlat universitetida tashkil etilgan studiya orqali kuzatib bordilar.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida IIV rahbariyati va OTM rahbariyatining 2024-yil 25-mart kunidagi 06/12-sonli qo'shma qaroriga muvofiq haftaning payshanba kuni "Talabalar xavfsizligi" kuni etib belgilangan, shu munosabat bilan institut profilaktika katta inspektorlari O.Toshtemirov va S.Suvonova hamda Pedagogika

fakulteti tyutori R.Salomovlar, Jismoniy madaniyat yo'nalishi 2-kurs talabalari ishtirokida. Shu qarorga muvofiq haftaning payshanba kuni talabalar xavfsizligi choralari kuchaytirish maqsadida, "TIG" maxsus profilaktik tadbirlari o'tkazildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 9-may Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda talabalar tomonidan tayyorlangan ikkinchi jahon urushi jarayonlari aks etgan badiiy chiqishlar va sahna ko'rinishlari tadbir ishtirokchilari diqqat markazida bo'ldi. Mazkur tadbirda 36691-harbiy qism vakillari hamda orkestr ijrochilari ham ishtirok etishdi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Xotira muqaddas – inson aziz” mavzusida o‘tkazilgan tadbirlar, xalqimizning tarixiy yodgorliklarini va ajdodlarimizning mehnatini qadrlashga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytiradi. Ushbu tadbirlar doirasida, yosh avlodga ulug‘ insonlarning tarixdagi o‘rni haqida

batafsil ma’lumot berib, ularning xotirasini asrab-avaylashga chaqirish maqsad qilinadi. O‘tkazilayotgan ilmiy va ma’naviy tadbirlar, milliy qadriyatlarimizni yanada chuqurroq anglashga imkon yaratadi.



Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig‘i Mamanazarov Abdusamat Abdusaitovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida institut rektori Oybek Ruziyev boshchiligida mehmonlar o‘quv binolari, laboratoriyalar, Kelajakka qadam markazi, kutubxona hamda zamonaviy dars xonalari bilan yaqindan tanishtirildi. Mazkur uchrashuv davomida institutda ta’lim sifati, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyati, talabalarga yaratilgan sharoitlar, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish borasida erishilayotgan yutuqlar keng muhokama qilindi.



G‘afur G‘ulom – o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi va faoliyati millatimizning ma’naviy boyligini tashkil etadi. 10-may kuni Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi talabalari tomonidan o‘zbek adabiyotining buyuk shoiriga bag‘ishlab o‘tkazilgan "G‘afur G‘ulom-



Millat ma'naviyatining fidoiysi" nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir, uning adabiy merosini chuqur o'rganish va yosh avlodga tanitish maqsadida tashkil etildi. Tadbirda G'afur G'ulomning ijodi, uning vatanparvarlik ruhidagi asarlari, shuningdek, uning millat oldidagi xizmatlari haqida so'z yuritildi.

Biologiya yo'nalishi talabalarini bir haftalik o'quv amaliyotini o'tkazish maqsadida Oltinsoy tuman "Vaxshivor" oromgohiga joylashtirilib, institut mas'ullari bilan talabalarga birinchi navbatda xavfsizlik, buyumlariga ehtiyot bo'lishlik, sababsiz biror joyga yolg'iz bormaslik yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga Toshkent kimyo texnologiya instituti professori, texnika fanlari doktori Mirzaqulov Xolto'ra Choriyevich tashrif buyurdi. Tashrif davomida institutda mavjud o'quv laboratoriyalari, o'quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishilib, tajriba almashdi. Shuningdek, professor X.Ch.Mirzaqulov kimyo



ta'lim yo'nalishi talabalariga o'zining tajriba, bilim, malaka va olib borayotgan ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlarini berdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida may sport oyligi doirasida "Sportchi-Yurt himoyachisi!" shiori ostida sport musobaqalari festivalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.




Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 1-bosqich talabalari ota-onalari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Uchrashuvda ota-onalarga talabalarning ta'lim jarayoni, institutdagi imkoniyatlar hamda tarbiyaviy ishlar haqida batafsil ma'lumot berildi. Shuningdek, yig'ilish davomida Prezidentimiz



tomonidan 2024-yil 24-mayda imzolangan “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni ijrosi yuzasidan tushuntirishlar berildi. Yig‘ilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad — ota-onalarni islohotlar bilan yaqindan tanishtirish va ta’lim sifatini oshirishda ularning hamkorligini kuchaytirishdan iborat bo‘ldi.

“Zamonaviy kimyoning dolzarb muammolari, yechimlari va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi. Anjumanda Moskva davlat universiteti, Tojikiston milliy universiteti, Tojikiston davlat pedagogika instituti, Shri Lanka Eastern University, Tojikiston Respublikasi Yer boshqaruvi va geodeziya davlat qo‘mitasining Ilmiy-tadqiqot markazi, Abu Ali ibn Sino nomidagi Tojikiston davlat tibbiyot universiteti, M. Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti hamda Respublikamizning yetakchi oliy ta’lim muassasalari yetuk olimlari hamda tadqiqotchilari bevosita va onlayn ishtirok etishdi.



Xitoy Xalq Respublikasining Guanchjou shahrida "GITF" (Guangzhou International Travel Fair) xalqaro turizm ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tmoqda. Mazkur nufuzli tadbirda Surxondaryo viloyati delegatsiyasi ham faol ishtirok etmoqda. Viloyat pavilonida Surxondaryoning boy sayyohlik salohiyati, tarixiy va madaniy yodgorliklari, milliy an‘analari hamda urf-odatlarini keng namoyish etilmoqda. Taqdimotlar xorijiy ishtirokchilarda katta qiziqish uyg‘otib, viloyatga bo‘lgan e‘tibor va qiziqishni yanada oshirmoqda. Ko‘rgazma doirasida bir qator xalqaro turizm kompaniyalari bilan ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazilib, hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan muhim kelishuvlar va shartnomalar imzolandi. Shuningdek, tadbirda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori ham ishtirok etdi.



Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi qadimiy Chinortepa yodgorligida O‘zbekiston va Xitoy olimlari hamkorligida arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Qazishmalar davomida qadimiy sopol buyumlar va boshqa muhim topilmalar aniqlanmoqda. Tadqiqotlarda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutidan tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Ahmedov Sardor va tadqiqotchi Xudoyberdiyev Raxim Baxtiyorovich ishtirok etdi. Ekspeditsiyada Xitoyning Shimoliy-G‘arbiy Universiteti (Sian)dan 12 nafar professor, magistr va bakalavr talabalari ham qatnashmoqda. Arxeologlar bilan birga tuproqshunoslar ham tadqiqotlarga jalb qilingan.



Pedagogika fakulteti Musiqa ta’limi yo‘nalishi bitiruvchi talabalarining “Hisobot konserti” yuqori saviyada tashkil etildi. Tadbirda talabalar o‘zlarining

nazariy va amaliy bilimlarini namoyon etib, musiqiy chiqishlari orqali mehmonlarga unutilmas lahzalarni taqdim etdilar.



15-may Xalqaro oila kuni munosabati bilan “Milliy qadriyat millat ko‘rki” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Tadbirda qadimda momolarimiz kiygan milliy liboslar va an‘analar haqida tushunchalar berildi.



2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi qarori asosida yo‘lga qo‘yilgan “Kelajakka qadam” dasturi bilan tanishtirish, bitiruvchi talabalarning biznes g‘oyalarini

qo‘llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida

Pedagogika fakultetida Talabalar amaliyoti bo‘lim boshlig‘i D.Bekmurodov va mas’ullar bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Qadriyatlar – har bir millatning ma’naviy qiyofasini namoyon etadi. Buyuk mutafakkirlar ham qadriyatlar millat ma’naviyatining ko‘zgusi deb bejiz e’tirof etishmagan. Milliy qadriyatlar har bir millatning tili, urf-odatlarini, tarixi, madaniyati, an’analarini, barcha moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bugun Filologiya fakultetida “Milliy qadriyatlar-millat iftixori” mavzusida fakultet tutorlari va talabalar ishtirokida chellanj o‘tkazildi.



“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida professor-o‘qituvchilari va Tojikiston Ta’lim Akademiyasi professori B. Xusinov va O‘zbekiston Milliy universiteti professori X.J.Xudoyqulovlar ishtirokida uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvning asosiy maqsadi pedagogika va psixologiya sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni o‘zaro almashish, shuningdek, ikki tomonlama akademik hamkorlikni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.



Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti “Moliya va bank ishi” hamda “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida professor-o‘qituvchilari va Tojikiston Davlat Moliya-iqtisodiyot universiteti professor-o‘qituvchilari “Milliy iqtisodiyot va tadbirkorlik” kafedrasida mudiri S.Z.Nuriddinov va “Soliq va sug‘urta” kafedrasida katta o‘qituvchisi Sh.B.Qurbonovlar ishtirokida uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvning asosiy maqsadi ikki oliy ta’lim o‘rtasida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni o‘zaro almashish, shuningdek, ikki tomonlama akademik hamkorlikni mustahkamlashdan iboratdir.



Oliy ta'lim muassasalari talabalari o‘rtasida "Talabalar ligasi" sport musobaqalarining mini futbol turi bo‘yicha Respublika final bosqichiga start berildi. Quvonarlisi, mazkur musobaqalarda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasi Surxondaryo viloyati sharafini himoya qildi.





Jizzax politexnika institutida o‘tkazilgan “Yangi O‘zbekiston: Ilm qaldirg‘ochlari – 2025” talabalarning IV xalqaro anjumanida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasida t.f.f.d., (PhD) dotsenti N.P. Sanayeva rahbarligida 3 kurs Qurilish muhandisligi ta’lim

yo‘nalishi talabasi B. Aslanov o‘zining “Ko‘p qavatli binolarni seysmik himoya qilishning faol usuli” mavzusi bilan ishtirok etib, II- darajali diplom bilan taqdirlandi.

Respublikamizning barcha OTM qatorida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham kunduzgi bo‘lim talabalari uchun yakuniy nazorat imtihonlari bo‘lib o‘tdi. Ma’lumot uchun, institutda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 452-son buyrug‘iga asosan, yakuniy nazorat turini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh hamda yakuniy nazorat ishlarini baholovchi tajribali professor-o‘qituvchilar tarkibi shakllantirilgan.



Jaholatga qarshi ma’rifat — bu insoniyatning zulmatga, nodonlikka, adolatsizlik va zo‘ravonlikka qarshi ilm, bilim, madaniyat va tarbiya orqali kurashishidir. Jaholat jamiyatni orqaga tortadi, ma’rifat esa uni yuksaltiradi. Ma’rifatli inson – ongli, mehrlil, tolerant va adolatli bo‘ladi. Shuning uchun har bir jamiyat taraqqiyot sari intilsa, avvalo ma’rifatni yoyishi, yosh avlodni bilimli va tarbiyali etib voyaga yetkazishi lozim. Ma’rifat — bu ezgulik yo‘li, jaholatga qarshi eng qudratli quroldir. Yuqoridagi mavzu yuzasidan Pedagogika fakulteti 3-4 –son TTJ talabalari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Videoroliklar namoyishi orqali tarbiyaga, ilm egallashning afzallakilariga alohida urgʻu berildi.



Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Umumiy fizika va qurilish muhandisligi” kafedrasining oʻqituvchilari hamda amaliyot rahbarlari F.Toʻraxonov, K.Pardayeva, A.Yoʻldoshevlar Fizika taʼlim yoʻnalishi 3-kurs 7F-2022, 8F-2022 guruh talabalarini malakaviy amaliyoti davrida “OʻZBEKGIDROENERGO” aksiyadorlik jamiyati qoshidagi “Toʻpalang” gidroelektrostansiyasi faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Talabalar gidroelektrostansiyaning umumiy ishlash prinsipi, GES ning asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishishdi. Energiya aylanish jarayoni boʻyicha kuzatuvlar oʻtkazishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti oʻqituvchilari X.Kulbasheva va G.Nuraliyevalar Hindiston hukumatining ITEC (Indian Technical and Economic Cooperation) dasturi doirasida "Women and Enterprise Development (WED)" mavzusidagi malaka oshirish kurslarida ishtirok etdilar. Ushbu dastur DTPI oʻqituvchilarining kasbiy mahoratini

oshirish hamda institutning xalqaro hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarining muhim bir qismidir



DTPI Filologiya fakulteti “Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar” kafedrasida professor-o‘qituvchilari Sh.Panjiyeva, R.Ro‘ziyeva, M.Xidirova, R.Xayitova va G.Xolmurodovalar tomonidan Denov tumanidagi 74-maktabda 2024-2025 o‘quv yilida maktab bitiruvchi sinf o‘quvchilarini oliy o‘quv yurtlariga jalb etish va ularga berilgan imtiyozlarni targ‘ib qilish maqsadida “Ilmni qadrlang, ilmga intiling!” va “Yoshlar kelajagimiz poydevori” mavzularida targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi.

2025-yil 21-may kuni Termizdagi “Termiz” xalqaro savdo markazi erkin savdo zonasida “Tinchlik, do‘stlik va farovonlikning umumiy makonini barpo etish” mavzuida Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik bo‘yicha bo‘lib o‘tayotgan Forum ishtirokchilaridan iborat delegatsiya Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markaziga tashrif buyurishdi. Mehmonlar uchun markaz haqida umumiy taqdimot tashkil etildi. Taqdimot jarayonida xorijiy mehmonlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Shundan so‘ng, mehmonlar markazda afg‘on fuqarolarini o‘qitish uchun yaratilgan shart-sharoitlar va kelajakdagi imkoniyatlari bilan yaqindan tanishishdi. O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan ushbu markaz mehmonlarda katta ta’surot uyg‘otdi .



“Biz yoshlar — diniy ekstremizmga qarshimiz” shiori ostida tashkil etilgan uchrashuv aynan shu mavzudagi muhim masalalarni muhokama qilishga bag‘ishlandi. Tadbirda ishtirok etgan mutaxassislar, diniy soha vakillari va yoshlar ekstremistik g‘oyalarning ildiz otishiga qarshi ma’naviy-ma’rifiy immunitetni kuchaytirish zarurligini ta’kidlab o‘tdilar. Yoshlar — kelajak bunyodkori. Ular nafaqat ta’lim olishda, balki yurt ravnaqi, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda ham faol ishtirok etishlari lozim. Bu borada to‘g‘ri dunyoqarash, yurtparvarlik va sog‘lom tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi.



Talabalar turar joyida talaba qizlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni turli tadbirlarga yo‘naltirish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Pazanda qizlar”, “Sovundan gul yasash”, “Mohir qo‘llar”, “Kitobxon qiz” kabi to‘garaklar faoliyat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari “Tengdosh-tengdoshga” tamoyili asosida til o‘rganish va kompyuter texnologiyalari sohasida qizlar bir-birlariga yordam bermoqdalar. Sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish maqsadida darsdan so‘ng institut talaba-qizlari uchun sport zallari ochiq. "Yosh gandbolchi"lar to‘garagi a‘zolari respublika bosqichi musobaqalarida faol qatnashib kelmoqdalar. “Quvnoq



startlar”, “To’maris izdoshlari”, voleybol sport musobaqalari TTJda yashovchi qizlar o’rtasida muntazam ravishda musobaqalar o’tkazilib kelinmoqda.

Biologiya va qishloq xo’jaligi mahsulotlari texnologiyalari kafedrasidan tomonidan “Fan, ta’lim, innovatsiyalar: tabiiy fanlar integratsiyasi hamda oziq-ovqat mahsulotlari ekologiyasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.



Oliy matematika kafedrasidan tomonidan “Yosh matematiklarning yangi teoremlari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari M.Avezov nomli Janubiy Qozog‘iston universitetida bo‘lib Hamkorlik doirasida kafedra mudirlari bilan uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. "Falsafa" kafedrasidan mudiri Nurliya Amirovna, "Umumiy tarix va muzey ish" kafedrasidan mudiri Guljan Kabayevnalar bilan DTPI "Tarix va falsafa" kafedrasidan mudiri Dilorom Tadjiyevna va "Iqtisodiyot" kafedrasidan mudiri Altin Mahmudovna, "Raqamli



"Iqtisodiyot" kafedrası mudiri Kimyoxon Urazbekovnlardan yangı o'quv quv yili uchun yo'l xaritalari imzolandi.

"Falsafa" kafedrası mudiri Nurliya Amirovna, "Umumiy tarix va muzey ish" kafedrası mudiri Guljan Kabayevnlardan bilan DTPI "Tarix va falsafa" kafedrası mudiri Dilorom Tadjiyevna va "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri Altin Mahmudovna, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrası mudiri Kimyoxon Urazbekovnlardan yangı o'quv quv yili uchun yo'l xaritalari imzolandi.

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti hamda Aniq va Ijtimoiy Fanlar Universiteti o'rtasida Hamkorlik Memorandumi Imzolandi! Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti o'rtasida hamkorlik uchun muhim qadam qo'yildi. Ushbu memorandum – bu ikki OTMning bilim va tajriba manbalarini birlashtirish, pedagogika va ilm-fanning yangi cho'qqilarini zabt etishdagi iroda ifodasidir.



Oltinsoy tumanidagi 27-umumta'lim maktabida so'nggi qo'ng'iroq tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Oybek Ruziyev faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi. U bitiruvchi yoshlarni qutlab, ularga kelajak hayotlarida muvaffaqiyat va zafarlar tiladi. Shuningdek, ta'limning inson hayotidagi ahamiyati, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida to'xtalib o'tdi.



AQSHning Missuri-Kolumbiya universitetida tahsil olayotgan Xikmatova Shirin Xusniddin qizi hamda Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabalari ishtirokida mazmunli uchrashuv tashkil etildi. Tadbirda ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish, xorijiy tajribalarni o'rganish masalalari muhokama qilindi.



Urganch shahrida bo'lib o'tgan QVZ Voha Ligasi final bosqichida haqiqiy shov-shuvli bellashuvlar bo'lib o'tdi! Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "ONLAYN" jamoasi esa yana bir bor o'z kuchini isbotladi – 3-o'rinni qo'lga kiritdi!



Institutning professor-o‘qituvchilari va talaba-yoshlari ichki turizmni rivojlantirish, yurtimizning tarixiy-madaniy meros obyektlari bilan yaqindan tanishish maqsadida Xorazm viloyatiga sayohat uyushtirdilar. Sayohat davomida ishtirokchilar Xiva shahridagi diqqatga sazovor joylarda bo‘lib, ularning tarixi va arxitektura xususiyatlari bilan tanishdilar. Mazkur sayohat talabalarda tarixiy bilimlarni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni chuqur anglash va vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada oshirishga xizmat qildi.

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari kafedrasida stajyor o‘qituvchisi Chariyeva Nazokatxon Akademik harakatchanlik loyihasi dasturida 2025 yil 2 chorak g‘olibi deb topildi. Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi binosida ayni damda Chariyeva Nazokatxon va Ilmiy-innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i M.Jurayevlar taqdirlash marosimida ishtirok etishdi.





Institut rektori boshchiligida institutning navbatdagi kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda ta'lim va ilm-fan sohasida olib borilayotgan islohotlarning yangi bosqichi, muassasada amalga oshirilayotgan dasturlarni joriy etish, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda institutning pedagogik tizimini

takomillashtirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berdi. Kengash yig'ilishida so'z olganlar tomonidan ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra institutning o'ziga xos yutuqlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish borasida olib borilayotgan ishlar haqida ham so'z yuritildi.

“Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi” mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Unda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi xalqaro aloqalar va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'limi boshlig'i Sadulla Boboxo'jayev tomonidan fuqarolarining vijdon erkinligini ta'minlash, dinlar o'rtasidagi bag'rikenglikni mustahkamlash va diniy sohada amalga oshirilayotgan davlat siyosati yuzasidan atroflicha ma'lumotlar berildi. Tadbir ishtirokchilari diniy bag'rikenglik, davlat va din munosabatlari, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Samarqand



Arxeologiya instituti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Shartnoma doirasida institutlar ilmiy-tadqiqotlar, ta'lim jarayonlari, arxeologik

ekspeditsiyalar va madaniy tadbirlar bo'yicha yaqindan hamkorlik qiladilar. ish masalalari bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Samarqand Arxeologiya instituti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Shartnoma doirasida institutlar ilmiy-tadqiqotlar, ta'lim jarayonlari, arxeologik ekspeditsiyalar va madaniy tadbirlar bo'yicha yaqindan hamkorlik qiladilar. Talabalar va professor-o'qituvchilar uchun qo'shma seminarlar, amaliy mashg'ulotlar hamda tajriba almashish imkoniyatlari yaratiladi. Bundan tashqari, yangi ilmiy loyihalar va grantlarga birgalikda ariza berish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ham rejalashtirilgan. Hamkorlikning asosiy maqsadi – tarix, madaniyat va arxeologiya sohalarida ilmiy salohiyatni oshirish va malakali kadrlar tayyorlashdir. Shartnoma tomonlar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi huzuridagi Yoshlar parlamentining 3-chaqiriq birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi sifatida saylangan bir guruh yoshlarga ishonch yorlig'i topshirildi.

Quvonarlisi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi Maftuna Ashurova ham ushbu yoshlar orasida bo'lib, o'zining faol ishtiroki bilan e'tirof etildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti “Tarix va falsafa” kafedrası professor-o‘qituvchilari D.Yakubova, A.Mengliboyev, J.Samadov, T.Xo‘janova va I.Norbo‘tayevlar Tojikiston Milliy Universiteti bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishdi.



Tashrif davomida DTPI delegatsiyasi Tojikiston Milliy Universiteti rektori Nasriddinzoda Emomali Sayfiddin bilan uchrashib, ikki oliy ta‘lim muassasasi o‘rtasida ilmiy va akademik hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kelishuvga erishdi. Tomonlar kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlarga doir muhim masalalarni muhokama qilib, yo‘l xaritasini ishlab chiqdilar.



Indoneziyaning Pendidikan universitetidan nufuzli mehmonlar tashrif buyurishdi: Prof. Dr. Julia, M.Pd. (Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti professori va kafedra mudiri), Dr. Indra Safari, M.Pd. (Jismoniy tarbiya fakulteti o‘qituvchisi va akademik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari), Dr. Tedi Supriyadi, S.H.I., M.Ag. (Boshlang‘ich ta‘lim

fakulteti o‘qituvchisi, diniy pedagogika mutaxassisi). Tashrif doirasida institutimiz Jismoniy madaniyat kafedrası bilan Pendidikan universiteti o‘rtasida kafedralararo hamkorlik shartnomasi imzolandi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti va IT Community Roadshow Denov o'rtasida hamkorlik innovatsion muhitni rivojlantirish, yoshlarni IT sohasi va texnopark imkoniyatlariga jalb qilish, IT Park infratuzilmasi va DTPIning ilmiy-pedagogik salohiyatidan samarali foydalanish orqali raqamli transformatsiyani jadallashtirish lozimligi haqida o'z fikrlarini bildirishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “IT-mutaxassislarni olib kelamiz — ular IT sohasidagi karyera va professional brend, ish qidirish va frilanserlik, shuningdek, shaxsiy samaradorlik haqida so‘zlab berishadi” shiori ostida tadbir bo‘lib o‘tdi.



Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi kunduzgi ta‘lim shakli bitiruvchi kurslarining 56-nafar talabalari yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonlarida ishtirok etishib, mutaxassislik sohalaridan yakuniy davlat attestatsiyasi imtixonlarini topshirdilar. Attestatsiya jarayonlarini o‘tkazish uchun malakali ustozlar, hususan TerDU professori S.N.Tursunov, Denov tuman 36-umumta‘lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi A.Norov, institutning Tarix va falsafa kafedrasini mudiri D.T.Yakubova va kafedra dotsenti A.Mengliboyevlar jalb etildi.

Filologiya fakulteti O‘zga tili guruhlarida rus tili ta‘lim yo‘nalishi 302-RT-2022 guruh talabalari — Xaynazarov Baxriddin va Qurbonov Qurbonalilar 2024–2025 o‘quv yilining II-semestrini Rossiya Federatsiyasining A.S.Pushkin nomidagi Davlat rus tili institutida o‘qimoqdalar. Talabalarimizning tahsili samarali davom etmoqda. Ular


zamonaviy uslublar va ilg‘or metodikalar asosida darslarda faol ishtirok etish bilan birgalikda yangi tajribalar orttirishmoqda. Shuningdek, guruh tyutori U.Omanov tomonidan ular bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy muloqot olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan “Dolzarb 90 kun” loyihasi yo‘lga qo‘yildi. Loyiha doirasida 1-iyundan 30-avgustgacha yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularni sog‘lomlashtirish va har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilishi belgilab olindi. Ushbu belgilangan topshiriqlar yuzasidan Denov tadbirkorlik va



pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tyutori Ural Jumaev tashabbusi bilan Denov tumanidagi Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida talaba-yoshlar bilan o'zlarining mutahassisligi bo'yicha amaliyot tashkil etildi.

“Dolzarb 90 kun” dasturi yozgi ta’tilni nafaqat dam olish, balki yoshlar uchun o’sish, o’rganish, rivojlanish va yangi imkoniyatlar sari yo’l sifatida qaralayotganini ko’rsatmoqda. Mazkur tashabbus kelajak avlodning mutahassis, bilimli va faol bo’lib ulg’ayishi uchun muhim zamin yaratadi.



Surxondaryo viloyati hokimligi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi o’rtasidagi 2025-yil 16-maydagi 01-16-254-sonli Surxondaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasining 52.2-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida “Fablab” ishlab chiqarish maydonida ishlab chiqarilgan loyiha prototiplarining ko’rgazmasi bo’lib o’tdi.



Rossiyaning nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri — Rossiya xalqlar do'stligi universiteti (Российский университет дружбы народов) bilan hamkorlik shartnomasini imzoladi. Mazkur hamkorlik doirasida quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib borilishi ko'zda tutilgan: Talabalar almashinuv dasturlarini yo'lga

qo'yish Professor-o'qituvchilarning malaka oshirish va stajirovka jarayonlarini tashkil etish; Qo'shma ilmiy-amaliy konferensiyalar va seminarlar o'tkazish Eng quvonarlisi — endilikda rus tilidan xalqaro sertifikat beruvchi imtihonlar RUDN universiteti bilan hamkorlikda bevosita DTPIda tashkil etilishi rejalashtirilgan. Mazkur hamkorlik ikki oliygoh o'rtasida ta'lim sifatini oshirish, xalqaro tajriba almashish va talabalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.



“Dolzarb 90 kun” va mamlakatimizda nishonlanayotgan Qurbon hayiti munosabati bilan institut rahbariyati tomonidan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida mamlakatimizning turli viloyatlaridan kelib ta'lim olayotgan va talabalar turar joylarida istiqomat qilayotgan talabalar uchun qurbon hayiti

dasturxonini yozildi va “Davra suhbatini” bo'lib o'tdi.



Denov tuman markazida joylashgan “Afrosiyob” bog’ida Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabarlari o’rtasida “Zakovat” intellektual o’yini bo’lib o’tdi. Tadbir doirasida talabalar o’z bilimlari, dunyoqarashi va tafakkur doirasi bo’yicha o’zaro bellashdilar. Ta’kidlash lozimki, institut miqyosida dolzarb 90 kunlik doirasida har kuni sport musobaqalari,

intellektual bellashuvlar, kitobxonlik tadbirlari hamda turli madaniy-ma’rifiy faoliyatlar yo’lga qo’yilgan bo’lib, bu jarayon talabalarning har tomonlama kamol topishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Dolzarb 90 kun” dasturi doirasida kibersport bilan shug’ullanayotgan yoshlarda sog’lom sport madaniyatini shakllantirish, ular tomonidan qonunga xilof va g’ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, kibersport turlariga nisbatan ijobiy jamoatchilik fikrini shakllantirish maqsadida talaba yigitlar o’rtasida sport musobaqasi tashkil etildi.



O‘zbekiston milliy terma jamoasi va Qatar terma jamoasi o‘rtasidagi muhim futbol uchrashuvini institutimiz professor-o‘qituvchilari va talabalari futbol o‘yinini kuzatishdi.



“Dolzarb 90 kun” dasturi doirasida “Tamaddun, madaniyat va ma’rifat” mavzusida o‘tkazilgan uchrashuv yuksak ma’naviy ruhda o‘tdi. Tadbirda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’atkorlar ishtirok etib, yoshlar bilan ochiq muloqotda bo‘lishdi. Ular o‘z ijodiy tajribalari, yurtimiz madaniy merosi va san’atning inson hayotidagi o‘rni haqida chuqur mulohazalar yuritdilar. Mazkur uchrashuv yoshlarga o‘z ildizlariga, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash, o‘zlikni anglash, ma’naviy yetuklik sari intilish g‘oyalarini singdirdi. Tamaddun va madaniyatni asrash, ma’rifatni keng yoyish har bir avlodning muqaddas burchi ekanligi ta’kidlandi. Tadbir



ishtirokchilariga ruhiy ozuqa berib, ularni kelajakka ishonch bilan qarashga undadi.

Filologiya fakulteti “Xorijiy til: yuqori va quyi kurslar” kafedrasida tashabbusi bilan “Til va tafakkur: lingvistik va metodik tadqiqotlar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi. Mazkur tadbirda respublikaning turli hududlaridan olimlar, tajribali ustozlar va yosh tadqiqotchilar ishtirok etib, til o‘rganish metodikasi, lingvistik tahlillar va tafakkur bilan til o‘zaro bog‘liqligi bo‘yicha o‘z ilmiy qarashlarini bayon etdilar. Anjumanda xorijiy tillarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar, shuningdek, kognitiv lingvistika va interfaol ta’lim texnologiyalarining samaradorligi muhokama qilindi. Tadbir ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, til va tafakkur sohasida yangi izlanishlarga yo‘l ochish hamda pedagogik tajribalarni ommalashtirishda muhim qadamlardan biri bo‘ldi.



2025-yilning 13-iyun kuni DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti "Raqqamli iqtisodiyot" kafedrasida 4-kurs "Iqtisodiyot" ta’lim yo’nalishi talabalarining Bitiruv malakaviy ishlari himoyasi bo'lib o'tdi.



Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning ruhiy holatini mustahkamlash hamda o'zini anglash darajasini yuksaltirish maqsadida "Ayol baxtli bo'lsa – jamiyat baxtli bo'ladi" mavzusida psixologik seminar-trening tashkil etildi. Seminar davomida ishtirokchilarga o'ziga bo'lgan ishonch va ijtimoiy rol haqida psixologik mashg'ulotlar orqali tushunchalar berildi.



Qiziquvchanlik bilan o'tgan treningda ayolning jamiyatdagi o'rni, oiladagi roli, uning ruhiy holatining farzand tarbiyasiga, jamiyat barqarorligiga ta'siri haqida amaliy mashqlar, interaktiv savol-javoblar o'tkazildi. Trening yakunida qatnashchilar o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdilar.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk qomusiy olim va mashhur davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 630-yilligini keng nishonlash to'g'risida" 2024-yil 12-sentyabrdagi PQ-323-son qarorining 6-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida "Mirzo Ulug'bek: Ilm va haqiqat yo'lchisi" mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida "Sog'lom oila – sog'lom millat" shiori ostida voleybol musobaqasi tashkil etildi. Ushbu sport tadbirida tumanimizdagi faol va iqtidorli ayollar jamoalari ishtirok etib, o'z mahoratlarini namoyish qilishdi. Musobaqa do'stona muhitda, sog'lom raqobat ruhida o'tdi. Bu kabi sport tadbirlari xotin-qizlarning jismoniy faolligini oshirish, ularni sog'lom hayot sari yetaklash, shuningdek, jamiyatda faol pozitsiyaga ega bo'lishlariga

xizmat qiladi. Musobaqa yakunida g‘olib va faol ishtirokchilar munosib taqdirlandi. Tadbir barchaga ko‘tarinki kayfiyat, sog‘lomlik va jamoaviylik ruhini ulashdi. Shu orqali yana bir bor sog‘lom jamiyat – sog‘lom ayoldan boshlanishi isbotlandi.



Iqtidorli va faol talabalarni rag‘batlantirish maqsadida e‘lon qilingan “Rektor stipendiyasi” tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi. Ma‘lumot o‘rnida, tanlovda institutning turli yo‘nalishlarida tahsil olayotgan ilg‘or, tashabbuskor va ijtimoiy hayotda faol 33 nafar talabaiyoshlarga “Rektor stipendiyasi” guvohnomasi tantanali tarzda topshirildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabasi Badalov Diyor tomonidan bolalarni vaqtini mazmunli tashkil qilish maqsadida sportning futbol turi bo‘yicha to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

2025 yilning 20–21-iyun kunlari Tojikiston Respublikasining Xatlon viloyati, Ko‘lob shahrida “Xatlon – turizmning qaynoq yuragi” mavzusida xalqaro turizm forum-ko‘rgazmasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur nufuzli tadbirda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasi ham faol ishtirok etdi. DTPI ushbu xalqaro forumda ta‘lim va turizm yo‘nalishlarida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy-amaliy tajriba almashish, mintaqaviy aloqalarni kengaytirish bo‘yicha muhim tashabbuslar bilan qatnashdi.



Tarix va falsafa kafedrasini tomonidan “Chag‘oniyon etnografik-o‘lkashunoslik muzeyi”da O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar Vazirligining 2025-yil 23-maydagi 36-sonli bayoni 1-ilova 8-bandida keltirilgan vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27 may 2022-yildagi PQ-261-sonli “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Muzeylar o‘tmishdan so‘zlaydi” mavzusida brifing tashkillashtirildi.



“Xatlon – turizmning qaynab turgan yuragi” xalqaro forumida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faol ishtirok etdi!



Taqdimotlar davomida O‘zbekistonning qadimiy tarixi, boy madaniy merosi, agroturizm, ekoturizm, tibbiy va gastronomik sayyohlik yo‘nalishlarini aks ettirgan videoroliklar mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Forum doirasida muhim hamkorliklarga erishildi. Institut tomonidan quyidagi oliy ta’lim muassasalari bilan memorandumlar imzolandi:

- Kulob davlat universiteti (Tojikiston)
- Tojikiston Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar universiteti



RUDN (Patris Lumumb nomli Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti) bilan hamkorlik yo‘lida raqamli axborot markazida RUDN bilan hamkorlikda rus tili fani o‘qituvchilarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash markazining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Marosimda institut rektori, prorektorlar, bo‘lim boshliqlari va rus tili kafedrasida o‘qituvchilari ishtirok etdilar. Markaz Filologiya fakulteti Rus tili va adabiyoti kafedrasida tashabbusi bilan ochildi.



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining "Oliy ta'lim tashkilotlarining talaba-yoshlari o'rtasida Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan "Eng yaxshi esselar" respublika tanlovini tashkil etish to'g'risida" 2025-yil 13-maydagi 175-son buyrug'iga asosan, TerDUda bo'lib o'tgan tanlovning hududiy (saralash) bosqichida Tadbirkorlik va

boshqaruv fakulteti Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi Usmonov Nurmuhammad Eshdavlat o'g'li faol ishtirok etganligi uchun Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri tomonidan tashakkurnoma bilan taqdirlandi.

2025 yil 26 iyul kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutning navbatdagi kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mazkur yig'ilishda ta'lim va ilm-fan sohasida olib borilayotgan islohotlarning yangi bosqichi, talabalar tayyorlovini yanada sifatli va samarali tashkil etish, pedagogik faoliyatni yangilash hamda muassasada amalga oshirilayotgan yangi dasturlarni joriy etish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rahbariyati tomonidan Yuldoshev Fozil Turopovichga "Moliya, pul muomalasiva kredit" ixtisosligi bo'yicha dotsenti, Bozorov Ruslan Xamdovichga Iqtisodiyot fanlari doktori, Saitov Suxrob Djumaydillayevichga Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Adinayev Xidir Abdullayevichga Kimyo fanlari doktori ilmiy darajasi berilganligi munosabati bilan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.



Namangan davlat texnika universitetida 27-28 iyun kunlari bo‘lib o‘tayotgan “Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy seminar va innovatsiyalar bo‘yicha ustivor vazifalar” mavzusidagi o‘quv seminari bo‘lib o‘tdi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti prorektori R.Shukurov ham faol ishtirok etmoqda.



Indoneziya delegatsiyasi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurdi. Indoneziyaning Pendidikan universiteti UPI Cibiry Kampusi direktori Deni Darmavan hamda professor Neni Herlina institutimizga tashrif buyurib, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Tashrif davomida ikki tomonlama hamkorlik imkoniyatlari, ilmiy va ta’lim sohasidagi istiqbolli yo‘nalishlar muhokama qilindi. Shu bilan birga, yangi hamkorlik aloqalarini kengaytirish bo‘yicha kelgusidagi rejalar belgilandi.



Said otaliq madrasasi — bu tarix va kelajakni bog‘lovchi ko‘prik, bu yerda yuksak ma‘rifat nurini yoygan ustozlar va bilimga chanqoq yoshlar birlashgan. Madrasaning devorlari orasida olimlik va sabr-toqat tarannumi yashaydi, ularning har bir so‘zi va harakati avlodlarga ibrat bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogika fakulteti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida professor-o‘qituvchilari ushbu ochiq osmon ostidagi muzeyda bo‘lib, o‘tmishga sayohat qildilar. O‘lkamizning muqaddas qadamjosi haqida tarixiy ma‘lumotlar berib, o‘z davrida diniy va dunyoviy ilmlar mukammal o‘rgatilganligini ta’kidladilar.



“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti tomonidan talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish va ularning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida “Mushoira kechasi” tashkil qilindi. Mazkur tadbirda fakultet talabalari she‘riyatga bo‘lgan mehrlarini namoyish etib, o‘zlari yozgan she‘rlar va mashhur adiblar ijodidan parchalarni badiiy o‘qib eshittirishdi. Samimiy va iliq muhitda o‘tgan mushoira kechasi ishtirokchilarga unutilmas taassurotlar ulashdi hamda yoshlarni kitobxonlik va ijodga chorlovchi muhim madaniy tashabbus sifatida e‘tirof etildi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Axborot texnologiyalari kafedrasini o'qituvchisi Jumayev Ilhom IT sohasidagi yirik va nufuzli tadbirda DTPI nomidan ishtirok etdi. Tadbirda, Raqamli texnologiyalar vaziri, IT-Park, Uzum, TBC Bank, Mohirdev rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va IT mutaxassislari qatnashdi.uz

Roadshow doirasida O'zbekiston bo'ylab amalga oshirilgan ishlar, IT ekotizimi rivoji va raqamli kelajak haqida fikr almashildi. Ko'plab IT kompaniyalar bilan hamkorlik yuzasidan muzokaralar olib borildi, kelajakdagi loyihalar bo'yicha rejalar tuzildi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi markaziy apparati hamda barcha oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va mas'ul xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 16-yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida investitsiyalarni jalb qilish va eksport hajmini oshirish bo'yicha berilgan topshiriqlar ijrosiga bag'ishlangan iqtisodiy o'qish dasturi doirasida onlayn va oflayn shaklda seminar-trening o'tkazildi.

Seminar-treningda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti prorektorlari va bo'lim boshliqlari ZOOM dasturi orqali ishtirok etishdi.



“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida, talaba-yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni iqtidorini va istedodini yuzaga chiqarish hamda rag'batlantirish maqsadida, 30-iyun — Yoshlar kuni munosabati bilan rasmlar tanlovi bo'lib o'tdi.



DTPI o'quv ishlari bo'yicha prorektori U. Bo'taev, rektor maslahatchisi U.Normurodov, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i D.Shukurov, Magistratura bo'limi boshlig'i Sh.Mahmudovlar ishtirokida magistralar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda o'quv jarayonlariga oid yangiliklar, yutuqlar hamda mavjud kamchiliklar muhokama

qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Magistratura nizomi”ning VI-bobi (Mavzuni tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash), VII-bobi (Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar) hamda VIII-bobi (Dastlabki va rasmiy himoyani o'tkazish tartibi) bo'yicha prorektor U.Bo'taev tomonidan atroflicha tushuntirishlar berildi. Bunday uchrashuvlar magistrantlarning bilim va faolligini oshirishda, ularning ilmiy izlanishlarini samarali yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida xalqaro hamkorlik doirasida talabalarga chet elda kasbiy tajriba orttirish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ayni damda institutimiz talabarlari Germaniyada Work and Travel dasturi asosida amaliyot o'tashayotganlari juda quvonarli. Ushbu dastur bo'yicha hozirda Filologiya fakulteti "Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili" ta'lim yo'nalishi 305-XT-2022-guruh talabasi SODIQOV SIROJIDDIN BAXTIYOROVICH ham Germaniyada tajriba almashmoqda. Work and Travel — bu yoshlar uchun xorijiy til muhitida ishlash, yashash, dunyoqarashini kengaytirish va kasbiy ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini beruvchi xalqaro dasturdir.

Denov shahar "Yoshlar saylgoh"ida "30-iyun — Yoshlar kuni" munosabati bilan bayram tadbirlari bo'lib o'tdi. Unda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti vakillari ham faol ishtirok etishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 2025/2026 o'quv yilida kafedralar ilmiy salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi muhokamasi bo'lib o'tdi. Unda institut rektori, prorektorlar, kafedra mudirlari hamda ilmiy bo'lim mutaxassislari ishtirok etdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda “BEPRO NORMA” MCHJ o‘rtasida talabalarni milliy “1UZ buxgalteriya” dasturi bo‘yicha o‘qitish va sertifikatlashtirish masalalarida hamkorlik shartnomasi tuzildi. Tuzilgan shartnomaga asosan talabalar “1 UZ buxgalteriya” dasturida ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish uchun 2 oy muddatida

belgilangan dastur bo‘yicha institut o‘qituvchilari amaliy tartibda mashg‘ulotlar olib borishdi.



2025/2026-o‘quv yili uchun abituriyentlarni qabul qilish jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda institut rektori O.Ruziyev, prorektorlar, fakultet dekanlari hamda qabul jarayoniga mas‘ul xodimlar ishtirok etdi. Yig‘ilishda qabul jarayonining ochiqligi, shaffofligi va adolatli tashkil etilishi



bo'yicha muhim masalalar muhokama qilindi. Institut rahbariyati tomonidan abituriyentlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, hujjat topshirish va maslahat xizmatlarini takomillashtirish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berildi. Qabul komissiyasining faoliyatini yanada samarali tashkil etish, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish hamda tizimdagi har bir bosqichni nazorat qilish mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha takliflar ilgari surildi. Yig'ilish yakunida barcha ishtirokchilarga tegishli topshiriqlar yuklatildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakultetining Xorijiy til yo'nalishini muvaffaqiyatli tamomlagan Qodirova Muxlisa hozirda Janubiy Koreya Respublikasining Seul shahrida joylashgan Joongbu universitetining "International Trading" (Xalqaro savdo) yo'nalishi bo'yicha magistratura bosqichi 1-kurs talabasi sifatida tahsil olmoqda.

2025/2026-o'quv yili uchun abituriyentlarni qabul qilish jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko'rish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi Surxondaryo viloyati bo'limi boshlig'i Karimov Yoqub Ziyodullayevich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida u abituriyentlarni test sinovlari asosida qabul qilish uchun ajratilgan binolarning holati, zaruriy texnik vositalar bilan ta'minlanish darajasi hamda xavfsizlik choralari ko'rilganligini joyida o'rgandi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan “Dolzarb 90 kunlik” doirasida talabalar uchun qiziqarli va amaliy yo‘nalishga ega seminar-trening mashg‘uloti o‘tkazildi. Seminar “Lavanda o‘simligi ekstraktini ajratib olish” mavzusiga

bag‘ishlandi. Unda talabalar yangi texnologiyalar va jihozlardan foydalangan holda ekstrakt ajratib olish, hamda kimyoviy tarkibini tahlil qilish bo‘yicha muhim bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi.

“Dolzarb 90 kun” dasturi doirasida, yozgi ta‘til vaqtida talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yetakchilari tashabbusi bilan Istiqlol mahalla fuqarolar yig‘ini yoshlari hamkorligida kibersport musobaqalari tashkil etildi. Qizg‘in va murosasiz ruhda o‘tgan musobaqalar yoshlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ularning texnologik savodxonligini oshirish hamda jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Musobaqa yakunida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoalar keyingi bosqichga yo‘llanmani qo‘lga kiritishdi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Axborot texnologiyalari” kafedrasining professor-o‘qituvchilari tomonidan yozgi ta’til davrida talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularning kompyuter savodxonligini oshirish maqsadida 3D Modellashtirish to‘garagi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu to‘garak

davomida talabalar zamonaviy texnologiyalar, 3D modellashtirish asoslari hamda ilmiy va texnologik loyihalar ustida ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.



Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tashkil etilgan “Axborot xizmati faoliyatida zamonaviy tendensiyalar: raqamli texnologiyalar, PR instrumentlar va sun’iy intellekt” mavzusidagi qisqa muddatli malaka oshirish kurslari o‘z yakuniga yetdi. Unda ishtirok etgan DTPI Axborot xizmati rahbari Sharofitdin

Shamsutdinov ham sertifikatni Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo‘ng‘irotboy Sharipovdan qabul qilib oldi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda mahallalar o‘rtasida sportning mini futbol turi bo‘yicha muntazam ravishda musobaqalar o‘tkazilmoqda.



2025/2026 o'quv yilida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida alohida iqtidor talab etiladigan jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishiga 275 nafar, musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishiga 49 nafar abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon topshidi.



Viloyat hokimi U.Qosimovning 2025 yil 9 iyul kuni viloyatdagi tashkilot va korxonalar rahbarlari bilan o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan Denov TPIning ishsiz bitiruvchi talabalari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda tuman hokimi o'rinbosari F.Rasulov, tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi

mudiri U.Xojayev, tuman adliya bo'limi mutaxassisi A.Choriyev, tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi mutaxassisi A.Mirzayev, tumandagi umumta'lim maktablari direktorlari ishtirok etdilar.

2025/2026 o'quv yilida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida



alohida iqtidor talab etiladigan ta'lim yo'nalishlariga qabul jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov joriy yilda oliy ta'limni muvaffaqiyatli yakunlagan, faolligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turgan yoshlar bilan uchrashdi. Muloqotda yoshlarning fikr va takliflari tinglandi, ularni amalga oshirish, bitiruvchilarni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash masalalari muhokama qilindi. Bildirilgan takliflar asosida aniq vazifalar belgilandi. Uchrashuv yakunida hokim o'rinbosarlari, boshqarma va tashkilot rahbarlariga bitiruvchi yoshlar biriktirilib, ularning bandligini ta'minlash vazifasi yuklatildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari" kafedrasida tashkil etilgan "BIOLOGIYA" fani kursi yozgi ta'til davrida ham o'z faoliyatini olib borildi. Dars jarayonlari Islom taraqqiyot banki xalqaro grand

loyihasi doirasida olib keltirilgan zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlaridan foydalanilgan holda olib borildi.

DTPIda "Dolzarb 90 kun" dasturi doirasida Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasida professor-o'qituvchilari tashabbusi bilan "Karyera kuni" – imkoniyatlar kuni" shiori ostida "Jarqo'rg'on tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi bo'sh ish o'rinlari uchun mehnat yarmarkasida faol ishtirok etishdi. "Karyera kuni" ning o'tkazilishidan asosiy maqsad ham



bitiruvchi talabalar bandligini ta'minlash, ularni amaliy ish faoliyatiga tayyorlash, ishga joylashishlariga ko'maklashish va bo'lajak mutaxassislar sifatida mehnat bozoriga integratsiyasini yengillashtirishdan iborat bo'ldi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakultetida "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida "Bir haftada - bir kitob" loyihasi asosida adabiy davra suhbatini tashkil etildi.



Uzun tumani 2-son politexnikumida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti bilan hamkorlikda qandolatchilik klasteri tashkil etildi. Ushbu loyiha dual ta'lim tizimi doirasida amalga oshirilmoqda. Mazkur loyihaning umumiy qiymati 1 milliard 900 million so'mni tashkil etadi.

Qandolatchilik klasterining ochilish marosimida Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rahbariyati va soha mutaxassislari ishtirok etdilar. Loyiha doirasida politexnikum o'quvchilari va mahalladagi xotin-qizlarga qandolatchilik sohasi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar beriladi. Klaster zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan bo'lib, darslar tajribali, o'z kasbining ustalari hisoblangan murabbiylar tomonidan olib boriladi. Klaster faoliyati yoshlar va ayollarni bandlik bilan ta'minlash, ularni kasbga o'rgatish orqali ijtimoiy himoyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu

bilan birga, ishlab chiqariladigan qandolat mahsulotlari orqali mahalliy bozorda sifatli mahsulotlar taklifi ortadi. Bu esa qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish va hududiy iqtisodiyotni faollashtirishga turtki beradi. Kelgusida ushbu loyiha asosida kichik biznes subyektlarini shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash ham rejalashtirilgan.



2025/2026-o‘quv yili uchun abituriyentlarni qabul qilish jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas‘ul xodimi U.Alimardonov Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida u abituriyentlarni test sinovlari asosida qabul qilish uchun ajratilgan binolarning holati, zaruriy texnik vositalar bilan ta‘minlanish darajasi hamda xavfsizlik choralari ko‘rilganligini joyida o‘rgandi. Mazkur tashrif davomida test sinovlarini yuqori saviyada va shaffof o‘tkazish maqsadida binolardagi sharoitlar, jumladan, videokuzatuv tizimlari, kompyuter va boshqa jihozlarning tayyorgarlik holati alohida ko‘rib chiqildi.



14-iyul kuni yurtimiz bo‘ylab barcha oliy va professional ta‘lim muassasalariga 2025-2026 o‘quv yili uchun kirish test sinovlari boshlandi. Test sinovlari ikki smenada tashkil etilib, ularning shaffof, xolis va adolatli tarzda o‘tishini ta‘minlash maqsadida qat‘iy nazorat choralariga amal qilinmoqda. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham test jarayonlari yuqori darajada tashkil etilib, abituriyentlar uchun barcha qulay sharoitlar yaratilgan.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Jismoniy tarbiya va sport kafedrasidan "Dolzarb 90 kun" doirasida "Qovunli soy" mahallasi, "Yangi xazarbog‘" mahallasi hamda DTPI hamkorligida yoshlar o‘rtasida Stritbol sport turi bo‘yicha o‘rtoqlik uchrashuvi o‘tkazildi. Mazkur tashabbus yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish, ularning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, mashg‘ulotlarda mahalla yoshlari faol va ishtiyoq bilan qatnashmoqda.



Qabul-2025 testida farzandlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida kelgan ota-onalari va yaqin qarindoshlari uchun Dolzarb 90 kun loyihasi doirasida tadbir bo‘lib o‘tdi. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti qoshidagi Denov dostonchilik maktabi rahbari Shuhrat medali sohibi Mamatmurotov Ravshan baxshi ijrosida dostonchilik kechasi tashkil etildi. Ushbu kechaning maqsadi, avvalo, abituriyentlarning ota-onalari va yaqin qarindoshlariga dostonchilik san'atining go'zalligi va muhimligini e'tirof etishdir. Dostonlar, qadimiy an'analar va madaniyatimizni rivoyat etish,

bugungi kunda o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitda yosh avlodni o'z ildizlariga qaytarishda muhim rol o'ynaydi. Tadbir davomida dostonlar, samimiy suhbatlar va ijodiy chiqishlar o'tkazilganda, ishtirokchilar tasavvur va ruhiyatlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ldilar



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori boshchiligidagi iqtidorli talabalaridan tashkil topgan jamoa Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalari universitetida tashkil etilgan san'at ko'rgazmasiga o'z ijodiy ishlari bilan tashrif buyurishdi. Bu yerda talabalarning ijodiy ishlari namoyish etildi. Ko'rgazmada yoshlarga xos tasavvur va estetik qarashlar mujassam bo'lgan asarlar ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Har bir burchakda talabalar o'z ishlari haqida qisqacha ma'lumot berib, barcha yig'ilganlarda san'atga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rahbariyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi bosh mutaxassisi Xurshid Eshovlar mamlakatimiz OTMLari, qolaversa, DTPIda talabalarning puxta bilim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar haqida tushunchalar berishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Magistratura bo'limi va Filologiya fakulteti 2025-yil bitiruvchilarini tantanali va unutilmas bitiruv diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 2024/2025 o'quv yilida tahsil olgan 7962 nafar yoshlarning 2005 nafari bitiruvchi talabalar. Filologiya fakultetida bugungi kunda jami 1323 nafar talabalar tahsil olayotgan bo'lib, jshundan 363 nafari bitiruvchi talabalar hisoblanadi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakultetining professor-o'qituvchilari va talabalari yozgi ta'tilda ichki turizmi rivojlantirish uchun oila a'zolari va do'stlari bilan respublikamizning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar uyushtirmoqdalar. Bu sayohatlar davomida talaba-yoshlarimiz mahalliy

aholi va mas'ul xodimlardan tarixiy obidalar va manzilgohlarning tarixidan qiziqarli ma'lumotlar olishdi.

Abituriyentlarning test sinov jarayonlaridagi ishtiroki, yaratilgan sharoitlar bilan tanishish maqsadida DTPI rahbariyati 2-binoga tashrif buyurdi. Jarayonda mamlakatimiz OTMlari, qolaversa, DTPIda talabalarning puxta bilim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar, imtihon jarayonlaridagi holatlar haqida abituriyentlarning ota-onalariga ma'lumot berishdi. O'zaro muloqot



jarayonida ota-onalar bilan fikr almashilib, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bugungi kunda turli sohalarda erishilgan yutuqlari haqida ma'lumotlar berib o'tildi.

Respublika miqyosida o'tkazilayotgan "Akademik harakatchanlik"ni rag'batlantirishga qaratilgan ilmiy loyihalar tanlovida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar" kafedrasida professor-o'qituvchilari yuksak natijalarga erishdilar.

Mazkur tanlovda kafedra dotsenti, Dilmurod Shukurov "Yarimo'tkazgich pigment materiallar sintezi va ularni yangi avlod quyosh elementlarini olishda

qo‘llash” mavzusidagi ilmiy ishlanmasi bilan faol ishtirok etdi va loyiha g‘olibi bo‘ldi. Shuningdek, kafedraning yana bir faol izlanuvchisi — katta o‘qituvchi Dilshod Yo‘llyev “Tarkibiga magnetit zarrachalari kiritilgan PVS yordamida oqova suvlarni tozalash” mavzusidagi innovatsion loyihasi bilan muvaffaqiyatli qatnashib, g‘oliblikni qo‘lga kiritdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Dolzarb 90 kun” dasturi doirasida Oltinsoy tumani "Besh bola pahlavon" mahalla fuqarolari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va ularni sportga jalb etish maqsadida mini futbol musobaqasi tashkil etildi. Ushbu musobaqa aholi o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish,

jamoaviylikni kuchaytirish va bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 17-yanvardagi “Oliy ta‘lim tashkilotlarida abituriyentlar, hamda kambag‘al va kam ta‘minlangan oilalarning bitiruvchi sinfdagi farzandlari uchun tayyorlov kurslarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 18-sonli buyrug‘i ijrosini



ta‘minlash hamda yoshlarni tayyorlov kurslari orqali umumta‘lim fanlari bo‘yicha bilimlarini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rahbariyati tomonidan Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasida “BIOLOGIYA” fani kursi tashkil etilib, kafedraning malakali o‘qituvchisi A.Bolliyev mas‘ul qilib

biriktirilgan edi. Denov tumanidagi 22-maktabning 11-sinf o‘quvchisi Murodqulova Zofina Farxod qizi kursning dars mashg‘ulotlarida faol qatnashib, milliy sertifikatlariga ega bo‘lib, muddatidan oldin talaba bo‘lish baxtiga musharraf bo‘ldi. Institut rahbariyati va jamoasi bu yutuq bilan

Murodqulova Zofinani Ota-onasini va yaqin qarindoshlarini tabriklab, kelajakdagi ishlariga omad tilashdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabalarining xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirish, ularning amaliy ko'nikmalarini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish maqsadida bir qator yoshlar "Work and Travel" dasturi doirasida Germaniya davlatida bo'lib turibdi. Mazkur dastur orqali talabalar Germaniyaning turli shaharlarida vaqtinchalik ish faoliyati olib borish barobarida, nemis tili muhitida muloqot qilish, yangi madaniyat va tajriba bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.



O'zbekistonda yozgi ta'til nafaqat dam olish mavsumi, balki yoshlarning salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni har tomonlama rivojlantirish uchun muhim davr sanaladi. Prezidentimiz tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan "Dolzarb 90 kun" loyihasi doirasida talaba va mahalla yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlariga keng jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Mazkur loyiha doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti tyutori I.Xayrullayev tashabbusi bilan talaba va mahalla yoshlari ishtirokida futbol jamoasi shakllantirildi. Jamoa hozirda Denov futbol ligasida faol

qatnashib, yoshlarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, jamoaviylik va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hamda nomli davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan iqtidorli talabalar bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuv davomida stipendiya dasturlarining ahamiyati, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirish jarayonlari hamda tanlovda muvaffaqiyat qozonish bo‘yicha tavsiyalar berildi. Mazkur uchrashuv talabalarda katta ruhiy ko‘tarinkilik yaratib, ularning maqsad sari yanada qat‘iyat bilan intilishiga turtki bo‘ldi. DTPI rahbariyati iqtidorli yoshlarni doim qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini bildirar ekan, ular ilm-fan va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishlariga ishonch bildirdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi va nomli davlat stipendiyalariga hujjat topshirgan talabalar uchun tanlovning 1-institut bosqichi bo‘lib o‘tdi. Tanlovda “O‘zbekiston Respublikasi va nomli davlat stipendiyalar”ga talabgor talabalar nizomda belgilangan tartibda

O‘zbekiston tarixi va ingliz tili fanidan test sinovlarini topshirishdi. Sinovlar komissiya a‘zolari tomonidan adolatli va shaffof tarzda o‘tkazildi.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida yozgi ta’ildagi bo’sh vaqtlarini mazmunli o’tkazish maqsadida talabalarni "Tojik ta’lim va madaniyat markazi"ga taklif etishdi. Talabalar markazning faoliyatiga doir ma’lumotlar bilan tanishishdi hamda o‘zini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.



Pedagogika fakulteti sirtqi talim shakli Boshlang’ich ta’lim sport tarbiyaviy ish yo’nalishi hamda Maktabgacha ta’lim yo’nalishi bitiruvchi talabalariga diplom topshish marosimi bo’lib o’tdi.



Xalqlar do’stligi kuni - Turli millat va elatlar o’rtasidagi do’stlik, hamjihatlik, o’zaro hurmat va totuvlikni nishonlaydigan bayramdir. U insonlar o’rtasida tinchlikni mustahkamlash, millatlararo birdamlikni targ’ib qilish maqsadida tashkil etilgan kun hisoblanadi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakultetida 30-iyul Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan liboslar ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirdan ko'zlangan maqsad millatlararo birdamlikni namoyon qilishdir

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-61-son qarori, hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-iyuldagi 38-son majlisi bayonida "TalabaExpo" kasb ko'rgazmasini tashkil etish vazifasi belgilangan. Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabalasi Jabborova Shodiyona Andijon davlat universitetida bo'lib o'tayotgan ko'rgazmada ishtirok etdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi tashabbusi bilan 2025-yil 4-avgust kuni Shoʻrchi, Oltinsoy, Denov tumanlaridagi mahallalarida istiqomat qiluvchi mahalla xotin-qizlariga “Drug Dealer” instaseriali namoyish etildi.



Bu yoshlar oʻrtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish hamda sogʻlom turmush tarzini keng targʻib qilishga qaratilgan tarbiyaviy ahamiyatga ega psixotrop dorilarning yoshlar orasida keng tarqalishi va uning salbiy oqibatlarini yoritib beruvchi instaserial.



2025-yil iyun oyidan boshlab, rus tili kafedrasida Patris Lumub nomli Rossiya Xalqlar doʻstligi universiteti bilan hamkorlikda til bilish darajasini aniqlovchi sertifikatlash Markazi oʻz faoliyatini olib bormoqda.

2025-yil 7-avgust kuni sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan rus tili oʻqituvchilariga C1 xorijiy sertifikatlarni topshirish tadbiri boʻlib oʻtdi. Tadbirda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektor R.Shukurov, Filologiya fakulteti dekani M.Musurmankulova, Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani M.Toshboboev, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy - pedagog kadrlar tayyorlash sektori rahbari B.Joʻraev, Xalqaro boʻlim boshligʻi J.Ergashev, Rus



tili va adabiyoti kafedrasida oʻqituvchi S.Jabborov, Oʻzga tilli guruhlarda rus tili taʼlim yoʻnalishi talabasi R.Ostanov, Rus tili va adabiyoti kafedrasida mudiri J.Chorievlar va sertifikat sohiblari qatnashdilar.

Talabalarni turar joy bilan ta'minlashda navbatlar va sarsongarchiliklarning oldini olish, talabalarning turar joyisiz qolishlari ehtimolini bartaraf etish, ularni munosib va xavfsiz yashash sharoiti bilan ta'minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida maxsus markaz faoliyati yo'lga qo'yildi.



Markaz talabalarga quyidagi masalalarda ko'mak beradi: institut yotoqxonasiga joylashish, o'quv muassasasiga yaqin joydagi ijara xonadonlarini topish, turar joy bilan bog'liq muammolarni hal etish. Ayni paytda institut 950 o'ringa mo'ljallangan 1-2-3-4-son TTJ binolari mavjud. Shuningdek, markaz 300 ta yashil va sariq hududlarda joylashgan, o'quv muassasasiga yaqin va qulay infratuzilmaga ega ijara xonadonlarini talabalarga taklif etadi.




Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari" kafedrasi qoshida tashkil etilgan **"BIOLOGIYA"** fani kursida yozgi ta'til davrida Biologiya ta'lim yo'nalishi talabarlari Biologiya fanidan milliy sertifikat imtihonlariga qizg'in tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Milliy sertifikat quyidagi imtiyozlarni beradi!



Agar umumta'lim maktabi o'qituvchisi milliy sertifikat imtihonida 80% yoki undan yuqori natijani qo'lga kiritrsa, oylik maoshiga 20% ustama qo'shib beriladi! Agar abituriyent 86% va undan yuqori natijani qo'lga kiritrsa, tegishli fanidan kirish imtihonlarida maksimal ball beriladi.

2019-yilda Belgiya Qirolligi, Antwerp Universitetida “Plazma tibbiyoti uchun molekulyar darajada modellashtirish” mavzusida PhD ilmiy darajasini olgan, biofizikaviy va biokimyoviy jarayonlarni kompyuterda modellashtirish bo‘yicha



yuksak ilmiy salohiyatga ega, hozirda “TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti qoshidagi “Fundamental va Amaliy tadqiqot instituti” direktori – Dr. Jamoliddin Razzokov ishtirokida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

“Ilm-fan taraqqiyotida sun‘iy intellektning o‘rni” mavzusida o‘tkazilgan seminarda magistrlar, doktorantlar va professor-o‘qituvchilar ishtirok etdilar. Tadbir davomida sun‘iy intellektning ilmiy izlanishlar va innovatsion ishlanmalarni rivojlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, kelajak istiqbollari yuzasidan ilmiy va amaliy tavsiyalar berildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti va “TIQXMMI” Milliy Tadqiqot Universiteti bilan memorandum imzolandi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti “Biologiya va qishloq xo‘jalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasida tashkil etilgan “**BIOLOGIYA**” fani kursida Denov tumanidagi 22-maktabning bitiruvchi sinf o‘quvchisi Murodqulova Zofina Farxod qizi kursning dars mashg‘ulotlarida faol qatnashib, milliy sertifikatlarga ega bo‘ldi. Mana bugun Toshkent tibbiyot universiteti Termiz filiali “Pediatriya ishi” yo‘nalishiga Davlat granti asosida talabalikka tavsiya etildi.



Institut rahbariyati va jamoasi Murodqulova Zofinani, uning ota-onasi

hamda yaqinlarini ushbu yutuq bilan samimiy muborakbod etar ekan, kelgusida u Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti va xalq salomatligini mustahkamlash yo‘lida fidoyilik bilan xizmat qiladigan, malakali shifokor bo‘lib yetishishiga ishonch bildiradi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti delegatsiyasi Hindistonda



2025-yil 20-avgust kuni Delegatsiya Hindistonning Mumbai shahrida joylashgan Kelkar ilmiy tadqiqot markaziga rasmiy tashrif buyurdi. U yerda ilmiy-tadqiqot bazalari va laboratoriyalar bilan yaqindan tanishildi hamda ikki tomonlama hamkorlik memorandumi (MoU) imzolandi.



Ushbu memorandum doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida xushbo‘y hidli o‘simliklardan, jumladan, lavanda o‘simligidan xushbo‘y hidli parfyumeriyalarni qo‘shma ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqildi va imzolandi.

Mazkur hamkorlik Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ilmiy-tadqiqot ishlari va amaliy loyihalarni yangi bosqichga olib chiqishi ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dunyo reytingida Top - 300 talikka kirivchi Hindistonning eng nufuzli instituti bilan memorandum imzoladi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti delegatsiyasi Hindistonning **“INDIAN INSTITUTE OF TECHNOLOGY BOMBAY”** nomli institutga tashrif buyurdi.

Institutdagi ilmiy-tadqiqot bazalari va laboratoriyalar bilan tanishildi hamda ikki tomonlama hamkorlik memorandumi imzolandi. **“INDIAN INSTITUTE OF TECHNOLOGY BOMBAY”** instituti **“QS World university Rankings World-2025”** Top reytingida 118-o‘rinda joylashgan.

Bunday hamkorlik aloqalari orqali kelajakda professor – o‘qituvchilar, yosh tadqiqotchi olimlar hamda talabalarimiz ushbu institut bilan o‘quv va ilmiy tadqiqot borasida tajriba almashish imkoniyatiga, xalqaro va mahalliy reytinglarda yuqori o‘rinlardan joy olishiga hamda ta’lim sifatini har tamonloma yuqori darajaga oshirishga zamin bo‘ladi.

Hindistonning Raipur shahrida joylashgan **“Indira Gandhi Krishi Vishwavidyalaya”** qishloq xo‘jaligi universitetida bo‘lib o‘tgan **“International Education and Research Collaboration in Agroculture”** nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasi ishtirok etishdi.

Universitetning ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan sholi yetishtirishga ixtisoslashtirilgan ilmiy tadqiqot markazida guruchning yangi yaratilgan navlarini ko‘rishdi va ma’lumot olishdi.

Institutimiz professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari va talabalari ushbu universitetga kelib, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishlari hamda amaliyot, stajirovka va malaka oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.



2025-yil 25-avgust kuni Delegatsiyamiz a'zolari Hindistonning poytaxti New Delhi shahrida joylashgan "Management Education and Research Institute" (MERI) nomli xususiy institutga tashrif buyurdi.

MERI instituti rektori prof. Lalit Aggarwal institutimiz vakillarini iliqlik bilan kutib oldi va MERI institutidagi yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishtirdi.



MERI instituti menejment va boshqaruv, IT va moliya yo'nalishlari bo'yicha katta tajribaga ega ekanligini alohida qayd etish mumkin. Shu yo'nalishlar bo'yicha onlayn o'quv kurslarini tashkil etish borasida kelishuvga erishildi va ikki institut o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi.

Meri institutining o'zining:

- high-tech uslubida jihozlangan axborot-resurs markazi,
- video darslar va teleradio materiallari tayyorlanadigan ovoz yozish studiyasi,
- xalqaro talabalarga mo'ljallangan innovatsion ta'lim markazi,
- ilmiy ishlanmalarni patentlash markazi,
- ijodiy faoliyat uchun jihozlangan amaliy laboratoriyalari,
- zamonaviy IT-infrastruktura va yuqori tezlikdagi internet bilan ta'minlangan kompyuter laboratoriyalari,
- xalqaro universitetlar bilan 30 dan ortiq hamkorlik aloqalari,
- talabalar uchun startup va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi inkubatsiya markazi,
- KPMG, Grant Thornton, Harvard Publishing kabi yirik tashkilotlar bilan qo'shma dasturlari,

- bitiruvchilarining Amazon, TCS, Wipro, ICICI Bank, Ernst & Young, Infosys kabi yetakchi kompaniyalarda faoliyat olib borishi bilan delegatsiya a'zolarida katta qiziqish uyg'otdi.



MERI instituti hududida barpo etilgan yashil kampus, zamonaviy talabalar yotoqxonasi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi sport majmuasi va madaniy tadbirlar zali institut hayotida alohida o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan **“Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida”**gi Nizom talablariga muvofiq, institutda 2025-yil 4-choragi uchun mustaqil izlanuvchilikga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni o'tkazildi.



Suhbat yakunlariga ko'ra, suhbat komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar mustaqil izlanuvchilikga qabul qilindi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Dolzarb 90 kun”

Mazkur tashabbus doirasida “Davlat dasturlari loyihalarida tajriba natijalarining o'rni” mavzusida ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi. Seminarda umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasini mudiri Sh. Ismatov, kafedra professor-

o'qituvchilari X.Kulbashova va Sh.Boysariyev, shuningdek, Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'limi boshlig'i M.Jurayev ishtirok etdi.



Loyihalar tanlovida muvaffaqiyatli qatnashish uchun zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, ularni davlat dasturlariga integratsiya qilish mexanizmlari hamda innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish jarayonlari atroflicha muhokama qilindi. Mutaxassislar tomonidan olingan ilmiy natijalarni qay darajada samarali tatbiq etish mumkinligi yuzasidan tushuntirish va tavsiyalar berildi.

“Obod va fayzli mahalla – yurt ko'rki” shiori ostida ezgu tashabbus

2025-yil 22–23-avgust kunlari yurtimiz bo'ylab keng miqyosda o'tkazilgan umumxalq xayriya hashari doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham obodonlashtirish ishlari boshlandi. Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor Tursunov Dilmurat Xolmurotovich boshchiligida institut xodimlari bir yoqadan bosh chiqarib, obodonlashtirish ishlariga kirishdilar.

Bu hasharda faqat mashaqqatli mehnat emas, balki mehr, birdamlik, insoniylik va fidoyilik ham mujassam. Institut hovlisi va atrofi supurilib, daraxtlar sayqal topdi, gullar ekildi, yashil makonlar charog'on bo'ldi. Bu kabi ezgu amallar nafaqat atrof-muhitni obod qiladi, balki qalblarni ham poklab, mahallamiz va yurtdoshlarimizga fayz baxsh etadi.



2025-yil 26- avgust kuni Termiz davlat universitetining Ilmiy tadqiqotlar markazi binosida INNOWEEK-2025 haftaligi doirasida “Ilmiy ishlanmalar, startap loyihalar va innovatsion mahsulotlar ko‘rgazmasi” o‘z faoliyatini boshladi. Ikki kun davom etadigan ushbu ko‘rgazmada nafaqat ilmiy izlanishlar, balki yangi g‘oyalar, kreativ yondashuvlar va amaliy natijalar taqdim etildi.



Ko‘rgazmada Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i M.Jo‘rayev, “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida dotsenti X.Kulbasheva va “Umumiy fizika va qurilish” kafedrasida o‘qituvchisi N.Sanayevalar faol ishtirok etib, professor-o‘qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning ilmiy ishlanmalari hamda innovatsion g‘oyalarini keng jamoatchilik e‘tiboriga taqdim etishdi.



“Dolzarb 90 kun” Sport musobaqalari tashkil etildi.

2025-yil 26-avgust kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida professor-o‘qituvchilar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jamoa ruhini mustahkamlash va faol dam olishni yo‘lga qo‘yish maqsadida “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida sport musobaqalari tashkil etildi.

Musobaqalar shaxmat, shashka va stol tennisi turlari bo‘yicha bo‘lib o‘tdi. Unda fakultetning professor-o‘qituvchilari faol ishtirok etib, o‘zlarining sportga bo‘lgan qiziqishlari, zakovati va chaqqonligini namoyon etdilar.



2025-yil 27-avgust kuni Denov tumani markazida joylashgan “Eko bog”da Denov tumani hokimligi hamda Denov tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan hamkorlikda bo‘lib o‘tgan “Mehnat bozori yarmarkasi”da Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Marketing va talabalar” amaliyoti bo‘limi boshlig‘i D.Bekmurodov va Filologiya fakulteti dekani M.Musurmankulova, mas‘ullar, talabalar faol qatnashishdi.



“Dolzarb 90 kun” Voleybol musobaqasi o‘tkazildi.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari hamda xodimlari o‘rtasida sportning voleybol turi bo‘yicha o‘rtoqlik uchrashuvlari tashkil etildi.

Mazkur sport uchrashuvlari institut jamoasi a‘zolari o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jamoaviylikni mustahkamlash va sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish maqsadida o‘tkazildi. Bellashuvlar do‘stona muhitda, sportga xos halollik va o‘zaro hurmat ruhida bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida ishtirokchilar o‘zlarining sportga bo‘lgan mehrini, jamoaviy harakatdagi uyg‘unlikni va kuch-g‘ayratini namoyon etishdi.



2025-yil 27-avgust kuni Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturi (BMTTD) tashkiloti tomonidan Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish va kasbiy tayyorlash bo‘yicha Surxondaryo viloyatining salohiyatini oshirish loyihasi doirasida Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markazining biznes g‘oyani rivojlantirish “Startap” loyiha bo‘yicha tahsil olgan 50 nafar tinglovchilar yangi biznes g‘oyani rivojlantirish, amalga oshirish va boshqarish, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan 3 oylik o‘quv kursini tamomladi.



Tadbirda BMTTD ijtimoiy va media ishlari bo‘yicha loyiha menejeri yordamchisi M.Qudratov hamda loyihada uslubiy hamkorlik qilgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasi va “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida o‘qituvchisi M.Ashurova ham faol ishtirok etishdi. O‘quv kursini muvoffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga sertifikatlar topshirildi.





2025-yil 28-avgust kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichida tahsil olayotgan 3-kurs tayanch doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy ishlari mutaxassislar tomonidan yaqindan ko'rib chiqildi. Ushbu yig'ilishda har bir doktorant va izlanuvchining ilmiy izlanishlari, ularning mavzulari, ishning bosqichlari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilindi.



Mutaxassislar tomonidan berilgan baholar va fikr-mulohazalar asosida doktorantlarning ilmiy ishlarini yanada takomillashtirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar aniqlab olindi. Shuningdek, mustaqil izlanuvchilarga ilmiy ishlarini samarali olib borish uchun qo'shimcha ilmiy manbalarni o'rganish, xalqaro ilmiy

anjumanlarda ishtirok etish va ilmiy maqolalar tayyorlash bo'yicha tavsiyalar berildi.

2025-yil 29-avgust kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari" kafedrasida magistrleri, ilmiy izlanuvchi tadqiqotchilari hamda professor-o'qituvchilariga Toshkent davlat agrar universiteti "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash" kafedrasida dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD) Ochilov Musirmon Abduraximovich tomonidan Shvetsariya hukumati tomonidan moliyalashtirilgan Xalqaro savdo markazi (ITC) ning, "Sharqda savdoni rivojlantirish: O'zbekiston loyihasi doirasida eksportga yo'naltirilgan quritilgan mevalarni ishlab chiqarish va qayta ishlash" mavzusida seminar trening tashkil etildi.





Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida navbatdagi kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 34 yilligini tantanali ravishda kutib olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi, 2025/2026-o'quv yiliga tayyorgarlik holati, 2025/2026-o'quv yili uchun 1-kurs o'quv rejalari, ishchi o'quv rejalari, o'quv dasturlari, sillabuslari va professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarini tasdiqlash hamda ilmiy darajasi bo'lmagan o'qituvchilarga ma'ruza soatlarini ajratish haqidagi, institutda tahsil olayotgan doktorant, tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy rahbar yoki ilmiy konsultantlarning mehnatiga haq to'lash masalasi hamda institut fakultetlari va kafedralarida 2025-yil kompleks rivojlantirish chora-tadbirlar dasturining I-, II- va III-choraklar kesimida vazifalar bajarilishi to'g'risidagi masalalar muhokama etildi.



2025-yil 3-sentabr kuni Mamlakatimizning barcha oliy ta'lim muassasalarida yangi 2025-2026 o'quv yili boshlandi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham 1-kursga qabul qilingan 1985 nafar yigit-qizlar ertalabdan tantanali ravishda kutib olindilar. Institutimizning 3 ta manzilida ham yangi o'quv yilining boshlanishiga oid tadbirlar bo'lib o'tdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida 4 ta fakultet va 16 ta kafedra faoliyat ko'rsatadi. 329 nafar Professor-o'qituvchilar talabalarga puxta bilim berishga shay. Institutda 3 ta o'quv binosi mavjud, 114 ta o'quv auditoriyasi, jumladan, 23 ta ma'ruza xonasi, 66 ta amaliy

masgʻulotlar, 18 ta seminar, 12 ta laboratoriya, 5 ta sport zali va stadionlar zamonaviy talablarga mos ravishda taʼmirlanib, toʻliq tayyor holatga keltirildi.

Tadbir davomida yangi oʻquv yilida fakultet safiga qoʻshilgan yoshlar qutlugʻ qadam qoʻyganlari bilan tabriklanib, ularga taʼlim olishda yuksak marralarni zabt etish tilaklari bildirildi.

“Rektor va yoshlar” uchrashuvi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Najot – taʼlimda, najot – tarbiyada, najot – bilimda” shiori ostida “Rektor va yoshlar” uchrashuvi boʻlib oʻtdi. Mazkur uchrashuvda barcha fakultet 1-kursga qabul qilingan talabalari ishtirok etdilar.



Tadbirning asosiy maqsadi – talabalarning taʼlim jarayoniga tezkor moslashuvi, shuningdek, yoshlarni maʼnaviy va ijtimoiy hayotda faol boʻlishga undashdan iborat boʻldi.



Uchrashuv davomida institut rahbariyati va professor-oʻqituvchilar talabalarga yaratilgan sharoitlar, yangi loyihalar, taʼlim jarayonidagi ustuvor vazifalar haqida atroflicha maʼlumot berdilar. Talabalar esa oʻzlarini qiziqtirgan savollarni berib, rektor va mutasaddi rahbarlardan toʻgʻridan-toʻgʻri javob oldilar.

Tadbir jarayonida yoshlarga taʼlim, fan, madaniyat va sport sohalarida erishilayotgan yutuqlar haqida ham soʻz yuritildi. Institut rektori talabalarni faol boʻlishga, tashabbuskor gʻoyalarni ilgari surishga daʼvat etdi.



Yangi o‘quv yili – yangi marralar sari dadil qadam.

2025-yil 4-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti 1-bosqich barcha guruh talabalari uchun professor-o‘qituvchilar ishtirokida **“Birinchii kurs maktabi”** tadbirlari doirasida **“Orzular kemasi”** mavzusidagi trening dasturi bo‘lib o‘tdi.

“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda” shiori ostida uchrashuvlar bo‘lib o‘tmoqda. Navbatdagi uchrashuv ham institut Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi S.Xidirov tomonidan Filologiya fakultetining 1-kursga qabul qilingan talabalari ishtirokida ochiq muloqot tarzida bo‘lib o‘tdi.



2025-yil 4-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Turkiyaning Fırat Universiteti o‘rtasida onlayn uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlik masalalari, xalqaro loyihalar, akademik almashinuv va talabalar uchun qo‘shma dasturlarni amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Mazkur uchrashuvda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tomonidan rektor O.Ruziyev, prorektor R.Shukurov va mas’ullar ishtirok etdilar. Fırat Universitetidan esa xalqaro aloqalar bo‘yicha mas’ullar hamda prorektor qatnashdi. Uchrashuv yakunida tomonlar o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashga kelishib oldilar.




2025-yil 5-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 29-avgustdagi 197-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida, 2025/2026-o‘quv yiliga puxta tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada boshlash yuzasidan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida tegishli o‘rganish ishlari olib borildi.

Vazirlik ishchi guruhi tomonidan institutning moddiy-texnika bazasi, o‘quv auditoriyalari, zamonaviy o‘quv-uslubiy vositalar bilan ta‘minlanish darajasi, talabalar turar joylari va yotoqxonalar holati, shuningdek, yangi o‘quv yilida talaba-yoshlarni joylashtirish atroflicha ko‘zdan kechirildi.

Tashrif davomida mavjud infratuzilmalarni zamon talablari asosida yanada takomillashtirish, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, talabalar uchun qulay va zamonaviy yashash sharoitlarini yaratish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Aniq va tabiiy fanlar fakultetining 1-kursga qabul qilingan talaba-qizlari bilan **“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish”** mavzusida davra suhbat bo‘lib o‘tdi. Tadbirda institut xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova, psixolog D.Xolmo‘minova, institut uchastka noziri S.Suvonova va talaba-yoshlar ishtirok etdilar.

Suhbat davomida talabalarga institut odob-axloq qoidalari, kiyinish odobi haqida ma‘lumotlar berilib, **“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish**





to'g'risida"gi qonunning mazmun mohiyati tushuntirildi. Talaba qizlarga orzu va maqsadlar hamda kelajakdagi muvaffaqiyatlar faqat o'z harakatlariga bog'liq ekanligi, shu sababli, o'z oldilariga aniq maqsad qo'yish, uni amalga oshirish uchun doimiy harakat qilish eng muhim qadamlardan biri ekanligi ta'kidlab o'tildi. Shundan so'ng institut psixologi

D.Xolmo'minova tomonidan qizlarga **"Psixolog faoliyati"** haqida tushunchalar berib o'tildi.



2025-yil 9-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida **"Xavfsiz kibermakon"** oyligi doirasida profilaktika katta inspektori O.Toshtemirov, 1-son TTJ tarbiyachi-pedagogi E.To'raev hamda **"Qalqon"** guruhi sardori E.Ortiqovlar ishtirokida talabalarga TTJ ichki tartib qoidalari tushuntirildi, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish, ijtimoiy tarmoqlardan keladigan APK viruslarni ochmaslik, onlayn qimor o'yinlarning salbiy oqibatlarini haqida tushunchalar berildi.



Talabalar xavfsizligi yuzasidan talaba qizlar va o'g'il bolalar bilan alohida-alohida davra suhbatlari olib borildi.

2025-yil 10-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida psixolog D.Xolmuminova va institut tyutorlari hamkorligida talaba-yoshlarga erta tongdan xush kayfiyat hamda ko'tarinki ruh bag'ishlash maqsadida **"Sizningcha, baxtni qanday rang bilan tasvirlash mumkin?"** mavzusida psixologik trening tashkil etildi.

Ushbu trening doirasida ishtirokchilarga ranglar psixologiyasi, emotsional ong va ijobiy tafakkur haqida qisqacha ma'lumotlar berildi. Talabalar o'z tasavvurlaridagi "baxt" tushunchasini turli ranglar orqali ifodalab, ijodiy yondashuvlarini namoyon etdilar. Trening interaktiv va samimiy muhitda o'tkazilib, ishtirokchilarning faolligi



va qiziqishi bilan ajralib turdi. Tadbirda institut professor-o'qituvchilari, xodimlar hamda talaba-yoshlar faol ishtirok etdilar.

2025-yil 11-sentabr kuni Institut talabalari bilan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirni institut Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori v.v.b. B.Jo'rayev ochib berib, mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yoshlarning ta'lim olishi, yuksak ma'naviyatli va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi bugungi davrda nechog'li muhim ekanini ta'kidladi.



Mazkur uchrashuvda Institut rektori, O.A.Ruziyev, Talabalar orasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan rektor maslahatchisi B.Isadjanov, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori M.Joniyev,



viloyat IIB TQKB mas'ul xodimi I.Suyunov hamda qator hamkor tashkilotlar vakillari ishtirok etishdi.

Uchrashuv **“Jaholatga qarshi – ma’rifat bilan kurash!”** va **“Inson qadri va huquqlarining ustuvorligi – taraqqiyot poydevori”** mavzularida tashkil etildi. Tadbir davomida soha mutaxassislari tomonidan yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, ularda diniy bag‘rikenglik, inson huquq va qadr-qimmatini hurmat qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ahamiyatini chuqur anglash, yoshlarni turli zararli g‘oyalar va yot oqimlar ta’siridan asrash, ularning ma’naviy immunitetini kuchaytirish masalalariga alohida urg‘u berildi.

Uchrashuvda 260 nafardan ortiq 1-kurs talabalari qatnashib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti **“Raqamli iqtisodiyot”** kafedrasida o‘qituvchisi M.Ashurova tomonidan **“Dolzarb 90 kunlik”** doirasida talabalar uchun qiziqarli va amaliy yo‘nalishga ega onlayn **“Biznes marafon”** o‘tkazildi.



Biznes marafon **“Marketing strategiyasi va Brend yaratish”** mavzusiga bag‘ishlandi. Marafon davomida fakultet talabalariga o‘z biznes loyihalarini amalga oshirishda marketing strategiyasi va brendning qanchalik biznesdagi ahamiyati haqida tushuntirildi. Shuningdek, talabalar kelajakda o‘zlari shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tadbirkorlik sohasida qanday marketing strategiyalardan foydalanishlari bo‘yicha o‘z taklif va savollarini berishdi.



O‘zbek xalqining milliy liboslarida xalqimizning tarixi, milliy qadriyatlarimiz, qadimiy urf-odat va an‘analarimiz mujassam etilgan bo‘lib, bugungi kunda milliy liboslar jozibasini yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.



2025-yil 12-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti mas'ullari tashabbusi bilan, “**Milliy liboslar**” kuniga bag‘ishlangan “**Milliy libos-millat qiyofasi**” mavzusida ko‘rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Bo‘tayev Usmonjon Xayrullayevich Pedagogika fakultetida amalga oshirilayotgan ishlar, o‘quv-tarbiya jarayonining borishi, ta‘lim sifatiga berilayotgan e‘tibor, 1-kurs talabalari bilan olib borilayotgan tashkiliy, pedagogik ishlar bilan yaqindan tanishdi.



Tojik tili ta‘lim yo‘nalishi talabalari bilan muloqotda ta‘lim-tarbiya jarayonidagi muammo va kamchiliklar yuzasidan talabalarining fikr-mulohazalarini tinglab, o‘z tavsiyalarini berdi. Fakultetda yangi tashkil etilgan “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi 1-kurs talabalari bilan uchrashuvda prorektor talabalarga yo‘nalishning mazmun-mohiyati yuzasidan ma‘lumotlar berdi, o‘z taklif va mulohazalarini bildirib o‘tdi.



Yoshlar bandligini ta‘minlash va bitiruvchilarni mehnat bozoriga tayyorlash bo‘yicha uchrashuv.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son qarori — “Kelajakka qadam dasturi” ijrosini ta‘minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.



Tadbir davomida yoshlar bandligini ta'minlash, DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti bitiruvchilarining mehnat bozoriga samarali integratsiyasini kuchaytirish, shuningdek, xususiy sektor va tijorat banklari hamkorligida kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.



Mazkur uchrashuv doirasida talabalar Milliy bankning Denov tuman bo'limi mutaxassisi bilan ochiq muloqot olib bordilar.

2025-yil 13-sentabr kuni Institut rektori O.A.Ruziyev, rektor maslahatchisi B.Isadjanov va Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari B.Jo'rayev boshchiligida Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Yoshlar bilan ishlash dekan o'rinbosarlari, fakultet tyutorlari, institut profilaktika inspektorlari va psixologlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.



Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Yil talabasi", "Eng yaxshi talaba", "Eng kitobxon talaba" kabi Respublika darajasidagi ko'rik-tanlovlar va loyihalar tashkil etilmoqda. Barcha tanlovlarning



dastlabki bosqichlari fakultetlarda o'tkazilishi bu borada dekan o'rinbosarlari va tyutorlardan e'tiborli bo'lishlari talab etilishi ta'kidlandi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti "Rus tili va adabiyoti" kafedrasida qoshidagi Rus tili markazida C-1 sertifikatlash markaziga sertifikat olish uchun hujjat topshirib, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan besh nafar Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan maktab o'qituvchilariga C-1 sertifikatlarini tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Taqdirlashda institut rektori O.Ruziyev, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor



A.Mengliboyev, Denov tumani faxriylari va kafedra o'qituvchilari ishtirok etishdi. Quvonarlisi, ikki nafar sertifikat sohibalari institutimiz talabalaridir.

2025-yil 13-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Xotin-qizlar maslahat kengashi, tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi hamkorligida **“Qaynonam-onam mening, kelinim-bolam mening”** oyligi doirasida tadbir tashkil etildi. Tadbirda uzoq yillar birga yashab kelayotgan serfarzand oila boshliqlari, kelinlari oliy ta'limda a'lo baholarga o'qiyotgan namunali qaynonalar, mehnat faxriylari va talaba-qizlar ishtirok etdilar.



Tadbirni institut rektori O.A.Ruziyev kirish so'zi bilan ochib berdi. Shuningdek, so'z olganlar bugungi kunda davlatimizda xotin-qizlarga yaratilayotgan sharoitlar, xususan xotin-qizlarimizning oliy ta'limda o'qishlari uchun berilayotgan keng imkoniyatlar haqida batafsil ma'lumot berdilar. Tadbir so'ngida talaba-kelinlar o'z qaynonalariga ta'lim olishlarida yaqindan yordam berayotganligi uchun minnatdorchilik bildirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-sonli “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorining 16-bandi ijrosini ta'minlash, shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakultetining kechki ta'lim shaklida o'qiyotgan, qo'shni viloyatlardan qabul qilingan talabalari uchun Sariosiyo tumanida joylashgan “Sangardak” dam olish maskani,

shuningdek, mintaqadagi tarixiy qadamjolar va ko'ngilochar joylarga sayohat va ziyorat tashkil etildi.



Mazkur tadbir talabalar orasida turizm madaniyatini shakllantirish, yurtimizning tarixiy va madaniy merosini chuqurroq o'rganish, shuningdek, o'quv jarayonidan bo'sh vaqtlardan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida o'tkazildi.

2025-yil 15-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori huzurida navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tdi.



Rektor rahbarligida prorektorlar, fakultetlar dekanlari, kafedralar mudirlari, bo'limlar boshliqlari ishtirokida yig'ilish tashkil etildi.

Institutimiz rektori yig'ilishni boshqarib bordi. Kun tartibidagi masalalar muhokama etildi.

Yig'ilish yakunida mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berildi hamda belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi zarurligi ta'kidlandi.

2025-yil 16-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti yetakchisi S.Xidirov hamda faol koordinatorlar tashabbuslari bilan **“Hafta kitobxonlari”** tanlovi doirasida talaba-yoshlar o'rtasida musobaqa bo'lib o'tdi. Jarayonni hakamlar odilona baholab bordilar.



🏆 Yakundagi natijalarga ko'ra:

1-o'rin - Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi Omonullayeva Fazilaxon.

2-o'rin - Filologiya fakulteti 1-bosqich talabalari Alimardonova Gulsevar, O'rolova Sarvara.

3-o'rin - Filologiya fakulteti 1-bosqich talababalari Xudoyqulova Nasiba, Jumayeva Gulchehralarga nasib etdi.

“Yong'inga emas – xavfsizlikka yo'l ochaylik!”

Sariosiyo tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i A.Bozorov va jamoasi tomonidan **“Yong'indan ogohlik-umummilliy kompaniyasi”** oyli doirasida Pedagogika fakulteti 3-4-TTJ larda fakultet dekani tashabbusi bilan targ'ibot-tashviqot tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda yong'inning oldini olish, kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yuzasidan hayotiy misollar asosida tushuntirish ishlari olib borildi va talabalarga yong'in vaqtida foydalaniladigan jihozlar tanishtirildi hamda ulardan foydalanish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.



Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida **“5 muhim tashabbus”** ijrosini ta'minlash hamda sportning ommaviylikini keng yoyish maqsadida kurslar kesimida **“Mini futbol”** musobaqasi boshlandi.

Tadbirni fakultet dekani M. Toshboboyev kirish so'zi bilan ochib,




sportchi talabalarga omad tiladi va sport orqali jamoaviylik hamda birdamlik mustahkamlanishini alohida ta'kidladi.

Kamchiliklari o'rganilib, zarur tavsiyalar berildi.

2025-yil 17-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Pedagogika fakultetida bo'lib, mas'ullar bilan uchrashuv o'tkazdi. Fakultetda olib borilayotgan o'quv-tarbiya jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi, amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarining olib borilishi yuzasidan o'rganish ishlari olib bordi.

Mavjud jarayonlardagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilindi. Mas'ullarga tegishli topshiriqlar berilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Shuningdek, institut rektori 3-son TTJ da ham bo'lib, talabalar bilan uchrashdi. TTJ dagi ma'naviyat xonasi, ilmiy-adabiy muhitning yaratilganligi, talabalarning to'garaklarga jalb etilganligi bo'yicha suhbatlashdi. Binoning jihozlanishi yuzasidan muammo va kamchiliklari o'rganilib, zarur tavsiyalar berildi. Qizlarni sport bilan shug'ullanishga, xorijiy tillarni o'rganishga da'vat etdi.



2025-yil 18-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida "JD East" firmasi vakillari ishtirokida "Xorijda ish va amaliyot" mavzusida webinar bo'lib o'tdi.


Tadbir davomida talabalarga xorijiy davlatlarda ish va amaliyot dasturlari haqida batafsil ma'lumotlar berilmoqda. Jarayon ochiq muloqot shaklida tashkil etilib,



“Work and Travel” dasturi yuzasidan savol-javoblar o‘tkazildi.



Pedagogika fakulteti talabalari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni yanada yaxshilash maqsadida Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi N.Xasanova, psixolog R.Xo‘shboqov, Pedagogika fakulteti xotin-qizlar masalalari bo‘yicha dekan maslahatchisi I.Elmuurodova, Profilaktika inspektori S.Suvonovalar tomonidan talabalar turar joyi hamda ijara xonadonlari o‘rganildi.



Talabalarning yashash sharoitlari, ta‘lim olishiga ta‘sir etuvchi muhit, darsdan tashqari faoliyatlari bilan shug‘ullanish imkoniyatlari va xavfsizlik masalalari alohida e‘tiborga olindi. Shuningdek, talabalar uchun yaratilgan qulayliklar bilan bir qatorda muammoli jihatlar ham aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.



2025-yil 18-sentabr kuni Startup Garage Surxondaryo filiali hududiy rahbari Abduxalim To‘xtayev DTPIga tashrif buyurib, talabalarga o‘z imkoniyatlari va loyihalari haqida taqdimot o‘tkazdi.



Abduxalim To‘xtayev tomonidan talabalarga Startup hamjamiyati platformasi tanishtirildi. Startup loyiha qilish istagidagi iqtidorli yoshlarga platforma imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi va intensiv kurslarda taxsil olishi uchun 50 000 000 so‘mlik vaucher berildi.

Tadbirdan maqsad yoshlarga startap ekotizimini yaqindan tanishtirish, ularda yangicha fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga hissa qo‘shishdir.

Taqdimot tadbirida Aloqabank Denov filiali rahbari Farrux Ziyodullayev ham ishtirok etdi.

Talabalar bilan bo‘lgan muloqot iliq kayfiyatda o‘tdi va ular bilan hamkorlikda kelajakda yangi g‘oyalarni amalga oshirishga kelishildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Respublika baxshichilik san’ati markazi hamkorligida **“Sherobod dostonchilik adabiy maktabining Yangi O‘zbekiston ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida tutgan o‘rni”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.



Tadbir doirasida baxshichilik san’atining hozirgi holati, uni rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, dostonchilik maktabining Yangi O‘zbekiston davrida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlardagi o‘rni, ta’siri haqida ilmiy ma’ruzalar tinglandi. Shuningdek, baxshilar ijrosida jonli dostonlar yangradi, qadimiy an’analar zamonaviy ruhda talqin etildi.

Mazkur konferensiya orqali nafaqat baxshichilik san’atining nufuzi yanada oshdi, balki uning yoshlar orasida keng targ‘ib qilinishiga, ilmiy asosda o‘rganilishiga ham muhim zamin yaratildi.

2025-yil 19-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Filologiya fakulteti talaba-yoshlarining taklif va muammolarini o‘rganish va ular asosida ishlarni tizimli tashkil qilish maqsadida **“Rektor va talaba-yoshlar uchrashuvi”** tashkil qilindi.



Institut rektori uchrashuv davomida institutning o'quv-tarbiyaviy faoliyati, yoshlarni ilm-fan, kasb-hunar va tadbirkorlik sohalarida qo'llab-quvvatlash borasidagi rejaları haqida so'zlab o'tdi. Shuningdek, institut ma'muriyati talaba-yoshlarni o'z iqtidorlarini hamda iste'dodlarini namoyon qilishlari uchun barcha zarur shart-sharoit yaratib berishini ta'kidlab o'tdi. Samimiy tarzda o'tgan uchrashuv davomida yoshlar o'z fikr mulohazalari bilan faol ishtirok etdilar.

Samarqand – tarix va ma'naviyat maskani!

2025-yil 19-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o'qituvchilari va Yoshlar ittifoqining faol a'zolari ichki turizm doirasidagi navbatdagi manzil – Samarqand viloyatida bo'ldilar. Sayohat davomida talabalar quyidagi muqaddas va tarixiy obidalarni ziyorat qilishdi:

- Xoja Doniyor ziyoratgohi
- Bibixonim maqbarasi
- Hazrati Xizr masjid va Islom Karimov maqbarasi
- Shohi Zinda me'moriy ansambli
- Registon dunyo tamaddunining durdonasi

Mazkur sayohat nafaqat bilim va ma'naviyat manbai bo'ldi, balki talabalar qalbida milliy g'urur va yurtga mehr tuyg'usini yanada mustahkamladi. Sayohat yakunida talabalarining dam olishi va zamonaviy infratuzilmalar bilan tanishish maqsadida Samarqand City majmuasiga ekskursiya uyushtirildi.

“Ma’rifat darslari” – bilim va tarbiyaning muhim maydoni.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan “Ma'rifat darslari” talabalarining dunyoqarashini kengaytirish, ularni islohotlar mazmuni bilan tanishtirish va ezgu g'oyalarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.



Darslarda fakultet rahbariyati, profilaktika inspektori hamda professor-o‘qituvchilar ishtirok etib, ilmning ahamiyati, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida fikr almashishdi.

Mazkur mashg‘ulotlar talabalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni ma’naviy va kasbiy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Uch avlod uchrashuvi.

Buxoro davlat texnika universiteti professori Majidov Qaxramon Xalimovich Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bo‘lib, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan bo‘lib o‘tgan “Uch avlod uchrashuvi”da ishtirok etdi.



Majidov Qaxramon Xalimovich Buxoro davlat texnika universitetida uzoq yillar mehnat qilib, respublikamizning turli hududlarida, xususan Buxoro, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarida o‘z maktabini tashkil etgan olim hisoblanadi. Hamda 71 ta fan nomzodi (PhD) va 20 dan ortiq fan doktori (DSc) ga rahbarlik va maslahatchi bo‘lgan.

Uchrashuvda Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani B.Eraliev, Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasini mudiri S.Sh.Ismatov va boshqa so‘z olganlar mamlakatimizda oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga to‘xtalib o‘tishdi.



“Xon atlas” oyligi doirasida ma’naviy-ma’rifiy tadbir.

Milliy liboslar — har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, tarixiy merosi va an’analarini o‘zida mujassam etgan betakror liboslardir. Ular nafaqat estetik go‘zalligi bilan, balki milliylikni asrab-avaylashdagi muhim ahamiyati bilan ham qadrlanadi.

Xuddi shu maqsadda bugun Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti mas'ullari tashabbusi bilan, sentyabr “Xon atlas” oyligi doirasida “**Milliy libos-millat qiyofasi**” mavzusida ko‘rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Talabalar bilan ochiq muloqot.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Mengliboyev Akmal Xolto'rayevich Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabalari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuv davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, oliy ta'lim tizimidagi yangiliklar, ta'lim jarayonlari, tarbiyaviy ishlar, yoshlar uchun yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy masalalar haqida batafsil so'z yuritildi.

Erkin muloqot tarzida kechgan uchrashuvda A.Mengliboyev talabalarning fikr-mulohazalari, qiziqishlari va maqsadlari xususida suhbatlashdi hamda ularning g'oya va tashabbuslarini tingladi.

Yangi mavsum — katta maqsadlar boshlanishi!

2025-yil 20-sentabr kuni Termiz davlat universiteti sport majmuasida “**Yangi O'zbekiston olimpiya cho'qqilari sari**” hamda “**Besh tashabbus olimpiadasi**”ning 2025-yilgi mavsumi tantanali ravishda ochib berildi.

Ochilish marosimida Surxondaryo viloyatidagi barcha oliy ta'lim muassasalari qatori Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori hamda talabalari ham faol ishtirok etdilar. Ushbu



loyihalar yoshlarda sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish, ular orasida doʻstlik va hamjihatlikni mustahkamlash, sport va ijod orqali Vatanga muhabbat tuygʻularini kuchaytirish yoʻlida muhim qadamlardandir.

Oliy taʼlimda sifat va akkreditatsiya mavzusunda xalqaro forum!



Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Webster universiteti hamkorligida 19-20-sentyabr kunlari **“Oliy taʼlimda sifatni taʼminlash va akkreditatsiya”** mavzusunda xalqaro forum boʻlib oʻtdi. Ushbu forumda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Taʼlim sifati nazorati boʻlim boshligʻi D.Shukurov ham ishtirok etdi. Forumda taʼlim sifatini oshirish, xalqaro akkreditatsiya jarayonlarini takomillashtirish va ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish boʻyicha fikr almashildi.



Shuningdek, forumda Germaniya, AQSh, Belgiya, Niderlandiya, Rossiya, Qozogʻiston va boshqa mamlakatlardan kelgan xalqaro akkreditatsiya tashkilot aʼzolari va xorijiy oliy taʼlim muassasalari rahbarlari qatnashdi. Forum doirasida taʼlim sifatini oshirish va xalqaro akkreditatsiya boʻyicha hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻyishga oid kelishuvlarga erishildi.

2025-yil 20-sentabr kuni institut Xotin-qizlar maslahat kengashining navbatdagi yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Institut Xotin-qizlar kengashi raisi N.Xasanova soʻzga chiqib, yangi oʻquv yiliga moʻljallangan ish rejalari hamda bajarilishi zarur boʻlgan vazifalar haqida batafsil maʼlumot berdi.

2025-yil 20-sentabr kuni institut Xotin-qizlar maslahat kengashining navbatdagi yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Institut Xotin-qizlar kengashi raisi N.Xasanova soʻzga chiqib, yangi oʻquv yiliga moʻljallangan ish rejalari hamda bajarilishi zarur boʻlgan vazifalar haqida batafsil maʼlumot berdi.



Shuningdek, o'tgan o'quv yili davomida erishilgan yutuqlar tahlil qilinib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish zarurligi ta'kidlandi. Yig'ilishda barcha fakultetlardagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchilari, yangidan saylangan "Qizlarjon" klubi raislari hamda "Lider qizlar" yetakchilari ishtirok etdilar. Ular uchun yangi o'quv yilida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar aniq belgilab berildi.

Dolzarb 10-kunlik profilaktik tadbiri

DTPI profilaktika katta inspektori O.Toshtemirov, Korrupsiyaga qarshi kurashish Komplaens nazorat tizimini boshqarish bo'lim boshlig'i Sh.Xamzaev, Pedagogika fakulteti dekani R.Salomova, dekan o'rinbosari R.Ravshanqulovlar hamda mazkur fakultetning 1-kurs talabalari ishtirokida talaba yoshlar o'rtasida "Men giyohvandlikka qarshiman!" mavzusida davra suhbatini olib borildi.



2025-yil 22-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Denov tumani bo'linmasi rahbari, uzoq yillardan beri samarali faoliyat yuritib kelayotgan T.Turdiyevning ish xonasiga tashrif buyurdi. Tashrif chog'ida T.Turdiyevning xonasiga kirishi bilan bu joyning ruhiy va ma'naviy oziq olish uchun mo'ljallangani yaqqol sezildi. Xonada 2000 dan ortiq adabiyotlar, shuningdek, 500 dan ziyod gazeta va jurnallar joylashtirilgan bo'lib, ularning bezaklari ham muhitga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi.



Uch avlod uchrashuvi – ustozga ehtirom ifodasi

2025-yil 22-sentabr kuni **“1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni”** munosabati bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida **“Do‘stlik”** ordeni sohibi, taniqli tarixchi olim va ustoz Habibullo Ismatullaev ishtirokida **“Uch avlod uchrashuvi”** bo‘lib o‘tdi. Tadbirda institut rektori, fakultet professor-o‘qituvchilari hamda talaba-yoshlar qatnashdilar.



Mazkur uchrashuvda Habibullo Ismatullaev o‘zining boy hayotiy va pedagogik tajribalari, ilm-fan yo‘lida bosib o‘tgan mashaqqatli mehnat yo‘li haqida samimiy suhbat olib bordi. Tadbir davomida yoshlarga ilm olish, kasbga sadoqat, ustozlarga hurmat va vatanparvarlik kabi yuksak qadriyatlar targ‘ib qilindi. Bu kabi uchrashuvlar yosh avlodning ongini boyitib, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida mini futbol musobaqasi bo‘lib o‘tdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Besh tashabbus olimpiadasi” sport musobaqalari doirasida mini futbol turi bo‘yicha fakultetlar o‘rtasida institut birinchiligi bo‘lib o‘tdi. Saralash bosqichlari asosida shakllangan fakultet terma jamoalari 22-sentyabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti sport inshootida g‘oliblik uchun bahs olib bordilar. Musobaqa natijalariga ko‘ra, Pedagogika fakulteti jamoasi faxrli 1-o‘rinni egalladi. Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 2-o‘ringa, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti esa 3-o‘ringa sazovor bo‘ldi.



Musobaqa yakunida institut terma jamoasi shakllantirilib, viloyat bosqichida ishtirok etishi belgilandi. Kelgusida “**Talabalar ligasi**” doirasida yo‘nalishlar va guruhlar kesimida ham institut miqyosidagi sport musobaqalarini tashkil etish rejalashtirilgan. Barcha ishtirokchilarga va talabalarimizga keyingi bosqichlarda omad va zafarlar tilaymiz!

PISA xalqaro baholash dasturi sari muhim qadam

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 17-martdagi 41-sonli buyrug‘i asosida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga birlashtirilgan Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on va Oltinsoy tumanlaridagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘qituvchilari va institut professor-o‘qituvchilarining ustoz-shogird an‘anasi asosida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



2025-yil 23-sentabr kuni DTPI rektori boshchiligida bir guruh professor-o‘qituvchilar Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug‘iga asosan Oltinsoy tumanidagi 34-maktab jamoasi bilan yaqindan tanishildi.

2025-yil 24-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Adliya



vazirligi huzuridagi “**Intellectual mulk markazi**” davlat muassasasi mutaxassislari ishtirokida “**Oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini (ixtiro va foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari hamda mualliflik huquqlari) huquqiy muhofaza qilishning afzalliklari**” mavzusida seminar-trening o‘tkazildi.



Tadbir davomida ishtirokchilarga intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishning afzalliklari, patent olish tartibi va shartlari, shuningdek, intellektual mulkni tijoratlashtirish imkoniyatlari haqida batafsil ma‘lumotlar berildi.

2025-yil 24-sentabr kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda **“Ulug‘bek”** jamg‘armasi hamkorligida onlayn formatda ta'lim sohasining dolzarb masalalari muhokama qilindi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovichning **“Mamlakatimizda ta'limning barcha bo‘g‘inlarini izchil rivojlantirish”** mavzusidagi ma'ruzasi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur yig‘ilishda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori, soha prorektorlari va fakultet dekanlari ZOOM platformasi orqali ishtirok etdi. Uchrashuv davomida ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda talabalar uchun qulay ta'lim muhiti yaratish bo‘yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

DTPIda “Eko-Innovatsion – 2025” ekologik loyihalar ko‘rgazmasi o‘tkazildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Eko-Innovatsion – 2025” nomli ekologik loyihalar ko‘rgazmasi katta ishtiyoq bilan o‘tkazildi. Ko‘rgazmada ekologik toza energiya manbalari, chiqindilardan qayta foydalanish, suvni tejash texnologiyalari kabi dolzarb mavzular yoritildi.

Loyihalar ko‘rgazmasida 15 ga yaqin iqtidorli talabalar atrof-muhit muammolari yechimiga bag‘ishlangan innovatsion ishlanmalar va startup loyihalari ko‘rgazmasi bilan ishtirok etdi.



2025-yil 24-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida **Getwork** xususiy bandlik agentligi vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.



Uchrashuv davomida agentlik vakillari talabalar va bitiruvchilarga xorijda ta‘lim olish, ishlash hamda tajriba orttirish imkoniyatlari haqida batafsil ma‘lumot berishdi.

Bitiruvchilar uchun – Yevropa mamlakatlarida rasmiy va doimiy ish o‘rinlari, mutaxassislik bo‘yicha barqaror ishga joylashish imkoniyatlari taqdim etildi.

Talabalar uchun – 3 va 6 oylik Work and Travel dasturlari, mavsumiy ish, til o‘rganish va madaniy almashinuv imkoniyatlari haqida ma‘lumotlar berildi.

Tadbir yakunida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Getwork xususiy bandlik agentligi o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Ushbu kelishuv institutimiz talabalari va bitiruvchilari uchun xalqaro mehnat bozori va xorijiy dasturlarda ishtirok etish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

2025-yil 25-sentabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani M.Toshboboyev, dekan o‘rinbosari A.Ibragimov hamda fakultet tyutorlari “Buyuk kelajak” MFY hududida istiqomat qilayotgan talabalar yashash sharoitlari bilan tanishishdi.



Jarayon davomida fakultet rahbariyati va tyutorlari ijarada yashayotgan talabalar bilan suhbatlar o‘tkazib, kuz-qish mavsumini talafotlarsiz o‘tkazish, shuningdek, tabiiy gaz hamda elektr jihozlaridan xavfsiz va ehtiyotkorona foydalanish zarurligini ta’kidlashdi. Talabalar uchun qulay muhit yaratish va mavjud muammolarni bartaraf etish

masalalari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, talabalarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish maqsadida MFY hududidagi “**Oila kutubxonasi**”ga tashrif buyurilib, talabalarni kitob mutolaasiga chorlandi.



Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar kafedrasida professor-o'qituvchilari tashabbusi bilan **"Happy Teacher's Day"** nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda fakultet professor-o'qituvchilari, tyutorlar hamda talabalari ishtirok etdi. Dastur doirasida iqtidorli talabalar tomonidan ustoz va murabbiylarga bag'ishlab turli tillarda iliq tabrik so'zlari aytili, she'rlar o'qildi, qo'shiqlar kuylanib, samimiy chiqishlar namoyish etildi.

Tadbir davomida o'qituvchilik kasbining sharaflari va mas'uliyatli jihatlari, yoshlarga bilim berish va ularni barkamol inson qilib tarbiyalash yo'lidagi fidokorona mehnati alohida ta'kidlandi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori boshchiligidagi institut jamoasi, **"Buyuk kelajak"** MFY mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda, ushbu mahallada istiqomat qiluvchi talaba yoshlar bilan **"Oila kutubxonasi"**da bo'lishib, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishishdi.

Institut rektori va mas'ullar tomonidan talabalarga bo'sh vaqtini mazmunli o'tqazish, til o'rganish, kitob o'qish yangi bilimlarni egallash bo'yicha fikrlar almashildi.

2025 yil 25-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida "Istiqlol" mahallasi faol ayollari bilan talaba qizlar o'rtasida **"Qadriyatlarini qadrlangan yurt"** mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi.



Davra suhbatida instituti xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova, “Istiqlol” mahallasi xotin-qizlar faoli K.Xidirova, psixolog D.Xolmuminova va nuroniy onaxonlar, bugungi kunda milliy iftixorimiz bo‘lgan milliy liboslarimizga bo‘lgan e‘tibor, milliylikimizning noyob durdonalarini, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylashimiz zarurligi haqida so‘zladilar.



2025-yil 25-sentabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “**Germaniyada kasbiy ta’lim**” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Tadbir avvalida mehmonlar ro‘yxatga olinib, tanishuv va ko‘rgazma tashkil etildi.



Institut rektori Oybek Ruziyev kirish so‘zi bilan ishtirokchilarga murojaat qildi. Asosiy ma‘ruzani professor, PhD. Muhayyo Mirzayeva taqdim etib, Germaniyada kasbiy ta’lim tizimi haqida batafsil ma’lumot berdi. Anjumanda talabalar, texnikum rahbarlari va a‘zolari, hamkor tashkilotlar vakillari hamda Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ) ekspertlari ishtirok etdilar.



Ushbu anjuman yoshlar, mutaxassislar va xalqaro hamkorlar uchun o‘zaro tajriba almashish hamda kasbiy ta’limni yanada rivojlantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti xalqaro hamkorlik va ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi faoliyatini davom ettiradi.

27-sentabr “**Butunjahon turizm kuni**” munosabati bilan fakultet talabalari Sina turizm qishlog‘ida joylashgan “**Sumbula mazor**” turizm maskaniga sayohat uyushtirishdi.

Sayohat fakultet dekani M.Toshboboyev, tyutorlar hamda Turizm yo‘nalishi talabalari ishtirokida tashkil etildi. Jarayon davomida talabalar “Sumbula mazor” hamda Sina turizm qishlog‘i tarixi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.



Ta'kidlash joiz, mazkur sayohat milliy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etildi. Talabalar milliy liboslarda tarix va madaniyatni o'z timsolida namoyon etdilar.

Sariosiyo tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan tuman hududida joylashgan Denov tadbirkorlik pedagogika instituti 3-son talabalar turar joyida tarbiyachi–pedagog N.X.Shukurov bilan hamkorlikda nazorat profilaktik tadbirlar o'tkazildi.



Tadbir yong'in xavfsizligini ta'minlash, talabalarga yong'indan himoyalanish choralari haqida ma'lumot berish hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratildi.

Institutimizda Yoshlar akademiyasi faoliyatini tashkil etish, institut va fakultet liderlarini tayinlash, startap va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha uchrashuv o'tkazildi.



Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i B.Jurayev va Iqtidorli talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i I.Sattorov talabalarimizga akademiya faoliyati haqida batafsil tushuncha berib o‘tdilar.

Institut va fakultet liderlariga nomzod talaba–yoshlarning taqdimotlari tinglanib, bir qancha tashabbuskor va faol talabalar Yoshlar akademiyasi jamoasiga qabul qilindi.

Bu safar institutimiz yoshlari uchun yangi imkoniyatlar, ijodiy g‘oyalar va innovatsion tashabbuslarni amalga oshirishga keng yo‘l ochiladi.

“Ustoz va murabbiylar kuni” munosabati bilan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Kasaba uyushmasi tomonidan professor-o‘qituvchilar va xodimlar o‘rtasida sportning voleybol turi bo‘yicha musobaqa tashkil etildi.



Tadbirda Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Mengliboyev kirish so‘zi bilan ishtirokchilarni bayram bilan tabriklab, tadbirni ochib berdi.

Sinada Surxondaryoning milliy taomlari sayli o‘tkazildi.

Denov tumanining Sina qishlog‘ida Surxondaryo viloyati hokimligi hamda Turizm qo‘mitasi hamkorligida **“Milliy taomlar sayli”** o‘tkazildi. Tadbirda Termiz shahri va tumanlardan tashrif buyurgan mohir oshpazlar o‘z hududlariga xos milliy taomlarni namoyish etdilar.

Milliy uslubda bezatilgan pavilonlarda pazandalar turli taomlarni tayyorlash jarayonlarini, ularning tayyorlanish usuli, udum va an‘analarini ishtirokchilarga amaliy tarzda ko‘rsatib berdi.

Sayl mehmonlari – xorijiy sayyohlar, viloyatimiz va respublikaning turli hududlaridan tashrif buyurganlar – non, patir, somsa, tandir kabob, go‘shtli osh kabi o‘zbek milliy taomlarining tayyorlanish jarayonini tomosha qildilar, ularni tatib ko‘rib, yuqori baholadilar.

Tadbir doirasida milliy o‘yinlar, xalqona musobaqalar va sport bellashuvlari ham tashkil etildi. Bu chiqishlar tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.



Sayil yakunida “Eng yaxshi taom”, “Eng yaxshi oshpaz” va “Eng ko‘p milliy taom tayyorlagan oshpaz” nominatsiyalari bo‘yicha g‘oliblar aniqlanib, diplom, maxsus statuetka va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan institutimizda ustoz va murabbiylarga hurmat bajo keltirish maqsadida Institut jamoasi tomonidan tantanali tadbir tashkil etildi. Tadbir doirasida ustozlar institut eshigida talabalar tomonidan samimiy kutib olindi. Ezgu tilaklar va cheksiz hurmat ila kutib olingan ustozlarimizning chehrasida quvonch va faxr ifodasi yaqqol namoyon bo‘ldi. Mazkur tadbir ustozlarga bo‘lgan chuqur ehtiromning ifodasi, ularning fidokorona mehnatini e’tirof etish va yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqladi.



Institut Yoshlar markazi binosida 1-oktabr O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bayram dasturi bo‘lib o‘tdi. Tadbir tashkilotchilari Maktabgacha va Musiqa ta‘limi yo‘nalishi talabalari tomonidan yuksak ehtiromga sazovor zot-ustozlar e‘tirof etilmoqda, bu kasbning kasblar ichra ulug‘ligi ta‘riflar, kuy-ko‘shiqlar orqali ifodalanmoqda. Shuningdek, talabalar tomonidan tayyorlangan qiziqarli shartlar ham davraga ko‘tarinki ruh bag‘ishladi.

Ustozlarning ta‘lim-tarbiya jarayonidagi fidokorona xizmatlari, yosh avlodni bilimli va ma‘naviy barkamol qilib tarbiyalashdagi beqiyos o‘rni alohida e‘tirof etildi. Tadbir davomida samimiy tabriklar, iliq tilaklar yangradi va ustozlarga bo‘lgan cheksiz hurmat va ehtirom yanada yorqin ifoda topdi.

“TalabaExpo–2025”

2-oktabr kuni Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining katta majlislar zalida yoshlar hayotida katta voqea bo‘lib o‘tdi – “TalabaExpo–2025” kasb ko‘rgazmasi o‘z faoliyatini boshladi!

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mas‘ullari, nufuzli kompaniyalar asoschilari va yetakchi mutaxassislar ishtirok etib, talabalarga bebaho maslahatlari hamda motivatsion nutqlarini taqdim etdilar.

Ushbu ko‘rgazmada vohadagi barcha oliy ta‘lim muassasalari talabalari faol ishtirok etdi. Marosim nafaqat kasbiy imkoniyatlar maydoni, balki yoshlarning orzu va intilishlarini haqiqatga aylantirish sari dadil qadam bo‘ldi.

Ko‘rgazmada 100 dan ortiq korxonalar ishtirok etadi, 1200 ga yaqin ish o‘rinlari, amaliyot va stajirovkalar taklif etiladi. Tadbir bitiruvchilarni bandligini ta‘minlash va biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu jarayonlarda Denov tadbirkorlik va



pedagogika instituti jamoasi ham faol ishtirok etmoqda.

Nufuzli kompaniyalar rahbarlari va mutaxassislar yoshlarga kasbiy rivojlanish bo'yicha foydali maslahatlar berdi. Tadbir yoshlarning bilim va ko'nikmalarini namoyish qilish, orzu-maqсадlarini amalga oshirish uchun muhim imkoniyatdir.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Pedagogika fakulteti binosi ham **“Tashabbusli byudjet”** loyihasida g'olib deb topilib, 1 milliard 300 million so'm ajratilgan edi. 2025-yil 6-oktabr kuni qayta ta'mirdan chiqqan fakultet binosi talabalar ixtiyoriga berildi.



Institutimiz rektori ochilish marosimida ishtirok etdi. Shundan so'ng, 5-M-2023 guruh talabalari bilan uchrashib, mamlakatimizda yoshlarning puxta bilim olishlari maqsadida yaratilgan sharoitlar, milliy kiyimlarimiz, gastrol, videostudio ochish taklifi haqida ochiq muloqot o'tkazdi.

Xalqaro hamkorlik yo'nalishida navbatdagi qadam!

O'quv ishlari bo'yicha prorektori Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich xorijiy tillar va adabiyot hamda jismoniy tarbiya fakultetlaridan 4 nafar talaba bilan birgalikda Turkiyaning nufuzli Firat universitetiga tashrif buyurdi.



Talabalar bir semestr davomida **“Akademik mobillik dasturi”** doirasida Firat universitetida tahsil olishadi. Tashrif chog'ida mazkur universitet rektori Fahriddin Go'gtosh bilan uchrashuv o'tkazilib, ikki oliygo'h o'rtasidagi istiqbolli hamkorlik rejalar muhokama qilindi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2024-yil 5-fevral kuni o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishidagi ijtimoiy sohalaridagi ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, 2025-2026 o‘quv yili davomida oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining talabalar turar joylariga tashriflarini tashkil etish bo‘yicha maxsus reja-grafik tasdiqlangan edi. Shu

reja asosida institut rektori 3-4-sonli talabalar turar joyiga tashrif buyurdi.

Ushbu tashrifda rektor talabalarning fikr-mulohazalari va muammolarini chuqur o‘rganish maqsadida ular bilan ochiq va samimiy muloqot qildi. Talabalar yashash sharoitlarini atroflicha ko‘rib chiqib, aniqlangan muammolarni joyida hal etish uchun mas‘ul shaxslarga aniq topshiriqlar berdi.

Suhbat yakunida talabalar turar joyida istiqomat qilayotgan talabalar uchun iliq, mehr-muhabbat bilan dasturxon yozildi, bu o‘quv yurtida doimiy ravishda talabalar farovonligini ta‘minlash va ular bilan yuqori darajada muloqotni davom ettirish aloqadorligini yanada mustahkamladi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Aniq va tabiiy fanlar fakultetining fizika, kimyo va biologiya yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Uchrashuv davomida ta‘lim jarayonini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish hamda talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Rektor professor-o‘qituvchilar bilan ochiq va samimiy muloqot olib borib, ularning fikr va takliflarini tingladi.

2025-yil 7-oktabr kuni Aniq va tabiiy fanlar fakultetida “**Olim va yoshlar**” uchrashuvi o‘tkazildi. Unda institutimiz olimlaridan I.f.f.d O.Ro‘ziyev, t.f.f.d. A.Mengliboyev va t.f.f.d. B.Iraliyevlar va fakultet talaba yoshlari ishtirok etishdi.

Uchrashuv avvalida institut rektori kuni-kecha **“Oliy ta’lim a’lochisi”** ko’krak nishoni bilan taqdirlangan fakultet dekani B.Iraliyevni tabriqlab, talabalarga ham bu yangilikni ulashdi.

Uchrashuv davomida talaba-yoshlar olimlarning mashaqqatli va sharafliligi faoliyati, ularning hayotiy boy tajribasi bilan yaqindan tanishishdi. **“Kelajakga qadam”** dasturi orqali talabalar bandligini ta’minlash, darsdan bo’sht vaqtlarida foydali va daromadli tadbirkorlik bilan shug’ullanishlari va bu bo’yicha institutda yaratilgan shart-sharoitlar haqida fikrlar almashishdi.



Ichki turizm – yoshlarda vatanparvarlik tuyg’usini mustahkamlaydi.

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tyutori U.Jumaev tashabbusi bilan fizika ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabalari Surxondaryoning go’zal maskanlaridan biri – **“Sangardak”** sharsharasiga sayohat uyushtirdilar.



Sayohat davomida talabalarga yurtimiz tabiiy go’zalliklari, ekologik muhofaza va milliy qadriyatlarni asrash borasida tushunchalar berildi. Ushbu tashrif talabalarning dam olishlarini mazmunli tashkil etish hamda ularni tabiatga mehr va e’tibor ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oila jamiyat tayanchi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida **“Yoshlarni oilaviy sharoitga tayyorlash”** kursi doirasida **“Oila jamiyat tayanchi. Zamonaviy oilaning ijtimoiy va iqtisodiy asoslari”** mavzusida davra suhbatlari bo’lib o’tdi.

Davra suhbatida institut xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova, psixolog D.Xolmuminova, xalq deputatlari tuman kengashi deputati B.Xidirov, **“Shuhrat”** medali sovrindori



R.Mamatmurodov, xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosarlari, tyutorlar va talabalar ishtirok etdilar.

Suhbat davomida oilaning tarixiy-ijtimoiy asoslari, zamonaviy oilaning dolzarb vazifalari, rivojlanish tendensiyalari, nikoh masalasi, oilada iqtisodiy va ruhiy muhitni yaxshilash tamoyillari, er-xotinning gender tenglik asosidagi o'zaro munosabatlari haqida fikr va mulohazalar bildirildi.

“Besh muhim tashabbus” doirasida futbol musobaqasi o'tkazildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakultetida “Besh muhim tashabbus”ning sport yo'nalishi doirasida futbol musobaqasi tashkil etildi. Tadbir fakultet tyutorlari tashabbusi bilan hamda jismoniy madaniyat kafedrasida o'qituvchisi I.Erdonov hamkorligida o'tkazildi.

“Giyohvandlik – asr vabosi” mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

2025-yil 8-oktabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida talabalar orasida sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, ularni yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tarbiyalash hamda **“Ma'naviyat, ma'rifat va madaniyat oyliklari”** doirasida **“Oktabr – Sog'lom turmush tarzi oyligi”** munosabati bilan **“Giyohvandlik – asr vabosi”** shiori ostida davra suhbatini tashkil etildi.



Tadbirda fakultet dekani o'rinbosari A.Ibragimov, institut profilaktika inspektori S.Suvonova, hamda fakultet xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari

P.Normamatova, tyutorlar ishtirok etib, yoshlarni sogʻlom turmush tarziga, toʻgʻri ovqatlanish va zararli odatlardan yiroq boʻlishga daʼvat etdilar.

Giyohvandlikning salbiy oqibatlari, oilaviy hayotga tayyorgarlik va sogʻlomlashtirish dasturlarining ahamiyati haqida atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi.

“Yashil makon” tashabbusi doirasida amaliy tashrif.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori hamda institut bogʻboni



“Quyoshli yurt” mahallasidagi Oybek Sattorov issiqxonaga tashrif buyurib, u yerda yetishtirilayotgan turli xil koʻchat va gul turlarining parvarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

Tashrif davomida issiqxonada yaratilgan sharoitlar, oʻsimliklarni parvarishlash va koʻpaytirish tajribalari oʻrganilib, mazkur tajribalarni institut hududida amalga oshirilayotgan “Yashil makon” loyihasi doirasidagi obodonlashtirish ishlariga tatbiq etish masalalari muhokama qilindi.

Mazkur tashabbus atrof-muhitni yanada goʻzal va ekologik jihatdan sogʻlom saqlash yoʻlida muhim ahamiyat kasb etadi.



Toza qoʻllar – sogʻlom hayot garovi

2025-yil 8-oktabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 22-sentyabrdagi 370-sonli buyrugʻiga asosan Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabalari bilan **“Toza qoʻllar – sogʻlom hayot garovi”**



mavzusida davra suhbatlari oʻtkazildi. Tadbirda xotin-qizlar masalalari boʻyicha dekan maslahatchisi D.Sodiqova va “Biologiya va qishloq xoʻjaligi mahsulotlari texnologiyalari” kafedrasi professor-oʻqituvchilari ishtirok etishdi.

Davra suhbatida sogʻlom turmush tarzi asoslari, shaxsiy gigiyena qoidalari haqida maʼlumotlar berilib, qoʻl yuvish


oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, kasalliklarning oldini olish va organizmning kuchli bo'lib o'sishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi uqtirildi.

“Ustoz va shogird” an'analari

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida bo'lg'usi mutaxassis kadrlarga tarbiyaviy va kasbiy ta'sir ko'rsatuvchi ustoz-shogird an'analari eng samarali tajribalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu an'ana yoshlarni nafaqat o'z sohasining yetuk bilimdoni, barkamol inson sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi.



DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida ham mazkur an'ana doimiy ravishda qo'llanib kelinmoqda. Fakultetda faoliyat olib borayotgan “Tarix va falsafa”, “Axborot texnologiyalari”, “Moliya va bank ishi” hamda “Raqamli iqtisodiyot” kafedralarining tajribali professor-o'qituvchilari iqtidorli talabalar bilan bevosita ishlamoqda.



Shogirdlarga o'z yo'nalishlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy maqolalar yozish, loyihalar ishlab chiqish hamda o'quv jarayonida faol ishtirok etish bo'yicha amaliy ko'mak berilmoqda.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti koordinatori hamda Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti BT yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan fakultetda “Zakovat” intellektual o'yinining “Rektor kubogi” doirasidagi “B” tur bahslari bo'lib o'tdi.



Intellektual o'yin davomida 13 ta jamoa o'z bilim va zukkoliklarini namoyon etishdi. Bellashuvlar qizg'in bahs-munozaralar ruhida o'tib, ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

2025-yil 8-oktabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti profilaktika katta inspektori O.Toshtemirov, psixolog R.Xo'shboqov, “Tadbirkorlik va boshqaruv” fakulteti tyutori X.Pardaevlar “Tadbirkorlik va boshqaruv” fakulteti 1-kurs talabalari ishtirokida davra suhbatini bo'lib o'tdi.

Suhbat davomida jinoyatchilik, kiberxavfsizlik, giyohvandlik, jaholatga qarshi ma'rifat va boshqa muhim masalalar muhokama qilindi. Uchrashuvda talabalarga jinoyatchilikning oldini olish, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilish, jaholatga qarshi marifat, giyohvandlikning salbiy oqibatlari va bu illatlarga qarshi kurashish yo'llari haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Talabalarni huquqbuzarliklardan ogoh bo'lishga, internetdan to'g'ri foydalanishga, begona odamlar bilan muloqotda ehtiyotkor bo'lishga chaqirishdi.

Profilaktika katta inspektori O.Toshtemirov va Jismoniy tarbiya va sport kafedrasa mudiri D.Nosirova bilan hamkorlikda, Pedagogika fakulteti Jismoniy madaniyat yo'nalishi 3-kurs talabalari ishtirokida profilaktik davra suhbatini o'tkazildi.

Yot va buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik, yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar iste'moli hamda noqonuniy aylanishi bilan bog'liq holatlarni oldini olish, turli ommaviy tartibsizliklarda ishtirok etishdan ogoh bo'lish, turli xil korrupsion holatlarni bartaraf etish kabi mavzularda tushuncha berildi.

Motivatsion uchrashuv va mahorat darslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi "El-yurt umidi" jamg'armasi mas'ullari Strategik rejalashtirish va loyiha boshqarmasi boshlig'i Elbek Iskandarov, Ijro nazorati xizmati bosh inspektori Baxtiyorjon Xushmurodov, Iqtidorli yoshlar va mutaxassislar bilan ishlash boshqarmasi bosh inspektori Tojiddin Sattorov, Iqtidorli



yoshlar va mutaxassislar bilan ishlash boshqarmasi yetakchi inspektori Moxinur Raximovalar Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bo‘lishib, talabalar va institut rahbariyati, professor-o‘qituvchilariga taqdimot, motivatsion uchrashuvlar va mahorat darslari, interaktiv muloqot va davra suhbatlari tashkil etishdi.

Uchrashuv davomida talabalar bilan ochiq muloqot tarzda suhbatlar olib borildi. Talabalar tomonidan xorijda tahsil olish, “El-yurt umidi” jamg‘armasidan stipendiya qo‘lga kiritish va boshqa mavzularda berilgan savollarga javob olishdi.

Basketbol sport turi bo‘yicha institut birinchiligi

2025-yil 9-oktabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “**Besh tashabbus olimpiadasi**” va “**Yangi O‘zbekiston olimpiya cho‘qqilari**” doirasida o‘tkazilgan musobaqalarning basketbol sport turi bo‘yicha fakultetlardan jamlangan o‘g‘il bolalar terma jamoalari o‘rtasida institut birinchiligi bahslari bo‘lib o‘tdi.



Yakuniy natijalarga ko‘ra:

- 1 o‘rinni Pedagogika fakulteti,
- 2 o‘rinni Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti,
- 3 o‘rinni Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talaba yigitlari terma jamoalari egallashdi.

Toshkent shahri Yangi O‘zbekiston massivi Ko‘rgazmalar saroyida “**Chegarasiz g‘oyalar**” shiori ostida o‘tayotgan Innovek-2025-Innovatsion g‘oyalar xalqaro haftaligida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutidan Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i D.Shukurov, Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo‘limi boshlig‘i M.Jurayev va Iqtidorli talabalarni ilmiy faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i I.Sattarov va umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar kafedrasida o‘qituvchisi D.Yo‘llyevlar faol ishtirok etishdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida amaliy kimyo yo‘nalishida samarali ishlar olib borilmoqda.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori boshchiligida “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida professor-o‘qituvchilari va talabalari DTPI brendi ostida ishlab chiqarilayotgan xo‘jalik sovunlari tayyorlanish jarayoni bilan tanishtirildi.



Tashrif davomida ishtirokchilar sovun ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini – xomashyo tanlash, texnologik jarayonni olib borish hamda tayyor mahsulotni qadoqlash jarayonlarini amaliy ravishda kuzatishdi.

Institut rahbariyati tomonidan “DTPI” brendi ostida mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini yanada kengaytirish, yoshlarning ilmiy-amaliy faolligini oshirish hamda ularni tadbirkorlikka yo‘naltirish bo‘yicha istiqbolli rejalar belgilab olindi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida – Xalqaro Qizlar kuni

Har yili 11-oktabr sanasida dunyo bo‘ylab nishonlanadigan Xalqaro Qizlar kuni institutimizda ham quvonch va faxrga to‘la muhitda o‘tkazildi.

Tadbir davomida qizlarimizning iqtidorini, go‘zalligini va ma‘naviy olamini yorituvchi badiiy chiqishlar, kuy-qo‘shiqlar va sahna ko‘rinishlari barchani hayratda qoldirdi.



Qizlarimizning fidoyiligi, orzulari va hayotga bo‘lgan ishonchi – ularning yurtimiz kelajagi uchun qanday beqiyos kuchga ega ekanini yana bir bor isbotladi.

Shuningdek, o‘qishdagi yutuqlari, ijtimoiy hayotdagi faolligi hamda ibratli xatti-harakatlari bilan ajralib turgan qizlar “Tashakkurnoma”lar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Tadbir – ayollar va qizlarga bo‘lgan e‘tibor, mehr va hurmatning amaldagi ifodasi bo‘ldi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti delegatsiyasi Adigey davlat universitetining 85 yillik yubileyiga va ular bilan tuzilgan memorandumni yangilash maqsadida Rossiya federatsiyasiga xizmat safari bilan ketish oldidan O‘zbekiston davlat jahon tillari institutida bo‘lib, u yerda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor va Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor bilan uchrashdilar.



Uchrashuv chog‘ida Xalqaro va mahalliy grant dasturlari, ilmiy loyihalar, xalqaro reytinglar borasida o‘zaro tajribalarini almashishdi.

“Talabalar xavfsizligi” oyligi doirasida “Tig‘ tadbiri” o‘tkazildi

Joriy yilning 12-sentabridan 12-oktabr kuniga qadar “Talabalar xavfsizligi” oyligi doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bir qator ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar tashkil etilmoqda.

Kecha Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida mazkur oylik doirasida fakultet talabalari hamda Jismoniy madaniyat yo‘nalishi talabalari ishtirokida “Tig‘ tadbiri” o‘tkazildi.



Institut profilaktika inspektori S.Suvonova jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlar o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib bordi.

Denovlik matonat timsoli – Dilorom Yo‘ldosheva bilan uchrashuv

Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida “**Mardlik**” ordeni sohibasi, “**Ayol va zamon**” o‘quv markazi rahbari Dilorom Yo‘ldosheva bilan samimiy uchrashuv bo‘lib o‘tdi. 2021-yilda yuz bergan baxtsiz hodisa oqibatida ikki oyog‘idan ayrilgan bo‘lsa-da, hayot sinovlarini matonat bilan yengib o‘tgan, imkoniyatsizlikdan imkoniyat yaratgan, qat’iyati va irodasi bilan ko‘plarga o‘rnak bo‘layotgan Dilorom Yo‘ldosheva o‘z hayot yo‘li, orzu-intilishlari hamda erishgan yutuqlari haqida so‘zlab berdi.



Uchrashuv yakunida ishtirokchilarga Dilorom Yo‘ldoshevaning hayoti asosida suratga olingan “Matonat” badiiy filmi namoyish etildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini mudiri K. To‘rabayeva, o‘qituvchilar B. Asadov va N. Eshqobilova boshchiligida “Turizm va mehmondo‘stlik” ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich

talabalari Termiz shahridagi diqqatga sazovor tarixiy maskanlar hamda sohada faoliyat yuritayotgan tashkilot va korxonalariga sayohat tashkil etildi.

Sayohat davomida talabalar Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi, **“Tourist Police”** – Xavfsiz turizmni ta’minlash boshqarmasi, Termiz arxeologiya muzeyi, Termiz xalqaro savdo markazi hamda Hilton Garden Inn Termez Airitom mehmonxonasida bo‘lishdi.



2025-yil 13-oktabr kuni institutimiz rektori boshchiligida chempion talabalarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi Hikmatova Jasmina **"Kikboks"** sport turi bo‘yicha o‘tkazilgan Jahon chempionatida 70+kilogramm vazn toifasida ishtirok etib, faxrlı 3-o‘rinni egalladi.



Yana bir sportchimiz Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi Abdulaxatov Alimardon sportning Olimpiyada o‘yinlari dasturidan o‘rin olgan **"Dzyudo"** turi bo‘yicha o‘tkazilgan Respublika birinchiligida 81 kilogramm vazn toifasida ishtirok etdi.

Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan 60 dan ortiq nufuzli sportchilar ishtirok etgan vazn toifasida, barcha raqiblaridan ustun kelib, 1-o‘rinni egalladi.

Texas texnologiya universiteti biotexnologiya professori Raviprakash Dani Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetiga tashrif buyurdi. Professor Dani dastlab institut rektori bilan uchrashib, ikki oliygoh o‘rtasidagi ilmiy va akademik hamkorlik



istiqbollari, xususan, qo‘shma tadqiqotlar, professor-o‘qituvchilar almashinuvi hamda talabalar uchun xalqaro amaliyot dasturlarini yo‘lga qo‘yish masalalarini muhokama qildi. Shundan so‘ng professor fakultet jamoasi bilan uchrashib, o‘quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot ishlari va talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Raviprakash Dani DTPIning xalqaro

hamkorlik aloqalari, ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarini yuksak e'tirof etdi.

Mazkur tashrif DTPI va Texas Tech University o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, qo'shma ilmiy loyihalar hamda ta'lim dasturlarini rivojlantirish sari muhim qadam bo'ldi.

2025-yil 14-oktabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida o'quv jarayonini o'rgandi.

Ta'lim jarayonining sifati, darslarda interaktiv metodlardan foydalanish holati, amaliyot bilan uyg'unlik darajasi hamda moddiy-texnik baza bilan ta'minlanganlik masalalari ko'zdan kechirildi.

Rektor ta'lim sifatini yanada oshirish, professor-o'qituvchilar va talabalarga qulay sharoitlar yaratish bo'yicha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berdi.



Milliy kurash bo'yicha institut birinchiligi bo'lib o'tdi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining "Bog'" ko'chasi manzilida joylangan binosining sport zalida "Talabalar ligasi", "Besh tashabbus olimpiadasi" va "Yangi O'zbekiston olimpiya cho'qqilari" sport musobaqalari doirasida "Kurash" turi bo'yicha institut birinchiligi bo'lib o'tdi.

O'g'il bolalar 5 ta, qizlar 4 ta vazn toifasida bellashishdi.



2025-yil 15-oktabr kuni "Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash va qonuniy migratsiyani targ'ib qilish" mavzusidagi tadbir bo'ldi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti profilaktika katta inspektori mayor O.Toshtemirov, S.Suvonova hamda Aniq va tabiiy fanlar fakulteti yshohlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari B.Djurayev hamkorligida "Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash



va qonuniy migratsiyani targ‘ib qilish” mavzusida umumprofilaktik tadbir bo‘lib o‘tdi. Noqonuniy migratsiya va odam savdosining sabablari, oqibatlari va unga qarshi kurashish choralari muhokama qilindi. Ayniqsa, yoshlarni huquqiy ong va madaniyat asosida tarbiyalash, xorijga chiqishdan oldin rasmiy hujjatlarga e‘tiborli bo‘lish, firibgarlardan ehtiyot bo‘lish kerakligi ta‘kidlandi. Ushbu davra suhbat talabalar ongida hushyorlikni oshirish, o‘zini himoya qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi.



Universiti Putra Malaysia (UPM) vakillari Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurdi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Malayziyaning nufuzli universitetlaridan biri Putra Malaysia (UPM) vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Tashrif davomida tomonlar o‘rtasida ilmiy va akademik hamkorlikni yanada rivojlantirish, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar almashinuvi, qo‘shma tadqiqotlar va ta‘lim dasturlarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurgan Universiti Putra Malaysia (UPM) vakillari bilan ilmiy va akademik hamkorlikni yanada rivojlantirish, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar almashinuvi, qo‘shma tadqiqotlar va ta‘lim dasturlarini amalga oshirish masalalari oid shartnoma imzolandi. Universiti Putra Malaysia

(UPM) vakillari Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetining talabalariga mahorat darslarini o‘tib berishdi.

Milliy liboslar chellenji

Pedagogika fakultetida talabalar jamoasi va pedagog-xodimlari ishtirokida “Milliy liboslar chellenji” tashkil etildi.



Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha dekan o‘rinbosari R.Ravshanqulova tashabbusi bilan tashkil etilgan jarayonda yuzlarida milliylik ifodasi ufurib turgan yigit-qizlarimiz milliy liboslarda qalbida katta g‘urur va faxr hissini mustahkamladi.

Milliylik – bu odamning o‘ziga xosligini, madaniy merosini, tilini, an’analarini va millatga tegishlilik hisini aks ettiruvchi tushuncha. Milliylik insonni jamiyatda bir guruhga bog‘laydi, o‘ziga hurmat va mas’uliyatni his etishga undaydi.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Pedagogika fakultetida Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasida tashabbusi bilan “Hozirgi zamon ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.



Mazkur anjumanda onlayn va offlayn tarzda 10 dan ortiq xorijiy davlat vakillari ishtirok etishdi.

2025-yil 16-oktabr kuni “Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash va qonuniy migratsiyani targ‘ib qilish” mavzusidagi tadbir bo‘lib o‘tdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti profilaktika katta inspektori mayor O.Toshtemirov, Magistatura bo‘limi boshlig‘i Sh.Maxmudov, Tarix va falsafa

kafedrasida o'qituvchisi T.Jo'raeva hamda Aniq va tabiiy fanlar fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari B.Djurayev hamkorligida "Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash va qonuniy migratsiyani targ'ib qilish" mavzusida umumprofilaktik tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbir davomida noqonuniy migratsiya va odam savdosining sabablari, oqibatlari va unga qarshi kurashish choralari muhokama qilindi. Ayniqsa, yoshlarni huquqiy ong va madaniyat asosida tarbiyalash, xorijga chiqishdan oldin rasmiy hujjatlarga e'tiborli bo'lish, firibgarlardan ehtiyot bo'lish kerakligi ta'kidlandi. Ushbu davra suhbat talabalar ongida hushyorlikni oshirish, o'zini himoya qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qildi.

2025-yil 17-oktabr kuni Talabalar ligasi – **“Yangi O‘zbekiston olimpia cho‘qqilari”** sport musobaqalari doirasida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida sportning **“Qo‘l to‘pi”** turi bo'yicha o'g'il va qizlar o'rtasidagi bellashuvlarga start berildi.



Musobaqalar talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy faollikni oshirish va iqtidorli sportchilarni aniqlash maqsadida tashkil etildi.

2025-yil 17-oktabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi S.Xidirov tashabbusi bilan institutimiz yoshlari Janubiy - g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qism

qo'mondonligida **“Harbiy qismda bir kunim”** shiori ostida bo'lib o'tgan ochiq eshiklar kuni tadbirida ishtirok etishdi.



Tashrif buyurgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi hamda ko'rgazmali chiqishlar, o'q otish, qurol-aslaxalar namoyishi barchada katta taassurot qoldirdi.

Ushbu tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodning ko'nglida Vatan tuyg'usini yanada kuchaytirish, haqiqiy vatanparvar bo'lib ulg'ayishida hissa qo'shishdir.

“Mening kutubxonamga hissam” loyihasi davom etmoqda

Bugungi kunda yoshlar orasida kitob o'qish madaniyatini rivojlantirish, o'quvchilarda va talabalarda kitobga mehr uyg'otish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda DTPIda “Mening kutubxonamga hissam” nomli loyiha o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Loyiha tashabbuskorlari Raqamli iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi Muhammad Xudoyberdiyev, Moliya va bank ishi kafedrası o'qituvchisi Alisher Safarov loyihaning birinchi bosqichi davomida tashabbuskor talabalar bilan birgalikda **“Bir talaba-bir kitob”** shiorida kutubxona fondini boyitish maqsadida 52



ta o'quv qo'llanmalar va badiiy adabiyotlar topshirdilar. Bu ularning ilm-fan, ma'naviyat va kitobga bo'lgan ehtiromining yaqqol ifodasidir.

Bir kitobda-ming tafakkur

2025-yil 20-oktabr kuni DTPI Pedagogika fakulteti “Yoshlar markazi” binosida 3-4-TTJ tarbiyachi-pedagogi N.Shukurov tashabbusi bilan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 36 yilligi munosabati bilan **“Bir kitobda-ming tafakkur!”** nomli ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Tadbirni ochib bergan fakultet dekani R.Salomova tomonidan bugungi kunda o'zbek tilining rivojida yosh-avlodning hissasi xususida to'xtalib, ushbu bayram bilan barchani qutladi. 1-kurs Pedagogika, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan ona tiliga oid she'rlar, maqollar, hikmatli so'zlar, sahnaviy ko'rinishlar namoyish etildi.



N.Shukurov tomonidan jonli ijroda qo'shiqlar aytili. Ona tiliga bo'lgan hurmat, uni rivojlantirish hissini yanada mustahkamlagani rost.

21-oktabr – O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun.

21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Denov tumani "Afrosiyob" bog'idagi Alisher Navoiy haykali o'rnatilgan maydonda tadbir o'tkazildi. Bayram tadbirida Navoiy haykali poyiga gulchambarlar qo'yildi.



Tadbirda Denov tuman hokimi I.Abrorov, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Denov tuman bo'limi rahbari T.Turdiyev, DTPI rektori O.Ruziyev, professor-o'qituvchilar va umumta'lim maktablari o'qituvchilari hamda talaba-yoshlar ishtirok etishdi.



So'z olganlar o'zbek tili va unga davlat tili maqomi berilganligiga, unda mutafakkir shoir A.Navoiy ijodining tutgan o'rniga to'xtaldi. Shuningdek, olimlar, tilshunoslar o'z so'zlarida mamlakatimiz mustaqilligigacha qabul qilingan "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning tilimizni asrab-avaylash va nufuzini oshirishdagi ahamiyati hamda keyingi yillarda qaratilayotgan yuksak e'tibor haqida so'z yuritishdi.



Zamonaviy o‘zbek tilining dolzarb masalalari

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida tomonidan **“Zamonaviy o‘zbek tilining dolzarb masalalari”** mavzusida VI Respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi.




Anjuman ishtirokchilari tomonidan e‘tirof etildiki, milliy til har bir xalqning tarixi va o‘zligini, ruhiy-ma‘naviy dunyosini o‘zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Bugungi kunda mamlakatimizda davlat tilini rivojlantirish, uning nufuzi va mavqeyini oshirish, xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishga qaratilgan katta ishlar amalga oshirilmoqda.



Shu o‘rinda bag‘rikeng diyorumizda ahil-inoq yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillarining tili, an‘ana va qadriyatlarini asrab-avaylash bo‘yicha ham muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, respublikamiz maktablarida ta‘lim-tarbiya jarayoni 7 ta tilda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 160 ga yaqin milliy madaniy markaz hamda qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillaridagi ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 15-oktabrdagi 02/58-15/10-247-sonli xati hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektorining 2025-yil 18-oktabrdagi 253-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida, 2025-yil 22-oktabr kuni DTPIda xorijiy tillar (ingliz tili) fan olimpiadasining birinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur olimpiada iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonini yanada takomillashtirish, qobiliyatli yoshlarni saralash va qo‘llab-quvvatlash, xorijiy tillarga bo‘lgan qiziqishni oshirish hamda tarjimonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida tashkil etildi. Ushbu olimpiada Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi va Xorijiy til adabiyoti yuqori va quyi kurslar kafedralari tomonidan tashkil etildi.



2025-yil 22-oktabr kuni Filologiya fakulteti talaba-qizlari bilan Xotin-qizlar maslahat kengashi tomonidan **“Jaholatga qarshi ma’rifat”** mavzusida davra suhbatini o‘tkazdi.

Suhbat davomida talabalarga jaholat inson qalbini bulg‘ovchi tuyg‘u bo‘lib hisoblanishi, insonga nafrat, unga ezgu amallarini tilamaslik hech qachon o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmasligi, inson qalbida kuchli qo‘rquv, yoki nafratni yengib olmagani sabab jaholat insonni asta-sekin o‘z domiga tortishi aytilib o‘tildi.



2025-yil 23-oktabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga talabgorlar uchun saralash bosqichi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovda mukofotga da’vogar, o‘n to‘rt yoshdan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan iqtidorli qizlar adabiyot, san’at, fan, ta’lim, madaniyat, axborot texnologiyalari, sport va jamoatchilik yo‘nalishlarida o‘z iste’dod va mahoratlarini namoyish etdilar.



Ishtirokchilarning ijodiy ishlari, siyosiy-ijtimoiy bilimlari, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni bilish darajasi, ko‘rik-tanlovlardagi faol ishtiroki, shuningdek, iste’dodini bir nechta yo‘nalishda namoyon eta olish qobiliyati hakamlar tomonidan munosib baholandi.

Tanlovning ushbu bosqichi yosh avlod orasida ijodkorlik, faollik va Vatanga muhabbatni kuchaytirish, Zulfiyaxonimning boy adabiy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash yo‘lida muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

2025-yil 23-oktabr kuni Institut rektori ishtirokida talaba-yoshlarni odob axloq qoidalariga rioya etishlari, o‘quv mashg‘ulotlari jarayonlarida telefondan foydalanish madaniyati, qolaversa, ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish maqsadida hamda giyohvandlik, psixotrop va tamaki mahsulotlarini iste‘mol qilishning salbiy oqibatlari haqida davra suhbatlari o‘tkazildi.



Tadbirda talabalar narkotik moddalarning noqonuniy savdo-sotiq jarayonlari va buning muhish oqibatlari, shuningdek, bu holat uchun qoninda belgilangan jazo choralarini tushuntirildi.

Davra suhbatlari davomida giyohvandlik va psixotrop vositalardan foydalanishning zararli ta’siri haqida videoroliklar namoyish etildi, bu orqali mavzu talabalarga yanada tushunarli tarzda yetkazildi.

2025-yil 23-oktabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini mudiri, i.f.n., dotsent K.U.To‘raboyeva hamda kafedra katta o‘qituvchisi PhD N.M.Eshqobilova hammuallifligida tayyorlangan “Sanoat iqtisodiyoti” darsligi, K.U.To‘raboyevaning “**Atrof muhit iqtisodiyoti va iqlim o‘zgarishi**” nomli darsligi, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Novosibirsk davlat iqtisodiyot va biznes boshqaruvi universiteti professor-o‘qituvchilari bilan hammualliflikda chop etilgan “**Предпринимательская деятельность в отраслях и сферах экономики**” nomli monografiyasi hamda PhD N.M.Eshqobilovaning “**Mintaqa transport-logistika tizimi samaradorligini oshirish yo‘llari**” nomli monografiyasi, jami 31 dona ilmiy adabiyot Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Axborot-resurs markaziga topshirildi.





2025-yil 23-oktabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti tyutorlari tashabbusi bilan 2-kurs talabalari o'rtasida "ZAKOVAT" intellektual o'yini o'tkazildi.

Bir-biridan qiziqarli va mantiqiy savol-javoblarga boy bo'lgan ushbu bellashuvda 9 ta jamoa o'z bilim va zehni sinovdan o'tkazdi.

O'yin yakunida "Tarix" yo'nalishi 2-kurs 11T-24 guruhi hamda "Buxgalteriya hisobi va auditi" yo'nalishi 2-kurs 6BH-24 guruhi jamoalari g'alabaga erishib, final bosqichiga yo'llanma oldi.

Sun'iy intellekt rivoji muhokama qilindi

Bugun institut rektori Prezidentimiz topshirig'iga asosan sun'iy intellektni rivojlantirish masalalari yuzasidan "Axborot texnologiyalari" kafedrasida professor-o'qituvchilari bilan uchrashuv o'tkazdi.



Uchrashuvda sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga joriy etish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini kengaytirish va talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlari muhokama qilindi.

Rektor institutda sun'iy intellekt laboratoriyasini tashkil etish, o'qituvchilarni xalqaro tajriba asosida malakasini oshirish, shuningdek, Coursera, EdX, Udey kabi platformalar orqali o'qituvchilar va talabalarning bilimni boyitish zarurligini ta'kidladi.



Surxondaryoda hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi.

Ushbu yarmarkada Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, Xizmat ko'rsatish bo'limi menejeri va Raqamli iqtisodiyot kafedrasida professor-o'qituvchilari faol ishtirok etishdi. Yarmarkaning ish faoliyati davomida Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor va Xizmat ko'rsatish



bo‘limi menejeri birgalikda Poliz ekinlari va gullardan tabiiy dorivor moylar ishlab chiqaruvchi “Shanaz” MCHJ, Qurlish materiallari ishlab chiqaruvchi “Termix”, Parfumeriya ishlab chiqaruvchi “Velton”, Osh tuzi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Termiz”, Kovrak o‘simligini yetishtiruvchi va uni qayta ishlovchi “Vodil Ferule Farming” korxonalarining rahbarlari va mas’ullari bilan uchrashuvlar o‘tkazib, hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshirish masalalari yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

“**Millatlar mozaikasi**” nomli yirik respublika miqyosidagi festivalda – iste’dod, mahorat va mehnatsevarlik uyg‘unlashgan ana shunday nufuzli maydonda – DTPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo‘nalishi talabalari Abdug‘afforov Islom, Radjabova Sevinchlar ham faol ishtirok etdi.

Ular o‘zining faoliyati, iqtidor va tashabbuskorligi bilan ajralib turib, 1-darajali diplom hamda “**Do‘stlik elchisi**” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi!

Biz bunday fidoyi, iqtidorli va izlanuvchan yoshlarimiz bilan faxrlanamiz! Ularning yutuqlari boshqalarga ham ilhom, harakat va yangi marralar sari turtki bo‘ladi.

1991-yil24-oktabrda mamlakatimizda Bojxona qo‘mitasi tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda u iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, savdo jarayonlarini tartibga solish va mamlakat manfaatlarini himoya

qilishda muhim o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida bojxona xodimlari ishtirokida ochiq muloqot tashkil etildi. Tadbir

davomida talabalar bojxona tizimi faoliyati, uning zamonaviy islohotlari hamda yosh mutaxassislar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida atroflicha ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

2025-yil 24-oktabr kuni institut xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova, profilaktika inspektori S.Suvonova hamda psixolog R.Xushboqov tomonidan **“Buyuk kelajak”** mahallasidagi ko'p qavatli uylarda yashovchi talaba-qizlarning sharoitlari o'rganildi.



Tashrif davomida talabalarning xavfsizligi, gigiyena qoidalariga rioya etilishlari, shuningdek, isitish tizimi va jihozlarning kuz-qish mavsumiga tayyorligi, elektr asboblarning sozligi, ijara shartnomalarining mavjudligi, sanitar-gigiyenik talablarning bajarilishi, shuningdek, ma'naviy-ruhiy muhitning sog'lomligi va talabalarning o'qish hamda dam olishlari uchun yaratilgan sharoitlar ko'zdan kechirildi.

Bunday nazorat tadbirlari talabalarning xavfsizligi, sog'lom yashash muhitini ta'minlash hamda ularning ijtimoiy hayotidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi.

2025-yil 25 – oktabr kuni Pedagogika va psixologiya kafedrasidan **“Inklyuziv ta'lim: psixologik yondashuvlar orqali barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish istiqbollari”** mavzusida bo'lib o'tgan Respublika ilmiy-amaliy anjumanida hamkor OTM muassasalari professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Anjuman doirasida bugungi kun nuqtai nazaridan dolzarb bo'lgan inklyuziv ta'limdagi muammo va yechimlar muhokama etildi.



2025-yil 26-oktabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti 11-23-guruh talabasi, DTPI Innovatsion guruh a'zosi Jurayeva Munisa Rahmatovna “Olim Hasanov jamg‘armasi” hamda Easybooking kompaniyasi hamkorligida tashkil etilgan “Olim granti” tanlovi g‘olibi bo‘ldi. Ushbu grant iqtidorli yoshlarning kontrakt to‘lovlarini qoplash hamda ularni stipendiya bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Ma‘lumot uchun, ilmiy rahbari – “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida katta o‘qituvchisi S.Mamatov.

“Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida Xorazm elining ijodkorlari bilan uchrashuv.

Pedagogika fakulteti “Yoshlar markazi”da “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida Xorazm elining bir guruh ijodkorlari – G. Ibodullayeva, Sh. Shams hamda D.Rajablar ishtirokida tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirni institut rektori kirish so‘zi bilan ochib berdi. U o‘z nutqida yoshlarning ma‘naviy dunyosini boyitishda, ularni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalashda bunday uchrashuvlarning ahamiyati kattaligini ta‘kidladi.

Mehmon ijodkorlar o‘z ijodiy faoliyatlari, ilhom manbalari hamda yoshlarga bo‘lgan munosabatlari haqida samimiy muloqot olib bordilar. Ular o‘z she‘rlaridan parchalar o‘qib eshittirdilar, talabalarning savollariga javob berdilar.

Tadbir jarayonida talabalar tomonidan she‘rxonlik va kuy-qo‘shiqlar ijro etildi, “Ma‘rifat ulashib” loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tashabbuslar yuzasidan ma‘lumot berildi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “**Ma’rifat ulashib**” loyihasi asosida boshlangan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar 1-talabalar turar joyida o‘tkazilgan adabiy kecha hamda osh chempionati bilan yakunlandi.

Tadbir mehmonlari – O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zolari Gavhar Ibodullayeva, Davron Rajab, Shoira



Shams hamda talabalarning bugungi kun adabiyoti, mutolaaga munosabat, tarjimachilik mas’uliyati kabi masalalar haqidagi savollariga batafsil javob berdilar.

Muloqot adiblarimizning kitobxonlik madaniyati, ijod mashaqqati, asarlarning yaralish tarixiga doir mulohazalari va xotiralarini yoshlar bilan o‘rtoqlashish, “**Ma’rifat ulashib**” loyihasining maqsadini ularga yana bir bor tushuntirish imkonini berdi.

Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida “**Ma’rifat ulashib**” loyihasi doirasida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbir davomida fakultet iqtidorli talabalaridan tashkil topgan “**Turon**” teatr jamoasi a‘zolari dramaturg Maqsud Shayxzodaning “**Mirzo Ulug‘bek**” asari asosida sahnalashtirilgan spektaklni tomoshabinlarga taqdim etdilar.



Spektaklda buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek hayoti va ilm-fanga, adolatga sadoqati badiiy talqinda yoritildi. Talabalar o‘z ijrolari orqali nafaqat aktyorlik mahoratini, balki milliy tariximiz, ilm va ma’rifatning ahamiyatini chuqur ifoda etdilar.

Tadbir davomida tomoshabinlar tomonidan spektakl katta qiziqish va olqishlar bilan qarshi olindi. Bunday ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish, teatr san’atiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida “**Tarix va falsafa**” kafedrasida o‘qituvchisi Abdumomin Usmanov tomonidan Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalariga Falsafa fanidan “**Jamiyat falsafasi**” mavzusida ochiq dars tashkil etildi.

Mazkur ochiq dars mashg‘ulotida jamiyat falsafasining nazariy va amaliy asoslari, Yangi O‘zbekiston strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyati bo‘yicha O‘zbekiston Milliy universiteti professori, falsafa fanlari doktori (Butunjahon falsafa

kongresi a'zosi, Rossiya falsafa akademiyasining O'zbekiston bo'limi rahbari) Nigina Shermuxammedova tomonidan taqdim etilgan videomurojaat tinglandi.



Garvard universitetining Yevropa tadqiqotlari professori (Amerika san'at va fanlar akademiyasi a'zosi,) Michele Lamont ham masofaviy (online) shaklda ishtirok etib, jamiyat falsafasining dolzarb muammolari va zamonaviy tendensiyalariga alohida to'xtalib o'tdi, mavzu bo'yicha savol-javoblar va fikr-mulohazalar almashildi.

2025-yil 29-oktabr kuni Denov tumanidagi "Yoshlar sanoat zonasi" ga DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani M.Toshboboyev, "Raqqamli iqtisodiyot" kafedrasini mudiri K.Turabayeva, "Raqqamli iqtisodiyot" va "Moliya va bank ishi" kafedrasini professor-o'qituvchilari hamda 3-kurs "Iqtisodiyot" yo'nalishi talabalari tashrif buyurishdi.



Tashrif davomida talabalar sanoat zonasida faoliyat yuritayotgan korxonalar bilan yaqindan tanishishdi, ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatishdi hamda amaliy bilimlarini boyitish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Uchrashuv chog'ida yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, startap g'oyalari qo'llab-quvvatlash va raqqamli iqtisodiyot yo'nalishidagi yangi loyihalar bo'yicha fikr almashildi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasida jamoasi tashabbusi bilan OTMLar va mahalla hamkorligi doirasida voleybol (qizlar o‘rtasida) bo‘yicha o‘rtoqlik uchrashuvi tashkil etildi.

Musobaqada Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Termiz davlat pedagogika instituti, Denov tumani “Chuqurqishloq” MFY hamda Boysun tumani “Dashtig‘oz” MFY jamoalari faol ishtirok etishmoqda.



“O‘zbekiston va jahon” mavzusida ma’rifat darsi

2025-yil 29-oktabr kuni DTPI rektori Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabalariga “**Kelajak soati**” rukni ostida “O‘zbekiston va jahon” mavzusida ma’rifat darsini o‘tkazdi.

Dars davomida O‘zbekistonning tarixiy, madaniy va ilmiy merosi, milliy qadriyatlarimizning jahon madaniyati bilan uyg‘unligi hamda mamlakatimizning global siyosiy, iqtisodiy va madaniy maydondagi roli keng muhokama qilindi.

Yoshlarni milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ilmiy izlanishlarga intilish va global dunyoqarash asosida faoliyat yuritishga chaqirdi, talabalarni dunyoqarashini kengaytirish va milliylikni saqlagan holda global tafakkur bilan ishlashga rag‘batlantirdi.

Tadbir davomida talabalar o‘z savollari bilan faol qatnashib, fikr almashish va bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ma’rifat darsi talabalarni xalqaro miqyosda faol va maqsadli rivojlanishga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti talaba-qizlari o‘rtasida “**Xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash**” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi.





Davra suhbatida Xotin-qizlar masalalari bo'yicha rektor maslahatchisi N.Hasanova, Filologiya fakulteti Xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi N.Nabiyeva, psixolog D.Xolmo'minova hamda Denov tuman 16-OP akusher-ginekologi M.Xalilovalar ishtirok etdilar. Talaba-qizlar orasida oilalarga sog'lom turmush tarzi va reproduktiv sog'liqni mustahkamlash uchun sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, reproduktiv sog'liqni saqlash bo'yicha bilimlar, zararli odatlardan qochish muhimligi ta'kidlandi.

Tabiiy fanlar fakultetida amaliy mashg'ulot: "Sovun olish"

Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Umumiy kimyo va kimyo texnologiyasi" kafedrasining 60530100-Kimyo turlari bakalavriat ta'lim yo'nalishi 4-kurs (kunduzgi)



12K-2022-guruh talabalari, "Kimyo texnologiya" fanidan navbatdagi amaliy mashg'ulotni o'tkazdilar.

Mashg'ulot davomida talabalar sovun tayyorlashning nazariy asoslari bilan tanishdilar. Kerakli reaktivlar va uskunalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirdilar. Shuningdek, ular sovun tayyorlash jarayonining har bir bosqichini diqqat bilan kuzatdilar. Ushbu amaliy mashg'ulotning asosiy maqsadi talabalarning kimyo texnologiyasi sohasidagi bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliy ko'nikmalarga o'rgatish va kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga tayyorlashdan iborat. Mashg'ulotni kafedra dotsenti X.X.Kulbasheva va Sh.Mamatovlar olib bordilar. Ularning rahbarligida talabalar



faol ishtirok etib, o'zlarining qiziqishlarini namoyon qildilar.



2025-yil 31-oktabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash, talabalarni kitobxonlikka jalb qilish maqsadida **“Yangi uyg‘onish davri kitob va kutubxonadan boshlanadi”** shiori ostida kitobxonlik tanlovi o‘tkazildi.

Tanlovda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murodning **“Otamdan qolgan dalalar”** romani hamda mashhur adib Chingiz Aytmatovning **“Jamila”** qissasi asosida badiiy mushohada va fikrlar almashildi. Talabalar esa o‘z bilimlarini sinovdan o‘tkazishdi. Tadbir davomida kitob inson tafakkurining chirog‘i, qalbning oziqasi ekani, har bir asar esa o‘quvchini hayot, muhabbat va mehnatning asl qiymatini anglashga chorlaydi, degan g‘oya alohida ta’kidlandi.

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi 2-kurs talabalari o‘zlarining malakaviy amaliyoti doirasida amaliyot rahbarlari hamrohligida **“Besh tashabbus olimpiadasi”** doirasida o‘tkazilayotgan yengil atletika bo‘yicha maktablararo birinchilik musobaqasida ishtirok etdilar. Musobaqa davomida talabalar tashkilotchilik, hakamlik va sportchilarni tayyorlash jarayonlarida faol qatnashdilar.

Tadbirning asosiy maqsadi – yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish hamda talabalarni amaliy tajriba bilan boyitishdan iborat.

Amaliyot rahbarlari Ozod Bo‘riyev va Islomov Ilyosjon talabalarga musobaqa davomida amaliy yordam ko‘rsatdilar va ularning faol ishtirokini qo‘llab-quvvatladilar.

2025-yil 1-noyabr kuni Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tyutori B.Xidirov o'ziga birlashtirilgan guruh talabalariga, O'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari U.Mamajonov bilan birga davra suhbatini o'tkazdi. Suhbat jarayonida **"Akademik qoidalar"** dagi fanlardan akademik qarzdorligi bo'lganlar qayta o'qish, qoldirilgan darslarni qayta o'zlashtirish, o'qishni ko'chirish, tiklash, akademik ta'til olish to'g'risida ma'lumot berildi.



Grand taqsimoti bo'yicha talabalar to'plashi mumkin bo'lgan ballar hisoblab tushuntirildi. Talabalar o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha savollariga javob olishdi.

Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida fakultet tyutorlari tashabbusi bilan Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i I.Sattorov bilan samimiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv davomida talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb etish, ularning iqtidor va tashabbuskorlik salohiyatini yanada rivojlantirish, hamda ilmiy loyihalarda faol ishtirokini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

I.Sattorov talabalar uchun ilmiy faoliyatning ahamiyati, grantlarda ishtirok etish tartiblari, ilmiy maqolalar tayyorlash jarayoni va yosh olimlar uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida atroflicha ma'lumot berdi. Ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi, kelgusida amalga oshiriladigan qo'shma loyihalar haqida takliflar bildirildi.



2025-yil 3-noyabr kuni Aniq va tabiiy fanlar fakultetida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida institut profilaktika inspektori mayor O.Toshtemirov va tyutor I.Boymurodovlar bilan hamkorlikda **“Tig‘ tadbiri”** tashkil etildi. Targ‘ibot tadbirida yoshlar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ular o‘rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni tizimli tashkil etish, turli oqimlar ta’siriga tushib qolishdan asrash, kiber jinoyatlar, tavakkalchilikka asoslangan qimor o‘yinlar qurboniga aylanib qolmaslik, ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish, yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni ta’minlashga qaratilgan muhim vazifalar to‘g‘risida fikr-mulohaza va takliflar bildirildi.



2025-yil 4-noyabr kuni DTPI rektori Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Kimyo yo‘nalishi talabalariga **“Xavfsiz hayot”** mavzusida **“Kelajak soati”** darsini tashkil etdi.



Talabalarda xavfsizlik va sog‘lom ijtimoiy munosabatlar uchun shaxsiy chegaralarning ahamiyati haqida aniq tasavvur hosil qilish, o‘zlari va boshqalar uchun hurmatga asoslangan muhit yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Asosiy g‘oyalar: Shaxsiy xavfsizlik – bu insonning jismoniy, hissiy va psixologik sog‘ligini va hayot sifatini belgilovchi ko‘rinmas chiziqlar bo‘lib, ular shaxsning hayotini, erkinligini va ichki osoyishtaligini saqlashga xizmat qiladi.

Shaxsiy xavfsizlik haqida qaygʻurish sogʻlom fikr, oʻzaro ishonch va hurmatni taʼminlaydi. Oʻz xavfsizligi haqida qaygʻurish – bu oʻzini qadrlash, oʻz huquqlarini bilish va boshqalarning ham huquqlariga hurmat bilan yondashishning ajralmas qismidir.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy tillarni oʻrganishni yanada ommalashtirish hamda mamlakatimizni ushbu sohada jahonning yetakchi TOP-50 ta davlat qatoriga kiritish boʻyicha belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini taʼminlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham amaliy ishlar olib borilmoqda.

Mazkur topshiriqlar ijrosini taʼminlash maqsadida institutning Yoshlar masalalari maʼnaviy-marifiy ishlar boʻyicha 1-prorektori, Yoshlar ittifoqi BT yetakchilari, Xorjiy til va adabiyoti kafedrasini hamda yoshlar ishlari boshqarmasi hamkorligida zamonaviy 100 dona internetga ulangan kompyuterlar bilan jihozlangan Axborot-resurs markazida test sinovlari tashkil etildi.

2025-yil 4-noyabr kuni Rektor huzuridagi navbatdagi yigʻilish boʻlib oʻtdi. Yigʻilishni institutimiz rektori boshqarib bordi. Hamda institutda Oʻzbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari va topshiriqlari, Vazirlik Hayʼat qarorlarining ijrosi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga toʻxtaldi.



Jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i M.Haqberdiyevning, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor



R.E.Shukurovning, Ta‘lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i D.Shukurovning, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i B.Primkulovlarning axborotlari tinglandi.

Kengash yig‘ilishida ko‘rilgan masalalar bo‘yicha mas‘ullarga ushbu topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar Vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug‘i hamda Denov soha tadbirkorlik va pedagogika instituti rektorining 2025-yil 1-fevraldagi 16-A soha-sonli buyrug‘iga asosan o‘tkazilayotgan “Moliyada jadallashtirish: rivojlantirish, rivojlantirish. mavzusida xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman hech shubhasiz, institutimiz hayotida muhim bir voqeadir. Ayni damda konferensiya qizg‘in davom etmoqda. Anjuman onlayn va oflayn tarzida bo‘lib, mamlakatimizning turli oliy ta‘lim maskanlari bilan bir qatorda rossiyalik va tojikistonlik professor-o‘qituvchilar ham o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etishdi.



Sun‘iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati

Institut rektori va Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri R.Mamajanovlar Matematika va informatika yoʻnalishi bitiruvchi kurs talabalari bilan Raqamli iqtisodiyot markazida uchrashuv oʻtkazishdi.

Tadbirning asosiy maqsadi – yoshlarning zamonaviy texnologiyalar, xususan, sunʼiy intellektning bugungi kundagi ahamiyati va kelajak rivojiga taʼsiri borasida chuqurroq tushuncha hosil qilishiga koʻmaklashish, shuningdek, **“Kelajakka qadam”** loyihasi doirasida ular uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlarni tanishtirishdan iborat boʻldi.



Biologiya fan olimpiadasi boʻlib oʻtdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 21-oktabrdagi 10-4394-sonli xati hamda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektorining 2025-yil 29-noyabrdagi 260-sonli buyrugʻi ijrosini taʼminlash maqsadida, 2025-yil 7-noyabr kuni DTPIda Biologiya fan olimpiadasining birinchi bosqichi muvaffaqiyatli oʻtkazildi.



Iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning fan boʻyicha qobiliyatlarini rivojlantirish, ilmiy izlanishlarga boʻlgan qiziqishini kuchaytirish hamda biologiya yoʻnalishida isteʼdodli yoshlarni saralab, qoʻllab-quvvatlash.



Tadbirni institut rektori va tashkiliy ishchi guruh vakillari ochib berib, ishtirokchilarga olimpiada tartibi va ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim vazirligi, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 10-apreldagi **“Oliy ta'lim uskunolari va jihozlaridan ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali harakat monitoringini amalga oshirish to'g'risida”**gi 131-sonli nazoratni nazorat qilish. Markazi bosh hisobchisi F.Yangiboyev tashrif buyurdi.



Tashrif davomida xalqaro moliya institutlarining krediti, davlat byudjeti mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan institutga yetkazib berilgan o'quv laboratoriya uskuna va jihozlarining, saqlanishi, butligi hamda ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanish holati o'rganildi.

Hokim va talaba yoshlar uchrashuvi

2025-yil 7-noyabr kuni Denov tuman hokimi Ilhom Abrorov Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Oybek Ruziyev hamrohligida Iqtisodiyot yo'nalishi 3-kurs talabalari bilan **“Hokim va talaba yoshlar uchrashuvi”**da ishtirok etdi.

Uchrashuv institutimiz yoshlari bilan samimiy suhbat asnosida o'tdi. Tuman hokimi viloyatda o'z o'rniga ega bo'lgan Denov tumani hududida amalga oshirilayotgan ishlarga, institut va bu erda ta'lim olayotgan talabalarga yaratilayotgan qulayliklarga to'xtaldi.



Talabalar bilan kreativ fikrlashni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarga faol kirishish hamda raqobatbardosh mutaxassis bo'lish borasida ochiq muloqot olib bordi.

Uchrashuv ochiq va samimiy ruhda o'tib, talabalarining kelajak rejalari, kasbiy rivojlanish yo'nalishlari hamda sun'iy intellekt sohasida o'z o'rnini topish bo'yicha motivatsiyasini oshirishga xizmat qildi.

2025-yil 8-noyabr kuni Denov tumanida **“Bir Vatan, bir el, bir bayroq!”** shiori ostida ma'naviy tadbir bo'lib o'tdi.



O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida mamlakatimiz bo'ylab **“Bir Vatan, bir el, bir**



bayroq!” shiori ostida **“Bir bayroq”** estafetasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir Denov tumanida ham yuksak ruhda tashkil etildi.

Tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti jamoasi, keng jamoatchilik vakillari faol ishtirok etdi.

“Bir bayroq” estafetasi O‘zbekiston xalqining birligi, tinchligi va yurt ravnaqi yo‘lidagi hamjihatligini ifodalovchi muhim ma‘naviy tashabbus sifatida e‘tirof etildi.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 10-apreldagi “Oliy ta‘lim tashkilotlariga yetkazib berilgan uskuna va jihozlardan ta‘lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida samarali foydalanish holati yuzasidan monitoring qilish to‘g‘risida”gi 131-sonli buyrug‘i ijrosi yuzasidan DTPIga Oliy va professional ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash Markazi bosh hisobchisi F.Yangiboyev tashrif buyurgan edi.

F.Yangiboyevga DTPI O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor U.X.Bo‘tayev Pedagogika fakultetiga tashrif buyurib, yo‘nalishlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlarining o‘z vaqtida o‘tilayotganligi, dars sifatiga bo‘lgan e‘tibor o‘rganildi, professor-o‘qituvchilar faoliyati kompleks tahlil qilindi, talabalar bilan ochiq muloqot o‘tkazildi.

“Dekan va talaba yoshlar” uchrashuvi.



2025-yil 9-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida “Dekan va talaba yoshlar” uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Tadbir fakultet dekani M.Toshboboyev, tyutorlar hamda fakultet talabalari ishtirokida samimiy muloqot ruhida o‘tkazildi.

Uchrashuv davomida talabalar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, taklif va tashabbuslar tinglandi. Shuningdek, ularning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish, talabalik davrini mazmunli o‘tkazish hamda fakultet, institut hayotida faol ishtirok etish masalalari yuzasidan fikrlar almashildi.



O‘zbekiston Respublikasi bayrog‘i-Vatan timsoli

2025-yil 9-noyabr kuni Aniq va tabiiy fanlar fakultetida B.Xidirov 1-kurs talabalari bilan davlatimiz bayrog‘i qabul qilinganining yilligi munosabati bilan davra suhbatini o‘tkazdi.

1991 yil 18 noyabr kuni mamlakatimizda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida» gi Qonun qabul qilingan.



Unda davlat bayrog‘i mamlakatimizning suvereniteti va mustaqilligini ifodalovchi ramz ekanligi ta’kidlangan. Bayrog‘imiz o‘zida butun xalqimiz orzu-istaklari, g‘ayrati va shijoatini, bag‘rikenglikni mujassam etgan.

Mamlakatimiz bayrog‘idagi har bir rang, har bir belgi o‘ziga xos ma’noga ega ekanligi talabalarga tushuntirildi. Moviy – kuch va quvvat, tinchlik va barqarorlik, oq – poklik va olijanoblik, yashil – hayot, tabiat, uyg‘unlik va muvozanat, ishonch va umid rangi, xalqimizning azaliy qadriyatlarini. Qizil chiziqlar – bu odamlarning

tomirlarida oqayotgan qon, erkinlikni sevuvchi ajdodlarni eslatuvchi, hayotiy kuch va abadiyat ramzidir.

2025-yil 10-noyabr kuni Axborot-resurs markazida viloyat Kasaba uyushmalari qo‘mitasi raisi Abdukarim Axmedovning **“Kasaba uyushmasi va mening hayotim”** nomli kitobi taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda institut Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi A.Ibragimov, fakultet va bo‘lim Kasaba uyushma qo‘mitasi raislari hamda boshqa mas’ullar ishtirok etishdi.

Taqdimot yakunida 30 dona kitob Axborot-resurs markazi fondiga topshirildi.

“O‘zbekiston kasaba uyushmalari harakatining 120 yilligi” barcha tashkilot va muassasalarda keng nishonlanmoqda. Shu munosabat bilan 11-noyabr — **“O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni”** arafasida DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabalari ishtirokida **“Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti kasaba uyushmasi talabalar nigohida”** mavzusida davra suhbat tashkil etildi.

Tadbirda institut kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi A.A.Ibragimov so‘zga chiqib, kasaba uyushmalarining jamiyat hayotidagi o‘rni, mehnatkashlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi fidokorona faoliyati hamda bu borada amalga oshirilayotgan samarali ishlar haqida batafsil so‘z yuritdi.

Suhbat so‘ngida talaba-yoshlar kasaba uyushmalari faoliyatiga oid o‘zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar.



2025-yil 10-noyabr kuni institut psixologi D.Xolmuminova Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti tyutorlari X.Pardayev hamda A.Yuldashevlar hamkorligida 1-, 2- va 3-kurs talabalari o'rtasida psixodiagnostika ishlarini amalga oshirdi.

Mazkur tadbirning maqsadi:

Talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, ta'lim jarayoni, kasb tanlash va ijtimoiy moslashuvda ularga ko'mak berish, shuningdek, ruhiy salomatlikni baholash hamda mavjud muammolarni aniqlashdan iborat.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o'qituvchilari va xodimlari o'rtasida O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan **“O'zbekiston kasaba uyushmalari 120 yil xalq bilan”** shiori ostida sportning **“Voleybol”** turi bo'yicha **“Institut Kasaba uyushmasi ko'chma kubogi”** musobaqasi bo'lib o'tdi.

Musobaqalar yakuniga ko'ra ayollar o'rtasida:

- 1 o'rin Filologiya fakultetiga,
- 2 o'rin Pedagogika fakultetiga,
- 3 o'rin Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetiga nasib etdi.

Erkaklar o'rtasida:

- 1 o'rinni Ma'naviyat bo'limi,
- 2 o'rinni Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti,
- 3 o'rinni Rektorat jamoasi egalladi.



G'olib jamoalar **“Institut Kasaba uyushmasi ko'chma kubogi”** tadbirida taqdirlandi.

2025-yil 11-noyabr kuni Rektor huzuridagi navbatdagi yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishni institutimiz rektori O.A.Ruziyev boshqarib bordi. Hamda institutda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident qarorlari, farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyruqlari va topshiriqlari, Vazirlik Hay'at qarorlarining ijrosi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga to'xtaldi.



Jismoniy va yuridik shaxslar bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i M.Haqberdiyevning, Registrator ofisi boshlig'i Sh.Amankulovning, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i B.Primkulovlarning, axborotlari tinglandi.

Kengash yig'ilishida ko'rilgan masalalar bo'yicha mas'ullarga ushbu topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.



2025-yil 11-noyabr kuni Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 4-martdagi 6-q/q-sonli qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari va texnologiyalari" kafedrasining o'qituvchisi A.Bolliyev tomonidan Sho'rchi tumanidagi Ixtisoslashtirilgan maktab internatida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Mazkur uchrashuvlar davomida o‘quvchilarga: Oliy ta’limning ahamiyati,



Zamonaviy kasblar va ular uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar, talabalik hayoti va kelajak imkoniyatlari haqida batafsil ma’lumotlar berildi.

Targ‘ibot davomida yoshlarga **DTP**da mavjud fakultetlar, ta’lim yo‘nalishlari, xorijiy hamkorlik dasturlari va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv tizimi haqida ham batafsil tushuntirishlar berildi.

“Kibermadaniyatni yuksaltirish” profilaktik targ‘ibot oyligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ–153-son qaroriga muvofiq, har yili noyabr oyi mamlakatimizda **“Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi”** sifatida e’lon qilingan.



2025-yil 11-noyabr kuni Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Denov tumani IIB Jinoyat qidiruvi Kiberxavfsizlik bo‘limi xodimi leytenant A.Egamov, institut profilaktika katta inspektori mayor O.Toshtemirov va talabalar ishtirokida **“Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi”** doirasida uchrashuv o‘tkazildi.

Tadbir davomida talabalar internetdan ongli foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etish bo‘yicha muhim tavsiyalar oldilar. Uchrashuv kibermadaniyatni oshirish va xavfsiz raqamli muhitni shakllantirishga xizmat qildi.



2025-yil 12-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti tyutorlari F.Toshboyeva, Q.Boysariyevlar hamda Denov tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi katta inspektorlari N.Turdiyev va A. Xudoyqulovlar hamkorligida “Buyuk kelajak” mahallasining Toshkent ko‘chasi 7, 8, 12, 15 va 18-uyalarida istiqomat qiluvchi talabalar xonadonlarida o‘rganish ishlari olib borildi. Mazkur o‘rganish ishlari kuz-qish mavsumi boshlanishi munosabati bilan talabalarga turli noxush holatlar, is gazidan zaharlanish, elektr toki urishining salbiy oqibatlari haqida ogohlantirish hamda gaz va elektr energiyasi bilan ishlaydigan pechlar va boshqa maishiy asboblardan to‘g‘ri va xavfsiz foydalanish qoidalari bo‘yicha tushuntirishlar berish maqsadida tashkil etildi.

2025-yil 12-noyabr kuni Yurtimiz bo‘ylab o‘tkazilayotgan **“Bag‘rikenglik haftaligi”** doirasida Denov tumanida ham mazmunli tadbir tashkil etildi. Tadbir 16-noyabr – Xalqaro bag‘rikenglik kuni munosabati bilan o‘tkazilib, unda tuman



hokimligi vakillari, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti (DTPI) jamoasi hamda talaba yoshlar ishtirok etdilar.

Tadbir davomida turli millat, til va din vakillari bir yoqadan bosh chiqarib, yurtimizdagi tinchlik, totuvlik va bag‘rikenglik muhitining yorqin namunasi sifatida o‘zaro hurmat va do‘stlik g‘oyalarini targ‘ib etdilar. Bu kabi tadbirlar jamiyatda o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik va birdamlik tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Joriy yilning 13-noyabr kuni DTPI xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova hamda fakultet xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi P.Normamatovalar ishtirokida **“Oila mustahkamligi uchun barchamiz mas’ulmiz”** mavzusida 1-talabalar turar joyida yashovchi qizlari bilan davra suhbatini o'tkazildi.

Suhbat davomida oila muqaddas makonligi, unda hayotning davomiyligini



ta'minlovchi shaxs shakllanishi, urf-odatlarimiz, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarimiz saqlanishi va rivojlantirilishi haqida ma'lumotlar berildi.

Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas deb bilishlari, agar oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi degan fikrlar ham uqtirib o'tildi.

2025-yil 13-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar bilan ishlash ma'naviyat bo'limi boshlig'i Sh.Abdullayev, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tyutori va Denov tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari bilan birgalikda “Buyuk kelajak” mahallasida istiqomat qiluvchi talabalar xonadonlarida o'rganish ishlari olib borishdi.



Uchrashuv davomida talabalarning yashash joylari ko'zdan kechirildi, is gazidan zaharlanishdan ehtiyot bo'lishlari, elektr energiyadan to'g'ri foydalanish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish haqida hamda tungi 22:00 dan so'ng maqsadsiz ko'chada yurmasliklari to'g'risida ogohlantirildi.

Shuningdek, yong‘in sodir bo‘lganda soha mutaxassislariga, “101” va “050” ga murojaat qilinishi kerakligi haqida tushuntirish ishlari olib borildi.

“Davlat bayrog‘i – millat faxri, Vatan timsoli”

2025-yil 13-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Denov tuman prokuraturasi hamkorligida Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilinganligining 34 yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda institut rektori O.Ruziyev, Denov tuman prokuraturasi vakillari, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar ishtirok etishdi. Dastavval institut rektori O.Ruziyev so‘zga chiqib, davlat ramzlarining mamlakat mustaqilligi va milliy g‘ururning muhim ifodasi ekanini ta’kidladi. Shuningdek, bayroqdagi har bir rang va ramzning ma’nosi, uning Vatanimiz tarixida tutgan o‘rni haqida atroflicha ma’lumot berdi.

Tadbir davomida prokuratura vakillari ham so‘zga chiqib, davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish har bir fuqaroning burchi ekani, yosh avlodni vatanparvarlik, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda bunday tadbirlarning ahamiyati katta ekanini qayd etdilar.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida iqtidorli talabalar bilan uchrashuv.

2025-yil 14-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori tomonidan iqtidorli talabalar bilan navbatdagi ochiq muloqot tashkil etildi. Uchrashuvda institutning ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish hamda ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dolzarb masalalar muhokama qilindi. Tadbirda soha prorektorlari, fakultet dekanlari hamda o‘zining faolligi, tashabbuskorligi va yutuqlari bilan ajralib turadigan iqtidorli talabalar ishtirok



etdi. Muloqot davomida talabalar o'z taklif va fikrlarini bildirishdi, mavjud imkoniyatlar hamda istiqboldagi loyihalar haqida batafsil ma'lumotlar berildi.



Uchrashuv iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish, ularga yanada kengroq imkoniyatlar yaratish va institutda ilm-fan rivojiga hissa qo'shish maqsadida muhim ahamiyat kasb etdi.

2025-yil 14-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-sonli TTJda **“Diniy muhitni sog'lomlashtirish”** mavzusida davra suhbatini o'tkazildi

Tadbirida institut rektori O.Ruziyev, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.Mengliboyev, Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Denov tuman bosh mutaxassisi K.Xolmirzayev, Denov tuman IIB tezkor qidiruv faoliyati – terrorizmga qarshi kurashish bo'limi katta tezkor vakili mayor S.Ergashev, Denov tuman Adliya bo'limi xodimi L.Raimov hamda talabalar ishtirok etdilar.



Davra suhbatida yoshlar o'rtasida sog'lom diniy muhitni shakllantirish, radikal g'oyalarning oldini olish, diniy bag'rikenglik hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari keng muhokama qilindi. Mutaxassislar tomonidan internetdagi noqonuniy materiallarga aldanmaslik, yoshlarning ongini himoya qilish bo'yicha tushuntirishlar berildi.



Aniq va tabiiy fanlar fakulteti talabalari bilan Rektor uchrashuvi. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish hamda kibermadaniyatni yuksaltirish

mavzusida aniq va tabiiy fanlar fakulteti talaba-yoshlari bilan Rektor uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Tadbirda institut rektori O.Ruziyev, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekani v.v.b B.Jo‘rayev, Denov tuman IIB xodimlari, Institut profilaktika inspektori O.Toshtemirov hamda 215 nafar professor-o‘qituvchilar va talaba-yoshlar qatnashdi.



Uchrashuv davomida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha dolzarb masalalar, yoshlar o‘rtasida kibermadaniyatni rivojlantirish va internetdagi xavfsizlik choralari muhokama qilindi. Rektor yoshlarni mas‘uliyatli bo‘lishga chaqirib, xavfsiz va sog‘lom muhitni ta‘minlash yo‘lidagi sa‘y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashini bildirdi.

Joriy yilning 14-noyabr sanasida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o‘qituvchilari, tyutorlar hamda Denov tumani maktabgacha va maktab ta‘limi muassasalari psixologlari uchun **“Nogironligi bor shaxslarning huquqlari”** mavzusida seminar-trening tashkil etildi. Tadbirda DTPI rektori O.Ruziyev, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Mengliboyev, Denov tumani nogironlar jamiyati bosh mutaxassisi A.R.Bobomurodov, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti dekan o‘rinbosari B.Jo‘rayev hamda institut psixologi D.Xolmuminova ishtirok etdi.



Seminar yakunida institut psixologi D.Xolmuminova tomonidan **“Sizningcha, baxtni qaysi rang bilan tasvirlash mumkin?”** mavzusida psixologik treningo‘tkazildi. Ushbu trening ishtirokchilarni

fikrlashga, ijodiy yondashishga va insoniy qadriyatlarni qayta anglashga chorlovchi mazmuni bilan alohida ahamiyat kasb etdi.


2025-yil 14-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakultetida RTV (Renessans) telekanali ijodkorlari – jurnalist, prodyuser, rejissyor va boshlovchi Parviz Fattoyev hamda shoumen, xonanda va aktyor Isabek Mastonov ishtirokida ijodiy uchrashuv va konsert dasturi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni institut rektori O.A.Ruziyev kirish so‘zi bilan ochdi. Uchrashuv davomida televideniyaning jamiyatdagi o‘rni, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati hamda san‘at sohasining murakkab jarayonlari haqida mehmonlar tomonidan atroflicha ma’lumot berildi.

Shuningdek, RTV kanali faoliyatiga oid yangiliklar taqdim etildi. Talaba-yoshlar iste’dodini televideniya orqali keng auditoriyaga yetkazish masalasi muhokama qilinib, o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar bildirildi.

2025-yil 15-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori tomonidan Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabalari uchun **“Yangi O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik”** mavzusida navbatdagi **“Kelajak soati”** mashg‘uloti o‘tkazildi.

Mashg‘ulot davomida: diniy bag‘rikenglik jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biri ekani, turli fikrlar, dunyoqarashlar va diniy e‘tiqodlarga ega insonlar tinch-totuv yashashi davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolayotgani, o‘zaro hurmat muhitini yaratish



yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini mustahkamlashi kabi jihatlar haqida so'z yuritildi.

Jarayonda talabalar bilan savol-javoblar o'tkazildi. Ular bag'rikenglikning amaliy hayotdagi o'rni, turli madaniyat va e'tiqodlarga hurmat bilan yondashishning ijtimoiy ahamiyati borasida o'z qarashlarini bildirdilar.

“Zakovat” intellektual o‘yini bo‘lib o‘tdi.

2025-yil 15-noyabr kuni O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Surxondaryo viloyati Kengashi tashabbusi bilan viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari Yoshlar Kengashi a’zolari o‘rtasida **“ZAKOVAT”** intellektual o‘yini o‘tkazildi. Unda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mezbonlik qildi.



Bellashuvda 5 ta jamoa g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Natijalarga ko'ra:

1-o'rin – Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga,

2-o'rin – Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali hamda Termiz davlat pedagogika institutiga,

3-o'rin – Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar institutiga nasib etdi.

Ushbu intellektual bellashuvda talabalar mantiqiy fikrlash, tezkor javob qaytarish va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarini namoyon etishdi. Savollar turlicha yo'nalishlarda bo'lib, ishtirokchilar bilim doirasining kengligini ko'rsatib, o'zaro qiziqarli bahs olib borishdi.

16-noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni

O‘zbekiston – ko‘pmillatli va ko‘p madaniyatli mamlakat. Zero, bu aziz Vatan barchamiz uchun mushtarak. Asrlar davomida turli millat va elat vakillari yurtimizda qo‘lni qo‘lga, yelkani yelkaga berib, totuv va ahillikda hayot kechirib kelmoqda. Bugun ham mamlakatimizda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik mustahkam qadriyat sifatida qaror topgan.

Ayni shu kunlarda DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti tyutori N.Inotullayev rahbarligidagi bir guruh fakultet talabalari Samarqand shahriga ichki turizm doirasida tashrif buyurishdi. Safar davomida ular turli millat vakillari bilan

samimiy suhbatlar o‘tkazib, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarini, an’analari va mehmondo‘stlik fazilatlarini targ‘ib qilishdi.



2025-yil 16-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tashabbusi bilan

“O‘zbekiston – umumiy uyimiz” shiori ostida mazmunli bayram tadbiri tashkil etildi. Tadbir doirasida talabalar tomonidan turli sahna ko‘rinishlari, badiiy chiqishlar va milliy an’analarni o‘zida mujassam etgan kompozitsiyalar namoyish etilib, ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi. Bayramona ruh, ijodkorlik va do‘stlik kayfiyati tadbirning bosh g‘oyasini – yurtimizdagi millatlararo totuvlik va bag‘rikenglikni yanada yorqin ifodaladi.



Tadbir yakunida institut rahbariyati vakillari ham so‘zga chiqib, bayram ishtirokchilarini tabrikladilar. Xususan, institut rektori O.Ruziyev o‘z nutqida bunday tashabbuskor tadbirlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni beqiyos ekanini ta’kidlab, professor-o‘qituvchilar va talabalar jamoasiga minnatdorlik bildirdi.



17-noyabr – “Xalqaro talabalar kuni”

2025-yil 16-noyabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbirda fakultet dekani M. Toshboboyev ishtirok etib, talabalarni “Xalqaro talabalar kuni” bilan samimiy tabrikladi. Shuningdek, u yoshlarga bilim olish jarayonida faol, tashabbuskor va izlanuvchan bo‘lishlari uchun tilaklar bildirdi.



Dastur davomida fakultetning iqtidorli talabalari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar, kuy va qo‘shiqlar namoyish etilib, bayramona ruh bag‘ishladi.

2025-yil 17-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida **“Milliy va jahon tarixining zamonaviy talqini: muammo va yechimlar”** nomli Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.



Anjumanga mamlakatimiz oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari bilan bir qatorda Muxtor Auezov nomidagi janubiy Qozog‘iston universiteti vakillari ham tashrif buyurishdi.

Anjumanni institutimiz rektori ochiq deb e‘lon qilar ekan, anjumanda ishtirok etayotganlarga o‘z minnatdorligini bildirdi.

2025-yil 17-noyabr kuni Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 8-oktyabrdagi 2/61-08-3101-sonli xati ijrosini ta‘minlash maqsadida DTPIda **“Eng faol yil talabasi”** respublika tanlovining institut bosqichi o‘tkazildi.

Mazkur bosqich doirasida tanlovni yuqori darajada tashkil etish maqsadida komissiya ishchi guruhi tomonidan fakultet bosqichidan saralangan nomzodlarning ilmiy, ijodiy, innovatsion, sport hamda ijtimoiy faoliyati chuqur o‘rganildi.





Nomzodlar quyidagi nominatsiyalar bo'yicha baholandi:

- “Yilning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha eng bilimdon talabasi”
- “Yilning eng faol targ‘ibotchi talabasi”,
- “Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi”
- “Yilning eng faol sportchi talabasi”
- “Yilning eng faol iqtidorli talabasi”
- “Yilning eng faol ijodkor talabasi”
- “Yilning eng faol tadbirkor talabasi”

Baholash jarayonlari yakuniga ko‘ra, har bir yo‘nalish bo‘yicha eng yuqori natijalarga erishgan, institut sha‘nini munosib himoya qilgan g‘olib talabalar aniqlandi.

2025-yil 17-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “**QS World University Rankings**” 367-370 o‘rinlarni egallagan Muxtor Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston universiteti “**Umumiy tarix va muzeyshunoslik**” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodlari Ibrayeva Nurila Amirovna va Otarbayeva Guljan Kubeyevnalar “**Tarix va falsafa**” kafedrasida professor-o‘qituvchilari hamda talabalari uchun mazmunli mahorat darslarini o‘tkazdilar.



Uchrashuv davomida mehmon professor-o‘qituvchilar XXI asrda tarixshunoslik sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar, ilmiy tadqiqot ishlarida

yangicha yondashuvga asoslangan metodlar hamda muzeyshunoslik yo‘nalishidagi ilg‘or tajribalar haqida batafsil ma‘lumot berdilar.

“Bayrog‘imiz – milliy g‘ururimiz”

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilingan sana “Bayrog‘imiz – milliy g‘ururimiz” mavzusida Institut talabalari tashabbusi bilan tadbir tashkil etildi.



Tadbir avvalida O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi. Shuningdek, tadbirni Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Mengliboyev kirish so‘zi bilan ochib, bugungi kunda bayrog‘imiz nafaqat mamlakatimiz osmonida, balki xalqaro maydonlarda ham faxr bilan hilpirab, O‘zbekistonning dunyodagi o‘rnini mustahkamlab borayotganini e‘tirof etdi. Institut jamoasi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik ruhini oshirish, davlat ramzlariga hurmatni kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham to‘xtalib o‘tdi.

2025-yil 18-noyabr kuni umumta‘lim maktabi bitiruvchilarining o‘zlari qiziqqan mutaxassisliklarni tanlash imkoniyatini kengaytirish maqsadida turli uchrashuv va tanishtiruv tadbiri o‘tkazildi.

Denov tuman 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktabi, shuningdek Oltinsoy va Sho‘rchi tumanlaridagi ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilari Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga tashrif buyurishdi.

Tashrif davomida institut rektori O.A.Ruziyev hamda Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani M.Toshboboyev mehmonlarga institutda



yaratilgan zamonaviy shart-sharoitlar, o‘quv jarayoni va ta’lim imkoniyatlarini batafsil tanishtirib o‘tdi.

Shuningdek, rektor O.A.Ruziyev O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining 34 yilligi munosabati bilan bayrog‘imizning tarixiy ahamiyati, undagi rang va timsollar mazmuni haqida bitiruvchilarga qimmatli ma’lumotlar berdi.

2025-yil 18-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti a’zolari tashabbusi bilan 1-sonli Talabalar turar joyida **“Bayrog‘imiz – milliy faxrimiz”** shiori ostida sportning voleybol turi bo‘yicha qizlar o‘rtasida musobaqa o‘tkazildi.

Mazkur musobaqa institutimiz rektori O.Ruziyev boshchiligida yuqori saviyada tashkil etilib, qizg‘in bellashuvlarga boy tarzda o‘tdi. Tadbir davomida ishtirokchi jamoalar o‘z mahorati, jamoaviy hamjihatligi va sportga bo‘lgan qiziqishini namoyish etdilar.

Musobaqa natijalariga ko‘ra:

1-o‘rin – Kuchlilar jamoasi

2-o‘rin – Alfa jamoasi

3-o‘rin – Everest jamoasiga nasib etdi.

Yakunda g‘olib jamoalar institutimiz rektori tomonidan faxriy yorliq hamda qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

2025-yil 19-noyabr kuni Ta’lim sifati nazorati bo‘limi bosh mutaxassisi D.Sh.Xudayberdiyev tomonidan DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti ARMga O‘zbekiston Respublikasi Jamoatchilik Xavfsizligi universiteti professor-o‘qituvchilari Sh.Ergashova va A.Turkmanovlar tomonidan yaratilgan “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit” va “Byudjet hisobi” nomli darsliklar shartnoma asosida olib kelib, DTPI talabalari va iqtisodiyot yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar uchun tuhfa qilindi.

Mazkur darsliklar institutimizda buxgalteriya hisobi, moliya va moliyaviy texnologiyalar, iqtisodiyot, bank ishi, biznesni boshqarish bakalavr yo‘nalishi va buxgalteriya hisobi, iqtisodiyot, moliya, biznesni boshqarish magistratura mutahassisliklari talabalari, boshqaruv va rahbarshunoslik masalalari bilan



shugʻullanuvchi mutaxassislar, professor-oʻqituvchilar, tadqiqotchilar va ushbu mavzuga qiziquvchi kitobxonlarga moʻljallangan.



“Biologiya va qishloq xoʻjalik mahsulotlari texnologiyalari” kafedra mudiri dots. M.K.Hamroyeva va S.Toshmirov 2025-yil 17-noyabr sanasida Oʻsimliklar fiziologiyasi fanidan Oʻsimlikka yutilayotgan suv miqdorini potometr yordamida aniqlash mavzusida 7B-2023 guruhlarda amaliy mashgʻulot olib bordi.



Mashgʻulot davomida talabalarining mavzu boʻyicha nazariy va amaliy koʻnikmalarini mustahkamlash maqsadida interfaol usullar, ilmiy-analitik mulohazalar, tajribaviy misollar hamda mavzuga oid vizual materiallardan foydalanildi. Bu esa oʻquv jarayonining samaradorligini yanada oshirdi.



Ushbu amaliy mashgʻulot kafedra oʻqituvchilari uchun tajriba almashish, taʼlim jarayoniga ilgʻor metodlarni joriy etish hamda mashgʻulot sifati va mazmunini yanada yuqori darajaga koʻtarishga xizmat qildi.

Steam taʼlimi asoslari

Pedagogika fakultetida bayrogʻimiz qabul qilingan kun munosabati bilan tadbir va tanlovlar davom etmoqda. Boshlangʻich taʼlim metodikasi kafedrasida oʻqituvchilari V.Rahmatullina, N.Ibragimovalar tashabbusi bilan Muattarxon Panjiyeva rahbarligida **“Men – kelajagi buyuk Oʻzbekistonning baxtli talabasiman”** shiori ostida Boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi 2-kurs talabarlari oʻrtasida jamoaviy bellashuv tashkil etildi.



Bellashuvning muhim jihati shundaki, jarayonda integratsiyaga asoslangan holda rang-barang shartlarning belgilanligidir. Talabalar bir vaqtning o'zida jamoa asosida karvin san'ati namunalari tayyorlashdi, sahnada raqs va sahnaviy chiqishlar, rasmlar va loyiha ishlari yaratishdi.

Yoshlarning yuzidagi quvonch tinchligimiz, bayrog'imiz mag'rur hilpirashi, chegaralarimiz daxlsizligi tufaylidir.

Tashkilotchilar tomonidan barcha ishtirokchilar munosib taqdirlandi va eng yaxshi ijodiy ishlar e'tirof etildi.

Xalqaro konferensiya

2025-yil 20-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Xorijiy til va adabiyoti quyi va yuqori kurslar kafedralari tomonidan tashkillashtirilgan **“Lingvistika va pedagogik texnologiyalar: xalqaro tajribalar va milliy amaliyot”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumaning asosiy maqsadi – zamonaviy lingvistika yutuqlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar va xorijiy ta'lim tajribalarini o'zaro taqqoslash, milliy ta'lim tizimiga moslashtirish hamda ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirishdan iborat bo'ldi.

Anjuman ishtirokchilari Tilshunoslikning dolzarb masalalari, Adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik, Til va adabiyot o'qitish metodikasi, Raqamli filologiya va sun'iy intellekt mavzularida Turkiyaning Firat universiteti,



Termiz davlat universiteti, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti professor-o'qituvchilari tomonidan ma'ruzalarni tinglashdi.



2025-yil 20-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti a'zosi, Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti yetakchisi A.Fayziyev hamda Tarix va falsafa kafedrasida o'qituvchisi N.Ollamurodov tashabbuslari bilan **“Qatag'on qurbonlarining Vatan ozodligi va millat kelajagi yo'lidagi fidoyiliklarini yod etish”** mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Tadbir davomida qatnashchilar qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyati, ular ko'rsatgan jasorat va fidoyilikka oid ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Shuningdek, yoshlar ongida tarixiy xotirani mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhini oshirish va ajdodlar merosiga hurmat bilan yondashish muhimligi bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi.



Uchrashuv ishtirokchilari mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bildirib, qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish va tarixiy haqiqatni yosh avlodga yetkazishdagi islohotlarning ahamiyatini ta'kidlashdi. g'

“Kibermadaniyatni yuksaltirish” profilaktik targ'ibot oyligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ-153-son qaroriga muvofiq, har yili noyabr oyi mamlakatimizda “Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi” sifatida e'lon qilingan. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Denov tumani IIB institut profilaktika katta

inspektorlari mayor O.Toshtemirov, hamda Filologiya fakulteti tyutori U.Omanovlar, talabalar ishtirokida **“Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi”** doirasida uchrashuv o‘tkazildi.



Tadbir davomida talabalar internetdan ongli foydalanish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etish bo‘yicha muhim tavsiyalar oldilar. Undan tashqari talabalar tomonidan sodir etilayotgan salbiy xolatlar va ularning salbiy oqibatlari to‘grisida ham to‘xtalib o‘tildi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14 fevraldagi 61-sonli qarori ijrosi buyicha Denov tadbirkorlik va pedagogika institutiga **“O‘zmilliybank”** Denov tumani filiali yuridik bo‘limidan Ulug‘bek Jo‘raev va Soatmurod Malikov hamda institutning **“Kelajakka qadam”** markazi mas‘ul xodimi Sherqo‘zi Jo‘raqulovlar ishtirokida bitiruvchi kurs talabalari bilan seminar trening tashkil etildi.



Seminarda talabalarga imtiyozli kredit foizlari, muddatlari haqida ma’lumotlar berildi.

2025-yil 21-noyabr kuni Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori Maxmudov Nosir Maxmudovich DTPI **“Raqamli iqtisodiyot”** hamda **“Moliya va bank ishi”** kafedralari professor o‘qituvchilari bilan davra suhbatida ishtirok etdi.



Suhbatni institutimiz rektori Oybek Abdumuminovich Ruziyev boshqarib bordi. Professor o‘qituvchilarimiz o‘zlarini

qiziqtirgan savollar bilan murojaat etishdi. Nosir Maxmudov o‘z muallifligidagi sohaga oid **“Raqamli iqtisodiyot asoslari”** va **“Yashil iqtisodiyot”** deb nomlangan kitoblarini institutimiz fondiga sovg‘a qildi.



2025-yil 22-noyabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani o‘rinbosari A. Ibragimov, fakultet tyutorlari hamda Denov tuman FVB tezkor bo‘linmasi boshlig‘i, katta leytenant Jumaey Oybek Mamayusupovich va Denov tuman FVB boshliq o‘rinbosari, katta leytenant Sadullayev Jamshid Xusanovichlar bilan hamkorlikda **“Totuvlik”** va **“Ko‘zichog‘li”** mahallalarida istiqomat qilayotgan talabalarning yashash sharoitlari o‘rganildi.



Tashrif davomida ijara xonadonlarining holati ko‘zdan kechirildi. Kuz-qish mavsumini talafotlarsiz o‘tkazish, shuningdek, is gazidan zaharlanishning oldini olish maqsadida talabalar va xonadon egalari bilan profilaktik suhbatlar o‘tkazildi. Ular uchun zarur tavsiya va ko‘rsatmalar berildi.

2025-yil 25-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası tomonidan tashkil etilgan **“Maktabgacha ta'limda sifat va samaradorlik, rivojlanish istiqbollari: muammo va yechimlar”** mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi.



Konferensiyada mamlakatimiz OTM professor o'qituvchilari va Novosibirsk shahar Qurilish-montaj kolleji direktori I.A.Xolina, Novosibirsk avtoservis va yo'l xo'jaligi kolleji direktori I.V.Sirmolotovlar ishtirok etishdi.



2025-yil 25-noyabr kuni O'quv ishlari bo'yicha prorektori U.X.Bo'tayev bilan bo'lib o'tgan mazkur uchrashuv magistratura ta'limi bo'yicha amaldagi nizom va me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablarini inobatga olgan holda tashkil etildi. Tadbir davomida magistrlik dissertatsiyasi mavzularining tanlanishi, ularning dolzarbligi va



ilmiy yangiligi, shuningdek, ilmiy rahbarlarning mas'uliyati va vazifalari batafsil tushuntirib o'tildi.

Shu bilan birga, magistrantlar tomonidan ilmiy maqolalar tayyorlash tartibi, ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish yo'llari, shaxsiy ish rejalari va ularning o'z vaqtida bajarilishi masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu uchrashuv magistrantlarning ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish hamda ta'lim sifatini yanada yaxshilashga qaratilgan muhim muloqot maydoniga aylandi.

2025-yil 25-noyabr kuni Novosibirsk shahar Qurilish-montaj kolleji direktori I.A.Xolina hamda Novosibirsk avtoservis va yo'l xo'jaligi kolleji direktori I.V.Sirmolotovlar Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori O.A.Ruziyev hamrohligida Uzun tumanidagi 2-son texnikumida bo'lishdi.



Texnikumda o'quvchilarni turli sohalarni egallashlari uchun amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdilar. Xususan, o'quvchilarning payvandlash, tikuvchilik, pishiriq tayyorlash bo'yicha orttirayotgan bilimlari e'tirofqa loyiq bo'ldi.

2025-yil 26-noyabr kuni Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Bobojonov Dilshod tomonidan magistratura ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Madaniyatlar qiyosiy tipologiyasi fanidan **“G.Hofstede madaniyati o'lchovi nazariyalari”** mavzusida ochiq dars mashg'uloti o'tkazildi.



Mazkur ochiq dars Magistratura 2-bosqichi MXT-2 guruhida bo‘lib o‘tdi. Mashg‘ulot davomida mavzuga oid qiziqarli zamonaviy ta‘lim metodlari qo‘llanilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanildi. Talabalar bilan birgalikdagi muhokamalar, guruhviy topshiriqlar va amaliy mashqlar dars jarayonini yanada samarali qildi.

Darsni kuzatishga tashrif buyurgan professor-o‘qituvchilar jarayonni diqqat bilan kuzatib, o‘z fikr va mulohazalarini bildirdilar.

2025-yil 26-noyabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida talaba-yoshlar ishtirokida 1–30 noyabr kunlari davom etayotgan **“Kibermadaniyatni yuksaltirish”** profilaktik targ‘ibot oyligi doirasida uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda viloyat IIB “Kiberxavfsizlik” bo‘limi tezkor vakili, kapitan F.Xoliqov, institut profilaktika katta inspektori, mayor O.Toshtemirovlar tomonidan bugungi kunda jiddiy xavfga aylanib borayotgan kiberjinoyatlar, ularning salbiy oqibatlari, kibermadaniyatni shakllantirishda e‘tibor qaratilishi zarur bo‘lgan muhim jihatlar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda xushyor bo‘lish haqida batafsil tushunchalar berildi.



Shuningdek, bank kartalaridan to‘g‘ri foydalanish tartibi, begona APK fayllarini ochmaslik, shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar ham ta‘kidlab o‘tildi.

Uchrashuvda mas‘ullar tomonidan videoroliklar namoyish etilib, hayotiy misollar asosida yoshlar ongiga mavzuning mohiyati yetkazildi.

Zo‘ravonlikka barham berish uchun birlashaylik.

Joriy yilning 26-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti xotin-qizlar maslahat kengashi, tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi hamda Tuman IIB hamkorligida Butunjahon ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish kuni munosabati bilan “Xotin-qizlarga nisbatan raqamli zo‘ravonlikka barham berish uchun birlashaylik” shiori ostida keng qamrovli tadbir tashkil etildi.

Tadbirda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlar, notinch va nizoli oilalarda istiqomat qiluvchi ayollar hamda talaba qizlar ishtirok etdilar. Hozirgi kunda tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha yaratilayotgan imkoniyatlar, ayollar mavqeini oshirishga qaratilgan islohotlar yuzasidan batafsil ma‘lumotlar berildi.



Shuningdek, tazyiqqa uchragan har bir xotin-qiz davlat himoyasiga olinishi ayollarning oilada va jamiyatda munosib o‘rin egallashiga xizmat qilayotssgani ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Surxondaryo viloyat hokimligining 2025-yil 10-apreldagi 01-16-254-son “Surxondaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlari rejasining tegishli bandlari ijrosi yuzasidan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti kafedralarining ish beruvchi hamkor tashkilotlarda kafedralarining filiallari tashkil etildi:

- DTPI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasida Turizm yo‘nalishi Denov tumanidagi “**Jasmin-Sorbon**” xususiy korxonasiga qarashli “**Turon**” mehmonxoasi bilan hamkorlik shartnomasi tuzildi;

- “Umumiy kimyo va kimyoviy texnologiyalar” kafedrasida tisoslashtirilgan ta’lim muassalari agentligi tizimidagi Denov tuman 2-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati bilan kafedra filialini tashkil etish haqida hamkorlik shartnomasi tuzildi;

- “Biologiya va qishloq xo‘jaligi texnologiyalar” kafedrasida Denov tuman “**Agrostar**” MCHJ bilan kafedra filialini tashkil etish haqida hamkorlik shartnomasini tuzildi;

- “Axborot texnologiyalari” kafedrasida Denov tuman 4-son Politeknikum bilan kafedra filialini tashkil etish haqida hamkorlik shartnomasi tuzildi.



2025-yil 27-noyabr kuni Sotim Ulug‘zoda nomidagi Tojikiston Xalqaro chet tillar universitetida “Поликультурная коммуникация, роль языков, литературы и науки в развитии современного общества” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Ushbu nufuzli anjumanda O‘zbekiston, Rossiya, Angliya, Koreya va Qozog‘iston davlatlaridan professor-o‘qituvchilar ishtirok etib, o‘z ilmiy maqolalari bilan qatnashdilar hamda o‘zaro ilmiy fikr almashdilar.



Konferensiyada Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Rus tili va adabiyoti” kafedrasidan bir guruh professor-o‘qituvchilar va magistrantlar ham ishtirok etdilar. Jumladan, kafedra o‘qituvchilari Zulfiya Rasulova, Dilbar Karimova, Nargiza Kalonova hamda 2-bosqich magistranti Rasulova Shahnoza ilmiy maqolalari bilan faol qatnashib, tashkilotchilar tomonidan sertifikat va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

2025-yil 27-noyabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida Noyabr – “**Intellectual imkoniyatlar oyligi**” doirasida “**Uchinchi Renessans**” shiori ostida “**Zakovat**” intellektual o‘yining final bahslari bo‘lib o‘tdi. Mazkur bahslarda 22 ta jamoa ishtirok etib, o‘z bilim va tafakkurlarini sinovdan o‘tkazdilar. Quvonarlisi, iqtidorli jamoalar qatorida Filologiya fakultetining kechki ta’lim yo‘nalishi talabalari ham faol ishtirok etishdi.

Keskin va qizg‘in bahslar yakunida quyidagi jamoalar g‘oliblikni qo‘lga kiritdi:



- 1-o‘rin – “Deadline” jamoasi;
- 2-o‘rin – 2I-25 guruhi jamoasi;
- 3-o‘rin – 16T-25 guruhi.

G‘oliblar faxriy yorliq, kitoblar jamlanmasi hamda ko‘chma kubok bilan taqdirlandi.

DTPI 1-son talabalar turar joyida 27-noyabr kuni “Raqamli zo‘ravonlik va unga qarshi himoya choralari” mavzusida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda institut Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova, profilaktika inspektori, mayor O.Toshtemirov, tyutorlar, tibbiyot hamshirasi U.Safarova, tarbiyachi-pedagog E.To‘rayev hamda talaba qizlar ishtirok etishdi.

Jarayon davomida mas‘ullar zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlariga qarshi kurashish, jamiyatda inson huquqlarini ta‘minlash, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiqlarning oldini olish borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Davra suhbatini davomida mavzu yuzasidan ochiq muloqotlar tashkil etildi, talabalarning savollariga javoblar berildi hamda profilaktik chora-tadbirlar bo‘yicha tavsiyalar taqdim etildi.

2025-yil 28-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Yoshlar ittifoqi Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti yetakchisi hamda professor o‘qituvchilar tashabbusi bilan “**Ajdodlarga munosib avlod bo‘laylik**” shiori ostida davra suhbatini bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv davomida yoshlarimizga buyuk ajdodlarimizning ilm-ma‘rifatga qo‘shgan hissasi, ularning jasorati, ma‘naviy merosi hamda bugungi avlod oldidagi burch va mas‘uliyat haqida batafsil tushunchalar berildi. Tadbir ishtirokchilari tarixiy shaxslarimizning





ibratli hayoti, ularning Vatan ravnaqiga qo'shgan ulkan hissasi haqida fikr almashdilar. Shuningdek, yoshlarni vatanparvarlik, fidoiylilik, yuksak maqsadlar sari intilish ruhida tarbiyalash, ma'naviy immunitetni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Markaz nashrlarining navbatdagi taqdimoti bo'lib o'tdi.

2025-yil 28-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida "Termiziylar avlodimiz" shiori ostida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan kitoblar taqdimoti bo'lib o'tdi.



Tadbirda universitet o'qituvchilari, talabalar, shuningdek Markaz xodimlari ishtirok etdi. Unda Markaz tomonidan chop etilgan kitob va risolalar hamda Termiziy allomalarning boy ilmiy-ma'naviy merosini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Tadbir davomida so'zga chiqqanlar mazkur taqdimotning yoshlar ma'naviy dunyoqarashini yuksaltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini kuchaytirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar.

Shuningdek, tadbir yakunida Markaz tomonidan "Buyuk Termiziylar" ruknida tayyorlangan 20 ta xalqchil risolalar universitet kutubxonasiga taqdim etildi.

Tadbir ishtirokchilari uchun bu uchrashuv nafaqat ma'naviy bilimlarni boyitishga xizmat qildi, balki buyuk ajdodlarimiz merosiga bo'lgan qiziqish va ehtiromni yanada mustahkamladi.

2025-yil 28-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining navbatdagi noyabr oyi Kengash yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilish rektor O.A.Ruziyev raisligida, Kengash a'zolari ishtirokida tashkil etildi.

Yig'ilishni institutimiz rektori O.A.Ruziyev boshqarib bordi.



O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor U.Bo‘tayevning, Pedagogika fakultetida ta‘lim sifati va olib borilayotgan o‘quv, ilmiy-uslubiy ishlar to‘g‘risida Ta‘lim sifati nazorat qilish inspeksiyasi boshlig‘i D.X.Shukurovning, Institut profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va “Qalqon” jamoasi faoliyati to‘g‘risida Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Mengliboyevning axborotlari tinglandi va har xil masalalar ko‘rildi.

Kengash yig‘ilishida ko‘rilgan masalalar bo‘yicha mas’ullarga ushbu topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

2025-yil 29-noyabr kuni Denov tumani prokuraturasida ochiq eshiklar kuni o‘tkazildi. Tadbirida Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari ishtirok etdi. Dastlab, tadbir ishtirokchilari tuman prokuraturasining faoliyati bilan tanishtirilib, ularga jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish, murojaatlar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari haqida tushuntirish berildi.



So‘ngra, yoshlar uchun tuman prokuraturasida tashkil etilgan “Ma‘naviyat burchagi” tanishtirilib, tuman prokuraturasining tarixiy rivojlanish bosqichlari, prokuratura faxriylari hamda qatag‘on qurboni bo‘lgan xodimlar xotirasiga oid ma‘lumotlar so‘zlab berildi. Tadbir yakunida talaba yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan ma‘lumotlarga ega bo‘ldilar.

2025-yil 29-noyabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishga jalb qilishda milliy

o‘yinlarimizning ahamiyati” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi. Tadbirni institut rektori kirish so‘zi bilan ochib, milliy o‘yinlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni alohida ta’kidladi. Anjumanda Indoneziya va Turkiya davlatlari shuningdek, respublika miqyosida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar ishtirok etib, mavzu bo‘yicha ma’ruzalar taqdim etdilar.



Tadbir davomida milliy o‘yinlarning zamonaviy sport tizimidagi o‘rni, ularni ommalashtirish mexanizmlari, aholining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish bo‘yicha taklif va ilmiy yondashuvlar muhokama qilindi. Xorijiy va mahalliy mutaxassislarning ishtiroki anjumanning ilmiy saviyasini yanada oshirib, tajriba almashish uchun keng imkoniyatlar yaratdi.

Anjuman doirasida institutga tashrif buyurgan mehmonlar Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida yaratilgan zamonaviy sport infratuzilmasi bilan batafsil tanishdilar. Institutda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish uchun




yaratilgan sharoitlarning bugungi zamon talablari asosida jihozlangani, ayniqsa milliy o‘yinlar bo‘yicha mashg‘ulotlar uyushtirilishi uchun alohida maydonlarning mavjudligi mehmonlar e’tiborini tortdi. Shuningdek, mehmonlar faoliyat yuritayotgan sport to‘garaklari bilan yaqindan tanishib, ular tomonidan olib borilayotgan mashg‘ulotlar jarayonini kuzatdilar. Talabalar ishtirokidagi kurash, belbog‘li kurash, shaxmat-shashka, futbol, voleybol hamda milliy o‘yinlar bo‘yicha to‘garaklar faoliyati delegatsiya a’zolarida katta taassurot qoldirdi.



Anjuman yakunida eng faol ishtirokchilarni rag‘batlantirish maqsadida taqdirlash marosimi o‘tkazildi. Unda ilmiy ma‘ruzalari, innovatsion g‘oyalari va amaliy takliflari bilan alohida ajralib turgan professor-o‘qituvchilar, yosh tadqiqotchilar hamda talabalarga faxriy yorliqlar va esdalik sovg‘alari topshirildi. Taqdirlash marosimi anjuman ishtirokchilarining mehnati va tashabbuslarini e‘tirof etish, shuningdek, ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qildi.

2025-yil 29-noyabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida “Xotin-qizlarga nisbatan raqamli zo‘ravonlikka barham berish uchun birlashaylik” shiori ostidagi



haftalik doirasida “Yoshlar – zo‘ravonlikka qarshi” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi. Tadbirda institut xotin-qizlar maslahat kengashi raisi N.Xasanova, Qizlarjon klubi raisi F.Xursanova, tyutor I.Xayrullayevlar so‘zga chiqib, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni qo‘llab-quvvatlash borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar haqida ma‘lumot berdilar.

Zo‘ravonlik turlari, ayniqsa Kiberhujum, uning keltirib chiqaruvchi omillar, undan himoyalaniş yo‘llari, shaxsga doir ma‘lumotlarni tarqatish, yolg‘on sahifalar va onlayn bezorilik kabi holatlar oqibatlarini hamda bu zo‘ravonlik turlariga qarshi huquqiy choralar yuzasidan ma‘lumotlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi PQ–232-sonli “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi qarorining 16-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida 2025-yil 1-dekabr kuni Pedagogika fakulteti 3-4-son TTJ tarbiyachi-pedagogi N.Shukurov, "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchilari D.Meliyeva, A.Normurodova va tyutor A.Jo'rayevlar tashabbusi bilan fakultet talabalari bilan birgalikda Samarqand shahrining tarixiy maskanlariga sayohat tashkil etildi.



Sayqali ro'yi zamin-Samarqandning boy tarixiy qadamjolari: Registon, Bibixonim maqbarasi, Hazrati Xizr, Abdurahmon Doniyor ota maqbaralariga tashrif buyurishdi. Tashkilotchilar tomonidan talabalarga ularning tarixi, yurtimiz tarixida tutgan o'rni, avliyo zotlarning kechmish tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar berildi.

2025-yil 1-dekabr sanasida Aniq va tabiiy fanlar fakulteti "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlari texnologiyalari" kafedrasida professor-o'qituvchilari va talabalari tashabbusi bilan 1-dekabr – Butunjahon OITSGa qarshi kurash kuni munosabati bilan **"OITSGa qarshi kurash: Bilim, Himoya va Birlik"** mavzusida ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Tadbirning asosiy maqsadi – aholining OITS bo'yicha xabardorligini oshirish, profilaktik choralar haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek, OITSGa chalingan shaxslarga nisbatan kamsitish va salbiy munosabatlarning oldini olish orqali jamoada birdamlik, ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirishdan iborat bo'ldi.



Tadbirda Denov tuman OITS profilaktikasi markazidan malakali mutaxassislar

hamda fakultet xotin-qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi D.Sodiqovalar ishtirok etdilar.

2025-yil 1-dekabr kuni Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari bilan tashkil etilgan sayohat davomida professor-o'qituvchilar Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetiga tashrif buyurishdi. Vakillarimiz universitetning infratuzilmasi, o'quv binolari, kutubxona markazi bilan yaqindan tanishdilar. Ayniqsa, ARM markaziga bo'lgan tashrif talabalarda katta qiziqish va taassurot qoldirdi.

ARMda DTPI talabalari va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining talabalari bilan suhbat o'tkazilib, o'zaro fikr almashildi. Shuningdek, ilm-fan sohasidagi eng so'nggi yangiliklar haqida mulohazalarini bildirishdi.

2025-yil 2-dekabr kuni DTPI rektori doktorantlar bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuv jarayonida ilmiy salohiyatni rivojlantirish masalalari muhokama qilinib, doktorantlarning ilmiy izlanishlariga oid dolzarb yo'nalishlar yuzasidan fikr almashildi. Rektor ilmiy faoliyatni samarali tashkil etish, metodologik yondashuvlarni takomillashtirish hamda yosh tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash borasida o'z mulohazalarini bildirdi.

Shu bilan birga, O.A.Ruziyev doktorantlarning ilmiy loyihalari, ularning taklif va tashabbuslari bilan tanishib bordi. Uchrashuv ilmiy muhitda ochiq muloqot, konstruk-tiv fikr almashinuvi va hamkorlik



ruhini mustahkamlashga xizmat qildi. Hozirgi suhbat davomida doktorantlar o‘z ilmiy g‘oyalari bilan o‘rtoqlashib, rektor tomonidan berilayotgan tavsiyalarni tingladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining yoshlar, ota-onalar hamda pedagoglarni giyohvandlik va narkojinoyatlarning salbiy oqibatlaridan ogohlikka chaqirishga oid qo‘shma murojaati 2025-yil 2-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham o‘qib eshittirildi.

Qo‘shma murojaat mazmuni institut professor-o‘qituvchilari, talabalari hamda ota-onalarga muntazam ravishda yetkazilib, undagi muhim ogohlantiruvchi fikrlar orqali ularning xabardorligi yanada oshirildi.



Murojaatni yetkazish jarayoni Denov tuman prokuraturasi tergovchisi Shorofiddin Hafizov va institut mas'ul xodimlari ishtirokida amalga oshirildi. Murojaatda yoshlarni giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida ogohlantirish, ularni turli xavf-xatarlardan xabardor qilish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga alohida e’tibor qaratildi.

“O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1992-yil 14-oktyabrdagi 47/3-sonli qaroriga muvofiq har yili 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni respublikamizda keng nishonlanib kelinmoqda.



Mazkur sana munosabati bilan bugun Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida DTPI Yoshlar ittifoqi koordinatalari jamoasi tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirni fakultet dekani M.Toshboboyev kirish so'zi bilan ochib, jamiyatda hech kim e'tibordan chetda emasligi, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash muhimligi haqida ta'kidladi. Shuningdek, iqtidorli koordinatalar tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar namoyish etildi.

Deputat, dekan va talaba-yoshlar uchrashuvi

2025-yil 2-dekabr kuni Pedagogika fakultetining "Yoshlar markazi" binosida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, fakultet dekani Ra'no Salomova ishtirokida talaba-yoshlar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbir davomida dekabr oyida nishonlanadigan muhim sana va bayramlar, jumladan, 1-dekabr – Butunjahon OITSGa qarshi kurash kuni munosabati bilan yoshlarni ogohlikka chaqirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish borasida fikrlar bildirildi.



Uchrashuvda talabalarning kuzgi semestr davomida olib borgan ilmiy va ijodiy faoliyati, turli tanlovlardagi ishtiroki, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish va topshirish jarayonidagi faolliklari tahliliy ruhda muhokama qilindi. Talabalarni fan to'garaklariga jalb etish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda badiiy adabiyot mutolaasiga bo'lgan qiziqishni oshirishning ahamiyati alohida ta'kidlandi.



Uchrashuvda talabalarning kuzgi semestr davomida olib borgan ilmiy va ijodiy faoliyati, turli tanlovlardagi ishtiroki, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish va topshirish jarayonidagi faolliklari tahliliy ruhda muhokama qilindi. Talabalarni fan to'garaklariga jalb etish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda badiiy adabiyot mutolaasiga bo'lgan qiziqishni oshirishning ahamiyati alohida ta'kidlandi.

Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasidagi uchrashuv

2025-yil 2-dekabr kuni DTPI Pedagogika fakultetida 1-dekabrden 31-dekabrgacha mamlakatimizda o'tkazilayotgan "Yong'in xavfsizligi oyligi" munosabati bilan Surxondaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Sariosiyo tumani favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i A.Bozorov hamda mutaxassislar ishtirokida talabalarga yo'naltirilgan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirda yong'inlarning kelib chiqish sabablari, ularning salbiy oqibatlari, shuningdek, is gazidan zaharlanish holatlari yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi.



Ayniqsa, ijara xonadonlarida istiqomat qiluvchi talabalarga isitish moslamalaridan to‘g‘ri foydalanish, is gazidan zaharlanishning oldini olish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish bo‘yicha muhim tavsiyalar taqdim etildi. Uchrashuv talabalarda yong‘in xavfsizligi madaniyatini oshirishga qaratilgan maqsadli profilaktik suhbatlar bilan davom etdi.

8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun.

2025-yil 2-dekabr kuni Denov davlat pedagogika institutining Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33



yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Talaba yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan mazkur tadbirda institut rektori O.A.Ruziyev, jinoyat ishlari bo‘yicha Denov tuman sudi raisi S.Bo‘tayev, sudya B.Diyorov, tergov sudyasi F.Nazarov, fakultet dekani, dekan o‘rinbosari, tyutorlar, talaba-yoshlar hamda mahalla faollari ishtirok etdilar.



Tadbirni institut rektori olib bordi. Unda ishtirokchilarga Konstitutsiyaning yangi tahririning mazmun-mohiyati, unda belgilangan inson huquq va erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini ta’minlashga oid mustahkam kafolatlar haqida atroflicha ma’lumotlar berildi.

2025-yil 3-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Filologiya fakultetida talabalar bilan navbatdagi uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Tadbirda professor-o‘qituvchilar hamda faol talabalar ishtirok etib, o‘quv jarayoni, ilmiy faoliyat va



talabalarning qiziqishlariga doir masalalar muhokama qilindi. Uchrashuv davomida institut rektori O.Ruziyev ta'lim sifatini oshirish hamda yangi o'quv dasturlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berdi.

Imkoniyati cheklangan talabalar uchun tashkil etilgan sport va ma'naviy-ma'rifiy tadbir.

2025-yil 3-dekabr kuni DTPIda imkoniyati cheklangan talabalar uchun keng qamrovli ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbir doirasida talabalar o'rtasida shaxmat-shashka hamda armrestling sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazilib, ularning faolligini oshirish, jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash va iqtidorini namoyish etish uchun zarur sharoitlar yaratildi.



Tadbir davomida institut rektori so'zga chiqib, mamlakatimizda davlat rahbari tomonidan imkoniyati cheklangan fuqarolarga, xususan yoshlar va talabalarga qaratilayotgan yuksak e'tibor, ular uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida alohida to'xtalib o'tdi. Rektor o'z nutqida Paraolimpiya musobaqalarida yuqori o'rinlarni qo'lga kiritib, yurtimiz nufuzini olamga tanitayotgan sportchilar – jumladan, Asila Mirzayorova va boshqa muvaffaqiyatli para-sportchilarning iroda va yutuqlari talabalar uchun yorqin namuna ekani ta'kidlandi.



Tadbir so'ngida musobaqalarda faol ishtirok etgan va yuqori natijalarni qayd etgan talabalar institut rahbariyati tomonidan munosib tarzda taqdirlandi. Ularga faxriy yorliqlar hamda esdalik sovg'alari topshirilib,



kelgusidagi o'qish va ijodiy faoliyatlarida muvaffaqiyatlar tilandi. Ushbu e'tirof talabalarni yanada rag'batlantirib, institutda inklyuziv ta'lim muhitini rivojlantirishga qo'shimcha turtki bo'ldi. Shundan so'ng tadbir fayzli dasturxon atrofida samimiy suhbatlar bilan davom etdi.

"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil"



Prezidentimizning 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-sonli "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 16-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2025-yil 4-dekabr kuni Filologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari N.Shoymardonova, O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi Q.Do'smurodov hamda fakultetning iqtidorli talabalari ishtirokida ma'naviy-ma'rifiy sayohat tashkil etildi.



Tashrif davomida ishtirokchilar Said Otaliq madrasasi, Shayx Aloviddin Attor maqbarasi hamda Dalvarzintepa

yodgorligi bilan yaqindan tanishib, ushbu tarixiy maskanlarning madaniy va ma'naviy ahamiyati, ularning xalqimiz tarixidagi o'rni haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lib qaytdilar.

Respublika darajasidagi fan olimpiadasiga rasmiy start berildi.

2025-yil 4-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Konstitutsiyamizning 33 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalari va tamoyillarini chuqur o'rganishga qaratilgan Respublika darajasidagi fan olimpiadasining OTM bosqichiga rasmiy start berildi.

Tadbir avvalida institut rektori so'zga chiqib, davlatimiz rahbarining yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlari, ularning bilim olishi, mustaqil fikrlashi va jamiyatda faol o'rin egallashi uchun keng sharoitlar yaratib berilayotganini alohida



ta'kidladi. Shuningdek, bunday olimpiadalar talabalar huquqiy savodxonligini oshirishda va ularda fuqarolik mas'uliyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-207-sonli **“Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”** Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida 2025-yil 4-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida talaba-yoshlar ishtirokida ma'rifiy davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda birinchi prorektor A.Mengliboyev, Shimoliy mintaqaviy hudud boshqarma boshlig'i podpolkovnik Sh. Shodiyev, jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i A.Yakubov hamda tuman narkolog vrachi I.Radjabovlar ishtirok etib, giyohvandlikning salbiy oqibatlari va unga qarshi kurashish bo'yicha dolzarb masalalarni yoritib berdilar.



Tadbir davomida yoshlarda huquqiy ongini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda ularni zararli illatlardan ogoh etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Yakunda talabalar bilan ochiq muloqot tashkil etilib, ularga zarur tavsiyalar berildi.

KONSTITUTSIYA – BIRLIK VA BARQARORLIK ASOSI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – mamlakatning asosiy qonuni bo'lib, oliy yuridik kuchga ega siyosiy-huquqiy hujjat sanaladi. Yurtimiz bosh qomusi 1992-yil 8-dekabr kuni qabul qilingan bo'lib, jamiyatimizda demokratiya, qonun

ustuvorligi va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasida hamda 4-bosqich talabalari hamkorligida Konstitutsiyamizning 33 yillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbir davomida talabalarning Yangi Konstitutsiya mazmun-mohiyatiga oid fikrlari tinglandi, sahna ko'rinishlari namoyish etildi, kuy va qo'shiqlar ijro etilib, ishtirokchilar qalbida chuqur taassurot qoldirdi.

2025-yil 5-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori Pedagogika fakulteti hududida joylashgan 3-4-sonli talabalarga mo'ljallangan turar joylarda qish mavsumiga tayyorgarlik holatini ko'zdan kechirdi. Tekshiruv davomida xonalar holati, isitish tizimining ishlash darajasi, yong'in xavfsizligi vositalari va sanitariya-gigiyena sharoitlari ko'zdan kechirildi. Rektor talabalarning qish mavsumida xavfsiz va qulay yashashi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar vaqtida ta'minlanishi muhimligini ta'kidladi.



Tashrif davomida aniqlangan ayrim kamchiliklar bo'yicha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi. Xususan, isitish tizimini to'liq ishga tushirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, talabalar bilan suhbat o'tkazilib, ularning taklif va fikrlari eshitildi.

2025-yil 5-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy

fanlar fakultetida milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat ruhini mustahkamlash maqsadida milliy liboslarni targ‘ib etish an‘anaviy tarzda yo‘lga qo‘yilgan. Har juma kuni fakultet professor-o‘qituvchilari hamda talabalari milliy liboslarda ishtirok etib, o‘quv va ish jarayonlarini shu ruhda davom ettiradilar.



Milliy kiyim – bu nafaqat libos, balki xalqimiz tarixi, g‘ururi va o‘zligining yorqin timsolidir. Mazkur muhit yoshlar qalbida milliylikga bo‘lgan hurmat, iftixor va sadoqat tuyg‘ularini yanada mustahkamlaydi.

Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashda barchamiz mas‘ulmiz

2025-yil 5-dekabr kuni Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-sonli “Aholi salomatligi va milliy genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida targ‘ibot tadbiri o‘tkazildi.



Tadbirda viloyat IIB Shimoliy mintaqaviy hududi jamoat xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘i, podpolkovnik Akbar Yakubov, institut profilaktika inspektori, mayor O.Toshtemirov, fakultet dekani, dekan o‘rinbosari, tyutorlar va talabalar ishtirok etishdi. Tadbir davomida talaba-yoshlarda “Giyohvandlikka qarshi immunitet”ni

shakllantirish, kuchli ta'sir qiluvchi dorilarni iste'mol qilishga nisbatan murosasiz munosabatni qaror toptirish, ta'lim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy-profilaktik ishlar amalga oshirildi.

Joriy yilning 6-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xotin-qizlar maslahat kengashi raislari N.Xasanova va P.Normamatovalar tomonidan Denov maktabgacha ta'lim va pedagogika texnikumi o'quvchilari bilan **“Ekologik qonunchilik – mening huquq va burchlarim”** mavzusida davra suhbat tashkil etildi.

Tadbir davomida o'quvchi-yoshlarga ekologik qonunchilik faqat davlat zimmasidagi vazifa emas, balki har bir fuqaro uchun shaxsiy mas'uliyatni talab etadigan muhim tizim ekani alohida ta'kidlandi. Tabiat bizga tegishli mulk emasligi, balki uni kelajak avlodga sog'lom va asrab-avaylangan holatda yetkazish barchamizning burchimiz ekani haqida fikrlar bildirildi.

2025-yil 6-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakultetida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yilligi yuksak ruhda nishonlandi. Tadbirda institut rektori O.Ruziyev, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlar ishtirok etishdi.

Tadbir davomida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, uning jamiyat va yoshlar hayotidagi o'rni hamda ahamiyati haqida atroflicha ma'lumotlar berildi. Shuningdek, talaba-yoshlar tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar namoyish etildi.



2025-yil 6-dekabr kuni Pedagogika fakulteti ARMDa Pedagogika va psixologiya kafedrasini mudiri, dotsent D.M. Boboqulova muallifligida yaratilgan **“Ijtimoiy pedagogika”** nomli yangi darslikning taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda kutubxona xodimlari, kafedra professor-o‘qituvchilari hamda Pedagogika yo‘nalishi 11-P guruh talabalari ishtirok etib, muallif tomonidan yaratilgan ushbu darslikning mazmun-mohiyati bilan batafsil tanishdilar. Shuningdek, D.M. Boboqulova tomonidan darslikning 9 dona nusxasi fakultet ARM fondiga topshirildi.



2025-yil 6-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida rektor va magistrlar uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Institut rektori boshchiligida magistrlar bilan navbatdagi ochiq muloqot o‘tkazildi. Unda magistrlik dissertatsiyalarining tayyorlanishi, ilmiy rahbarlar faoliyati, institut jurnaliga maqola tayyorlash talablari, tanlovlarda ishtirok etish hamda **“Kelajakka qadam”** dasturi doirasidagi biznes g‘oyalar muhokama qilindi.



Xorijiy OTMLar bilan hamkorlik imkoniyatlari haqida ham batafsil ma‘lumot berildi. Magistrlar savollariga rektor tomonidan atroflicha javoblar qaytarildi.

Uchrashuv davomida kimyo yo‘nalishi 1-kurs magistranti tomonidan bildirilgan ishga joylashish masalasi ko‘rib chiqilib, rektor tashabbusi bilan Dilafro‘z Abduganiyeva Denov tumanidagi 81-maktabga ishga joylashtirildi.

Tadbir so‘ngida rektor va magistrlar institutning Karyera markazi, issiqxona majmuasi hamda Axborot-resurs markazi bilan tanishdilar.

10-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun!

1992-yil 10-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan. Abdulla Oripov she‘ri va Mutal Burhonov musiqasi asosida yaratilgan madhiyamiz yurtimizning orzu-umidlarini, yorug‘ kelajakka ishonchini ifodalaydi.

Mazkur sana munosabati bilan DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda institut rahbariyati, ustozlar va talabalar ishtirok etib, madhiyani birgalikda ijro etdilar hamda uning tarixi va ahamiyati haqida ma'lumotlar berildi.



Shuningdek, institut rahbariyati tomonidan Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi hamda Filologiya fakultetining iqtidorli talabalari xalqaro maydondagi yutuqlari bilan e'tirof etildi.

O'quv seminari bo'lib o'tdi

2025-yil 11-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti faollar zalida Surxondaryo viloyat Kasaba uyushmalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Qobil Bobolov rahbarligida o'quv seminari tashkil etildi. Jarayonda Denov tuman maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi Kasaba uyushma qo'mitasi raisi E.A.Axrorov hamda tarmoqdagi boshlang'ich kasaba uyushmalari rahbarlari ishtirok etishdi.



Seminar davomida kasaba uyushmalarida ish yuritish, jamoa shartnomalarining mazmuni va ahamiyati, mehnat qonunchiligi, ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish tartibi, mehnat xavfsizligi va gigiyenasi, shuningdek, kasaba uyushma byudjetidan maqsadli va samarali foydalanish kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

DTPIda Axborot-resurs markazi faoliyatiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Axborot-resurs markazining asosiy yangiliklari, fondning kengayishi va zamonaviy axborot xizmatlari taqdim etildi. Hozirda ARM fondi 14 538 nomdagi 34 915 dona bosma adabiyot, shuningdek Unilibrary.uz tizimida 98 779 dona elektron resurs bilan boyitilgan. 2025–2026 o‘quv yili davomida professor-o‘qituvchilar va talabalar tomonidan 1286 dona adabiyot sovg‘a qilindi, institut tomonidan esa 1196 dona darslik va qo‘llanmalar xarid qilindi. Shuningdek, 56 nafar professor-o‘qituvchi muallifligidagi 236 nomdagi 1364 ta adabiyot ARMga topshirildi.



Markaz bir vaqtning o‘zida 350 nafar kitobxonga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, zamonaviy o‘quv zallari, kompyuter xonalari, Wi-Fi tarmog‘i va 24/7 elektron kutubxona tizimi bilan jihozlangan. Tadbir davomida ARMning kitobxonlik targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy loyihalari ham yoritildi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish doirasida Dr. Indra Safari, M.Pd va PhD, Nosirova Dilnoza Sobirovna hammuallifligida **“Entrepreneur in Physical Education”** nomli ilmiy-amaliy qo‘llanma nashr etildi. Mazkur nashr jismoniy tarbiya sohasida tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, sport ta‘limida innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda mutaxassislarni tayyorlashda amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.



Nashr xalqaro hamkorlikning samarasi sifatida institutimizning ilmiy salohiyatini oshirish va soha rivojiga hissa qo‘shish maqsadida tayyorlandi.

Surxondaryo ziyorat turizmi: O‘tmish merosi va bugungi imkoniyatlar muhokama qilindi.

2025-yil 15-dekabr kuni Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida **“Surxondaryo vohasi ziyorat turizmi imkoniyatlari: o‘tmish va bugun”** mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.



Tadbirda soha mutaxassislari, olimlar hamda ta'lim muassasalari vakillari ishtirok etib, O'zbekistonda mahalliy va xalqaro ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari, ilmiy va diniy turizmning mazmun-mohiyati, **“Ziyorat odobi”** va **“Halol turizm”** konsepsiyalari, shuningdek, Surxondaryo viloyatida ziyorat turizmini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'ri haqida ma'ruzalar qildilar.

Ushbu ilmiy-amaliy anjumanda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori O.Ruziyev, Raqamli iqtisodiyot kafedrasida professor-o'qituvchilari va talabalari faol ishtirok etdilar.

2025-yil 15-dekabr kuni Termiz shahri markazida joylashgan muhtasham **“San'at saroyi”**da “Talabalar teatr studiyasi” ko'rik-tanlovining 2-hududiy bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi. Mazkur tanlovda turli oliy ta'lim muassasalaridan tashrif buyurgan iqtidorli yoshlar o'zlarining sahna mahorati, ijodiy yondashuvi hamda san'atga bo'lgan muhabbatini namoyon etdilar. Tomoshabinlar e'tiborini tortgan sahna ko'rinishlari tanlovga o'zgacha ruh va ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Ushbu nufuzli tanlovda Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining **“Turon”** talabalar teatr studiyasi jamoasi ham faol ishtirok etdi. Jamoa a'zolari ijodiy chiqishlari, sahnadagi uyg'unlik va mazmunli g'oyalar orqali hakamlar

hay'atining e'tirofiga sazovor bo'lishdi. Natijada “Turon” talabalar teatr studiyasi faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritib, institut sha'nini munosib himoya qildi. Bu yutuq yosh

ijodkorlar uchun kelgusidagi muvaffaqiyatlarga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Uch avlod uchrashuvi.

2025-yil 16-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida Vatanparvarlik oyligi doirasida “Uch avlod uchrashuvi” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Mazkur uchrashuvda Janubiy-g‘arbiy okrug faxriylar kengashi a‘zolari, fakultet rahbariyati, tyutorlar hamda talabalar ishtirok etdi.



Tadbir davomida talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda ona Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yanada mustahkamlash maqsadida motivatsion trening mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Uchrashuv ishtirokchilariga vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va hayotiy tajribaga oid zaruriy tushunchalar hamda amaliy tavsiyalar berildi.

2025-yil 17-dekabr kuni Pedagogika fakultetida tashabbuskor va iqtidorli talabalarni jam etgan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. “**Boshlang‘ich ta’limda imloviy va punktuatsion savodxonlik**” fanidan “**Yil sarhisobi: yutuqlar va kelajak rejalari**” mavzusida tashkil etilgan mazkur tadbir “**Boshlang‘ich ta’lim metodikasi**” kafedrasida o‘qituvchisi Shohsanam Bahromova tomonidan o‘tkazildi. Unda 3-bosqich talabalari faol ishtirok etib, o‘z bilimlari, ijodiy salohiyati hamda mahoratlarini namoyon etdilar.



Tadbir davomida sahnaviy chiqishlar, kuy-qo‘shiqlar va she‘riy kompozitsiyalar ijro etilib, ishtirokchilarga yuqori kayfiyat ulashildi. Har bir chiqishda talabalar zukkolik, topqirlik va ijodkorlik fazilatlarini yaqqol namoyish etdilar. Tadbir yakunida faol va tashabbuskor talaba-yoshlar fakultet mas‘ullari tomonidan munosib rag‘batlantirildi.

2025-yil 17-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Pedagogika fakultetida navbatdagi tashkiliy va madaniy-ma‘rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbir doirasida Maktabgacha ta‘lim kafedrasining “Musiqqa ta‘limi” yo‘nalishi talabalari tomonidan tayyorlangan “San‘atga oshno dillar” nomli konsert dasturi namoyish etildi. Mazkur dastur institut hayotida muhim ahamiyat kasb etib, san‘at va madaniyatga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirishga xizmat qildi. Konsert dasturi institut rektori tomonidan bildirilgan samimiy tabrik so‘zi bilan ochib berildi.

Tadbirda institut rahbariyati, soha prorektorlari, fakultet dekanlari, mas‘ul xodimlar hamda fakultet professor-o‘qituvchilari ishtirok etdilar. Talabalar tomonidan ijro etilgan musiqiy chiqishlar yig‘ilganlarda katta taassurot qoldirib, yoshlarning ijodiy salohiyati va san‘atga bo‘lgan qiziqishini yaqqol namoyon etdi.

2025-yil 18-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida institut rektori Oybek Ruziyev raisligida rektor huzuridagi navbatdagi yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.



Yig'ilishda prorektorlar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari hamda tarkibiy bo'linmalar rahbarlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda rektor **“Sun'iy intellekt – davlat siyosati darajasidagi ustuvor yo'nalish”** mavzusida ma'ruza qildi, KPI tizimini joriy etish, ta'lim jarayonini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, qishki ta'tilni tashkil etish hamda **“Yashil makon”** loyihasi ijrosi va murojaatlar bilan ishlash masalalari muhokama qilindi. Mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda ta'lim jarayonini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, belgilangan vazifalar ijrosi hamda o'quv-uslubiy faoliyat holati muhokama qilindi. Shuningdek, talabalar qishki ta'tilini tashkil etish masalalariga e'tibor qaratildi.

Dekan va yoshlar uchrashuvi

2025-yil 19-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida **“Dekan va yoshlar”** uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda fakultet dekani M.Toshboboyev, “Axborot texnologiyalar” kafedrasini mudiri R.Mamajonov, kafedra professor-o'qituvchilari, tyutorlar hamda talaba-yoshlar ishtirok etishdi.



Uchrashuv ochiq formatda bo'lib o'tdi. Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha rektorlar forumida berilgan vazifalar bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Jarayon davomida talabalar tomonidan aytilgan bir qator muammo va takliflar bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

2025-yil 19-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti a'zolari tashabbusi bilan **“Toza qo'llar – sog'lom hayot kafolati!”** shiori ostida targ'ibot fleshmobi tashkil etildi.

Mazkur tadbir davomida ishtirokchilarga shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, xususan qo'llarni toza tutishning inson salomatligini asrashdagi muhim ahamiyati haqida tushuntirish ishlari olib borildi. Fleshmob sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, yuqumli kasalliklarning oldini olish hamda gigiyenaga bo'lgan mas'uliyatni oshirishga qaratildi.



Shuningdek, tadbir yakunida mazkur mavzu doirasida chellenj o‘tkazilib, ishtirokchilarning faolligi yanada rag‘batlantirildi.

“Fayzli Yangi yil karnavali – 2026” bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti tomonidan tashkil etilgan “Fayzli Yangi yil karnavali – 2026” bayram tadbiri yuqori saviyada va ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tdi.



Tadbir institutning faollar zalida tashkil etilib, unda institut rektori O.Ruziyev, Filologiya fakulteti dekani, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar faol ishtirok etdilar.

Karnaval shartiga muvofiq, barcha ishtirokchilar Yangi yil niqoblarida (maskada) qatnashib, bayramga o‘zgacha fayz va ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladilar.



Tadbir davomida talabalar tomonidan ijodiy sahna ko‘rinishlari, qo‘shiqlar, raqslar va qiziqarli chiqishlar namoyish etildi. Bayram jarayonida institut rahbariyati tomonidan talabalarning ijodiy faolligi va tashabbuskorligi e‘tirof etilib, tadbir yakunida faol ishtirokchilar tashakkurnomalar bilan rag‘batlantirildi.

2025-yil 21-dekabr kuni, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori 1-sonli talabalar turar joyiga tashrif buyurdi.



Tashrif davomida rektor talabalar bilan bevosita suhbatlashib, ularning yashash sharoitlari, kundalik ehtiyojlari hamda muammolari bilan yaqindan tanishdi.

Talabalar uchun yaratilgan yashash sharoitlari, sanitariya holati va isitish tizimlarining ishlashi atroflicha o‘rganildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda qish mavsumida isitish tizimlarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta‘minlash bo‘yicha mas‘ullarga aniq topshiriqlar berildi.

Shuningdek, elektr energiyasi uzilishlari yuzaga kelgan holatlarda eshik va derazalarni ochiq qoldirmaslik, issiqlikni tejash hamda xavfsizlik qoidalariga amal qilish bo‘yicha tushuntirishlar berildi.

Talabalar turar joylarida qulay, xavfsiz va zamonaviy sharoitlar yaratish institut rahbariyatining doimiy e‘tiborida.

2025-yil 23-dekabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining Tadbirkorlik va boshqaruv fakultetida dekabr oyi kengash yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.



Yig'ilishda institut rektori O.A.Ruziyev, prorektorlar A.Mengliboyev va R. Shukurov, fakultet rahbariyati hamda professor-o'qituvchilar ishtirok etdi.

Yig'ilishni fakultet dekani M.Toshboboyev olib bordi. Unda KPI tizimini joriy etish, ta'lim jarayonini takomillashtirish, ilmiy salohiyat va xalqaro hamkorlikni oshirish masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, sessiya jarayoniga tayyorgarlik va talabalarni qishki ta'tilga kuzatish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda ta'lim sifati, boshqaruv samaradorligi va o'quv-uslubiy faoliyatni yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

QAYDLAR UCHUN



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING DENOV
TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

ZIYO MASKANI

Muharrirlar:

Nodir Xo‘jamurodov

Feruz Melimurotov

Raxim Xudoyberdiyev

Anvar Berdiyev

Basir Safaraliyev

*Manzili: Surxondaryo viloyati, Denov tumani,
Bog‘ko‘chasi, 112- uy. Tel.: (76) 228-08-27
ichki raqam(110)*





Denov-2025